



O'zbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jumali

# 7/2021 ROSHADLIK



**Sa'dulla HAKIM**

## *Vatanga mansublik*

Banogoh qoyadan qulasa bir tosh,  
Tog' poyiga tushar, tog'ni tark etmas.  
Et bilan tirmoqdek bir jon-u bir tan,  
Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.

Osmonga intilgan havoyi bug'lar  
Baland parvozlarni qilsa ham havas,  
Bir kun qaytib kelar o'kirib-yig'lab,  
Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.

Shashmaqom – ming yillik navo muattar,  
Ochsam ko'kayimni yangrar qadim sas.  
Avlodlar tug'ilar, ajdodlar o'tar,  
Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.

Ulug'lar yuksalar yer ostida ham,  
Haykal bo'lib o'sar, eli unutmaz.  
Shahidlar bog'idan kuylab o'taman:  
Vatandan yaralgan Vatandan ketmas.

Toshdan uchgan uchqun "yalt" etib o'char,  
O'chgan cho'g' qayta o'z holiga kelmas.  
Choponing silkisang g'ubori ko'char,  
Vatandan to'kilgan Vatandan emas!



**Muassislar:**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi

1982-yildan chiqa boshlagan.

**Tahrir hay'ati:**

Sirojiddin SAYYID  
Iqbol MIRZO  
Nodir JONUZOQ  
G'ayrat MAJID  
Sobir O'NAR  
Kengesboy KARIMOV  
Shuhrat SIROJIDDINOV

**Jamoatchilik kengashi:**

Alisher SADULLAYEV  
Minhojiddin MIRZO  
Botirjon ERGASHEV  
Bahodir KARIMOV  
Ilhom TO'XTASINOV  
Rustam MUSURMON  
Abatbay DANIYAROV  
Farrux JABBOROV

**Bosh muharrir v.b.:**

Nurilla CHORI

**Mas'ul kotib:**

G'iyosiddin O'NAROV

**Muharrirlar:**

Sardor TOLLIBOYEV,  
Dilnoza RUSTAMOVA

**Rassom:**

Asliddin KALONOV

**Manzilimiz:**

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,  
Bunyodkor ko'chasi, Adiblar xiyoboni,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi binosi.  
Indeks 100066

E-mail: [yoshlik-jurnali@umail.uz](mailto:yoshlik-jurnali@umail.uz)

Veb sayt: [www.yoshlikjurnali.uz](http://www.yoshlikjurnali.uz)

Tel.: (71) 231-20-58, 231-20-59

Navbatchi muharrir: S.Tolliboyev

4

**Sirojiddin Sayyid**  
Zomin seminarlari:  
sog'inch va hayajonlar



11

**Xayriddin Sulton**  
"Sizlar ham o'qinglarmi?"



22

**Ergash Saliyev**  
Yoshlik va nafosat  
bayrami



24

**Shodi Otamurod**  
Tog'lar qizg'anmaydi  
mendani o'zini...



**26**

**Abduhamid Muxtorov**  
Yolg'iz odam



**31**

**Ozoda Abdurashidova**  
Tengdoshlarim  
ijodiga nazar




**34**

**Sayfiddin Okanov**  
To'zg'ib xayolingiz,  
bo'ronday  
kezsam...



**36**

**Sitorabonu Shomurodova**  
Ishqdan aytma,  
ko'ngil – yarador ohu



**53**

**Saodat Fayziyeva**  
Tongda meni  
ko'rib, ko'zlari  
kulsin...



**40**

**Humoyun Fattoh**  
Sochaloq qilishdi  
ko'ngil mulkimni...



**42**

**Otabek Isroilov**  
Zomin kundaligi



**41**

**Shamshoda Hamdamova**  
Yuragimiz bo'lsin  
ishqning ummoni...

**47**

**Shukurullo Ahmedov**  
Notanish siyrat

**52**

**Parizoda Ro'ziboyeva**  
Tun o'ynar oy kokilasini

## ZOMIN SEMINARLARI: sog‘inch va hayajonlar



**Sirojiddin SAYYID,**  
O‘zbekiston xalq shoiri

*Inson hayotida shunday nomlar, manzillar bo‘ladiki, ularning mehr-u sog‘inchi bir umr dilda yashaydi. Qalb va ongni tarbiyalashga, odam bolalarini ezgulik va olijanoblikka intilib yashashga o‘rgatadi.*

**B**ir bulbul umricha umr ko‘rgan gulnafas shoirimiz: “Eng gullagan yoshlik chog‘imda, Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda. Shunda ko‘zim ko‘rdi bahorni, Shunda qalvim tanidi yorni” singari betakror satrlarni bitar ekan, o‘z qalbi va she‘riyatining navbahori bilan shuncha sog‘inch-u iztiroblar, ilinj-u intizorliklarni ortda qoldirib, bir umrlik hajr-u ayriliqlardan so‘ng, nihoyat, oradan rop-pa-rosa yetmish besh yil o‘tgandan keyin Toshkentda bino etilguvchi Adiblar xiyoboni yoki Jizzax shahridagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi maydonda diydorlashish nasib etmog‘ini xayoliga keltirganmikan?..

Beixtiyor ustoz yuksak mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘g‘irgan go‘zal nazm namunasi, tarjimada bo‘lsa ham, bashorat yanglig‘ yangragan



“Meni kutgil” she’rining go’zal va armonli satrlari xotirga keladi:

*Meni kutgil va men qaytarman,  
O’limlarni qoldirib dog’da.  
Ishi o’ngdan kepti desinlar  
Kutmaganlar meni u chog’da...*

Shu o’rinda, ulug’ adiblarimiz, aziz yoshlarimizdan izn so’rab, ularni poytaxtdagi nafis majlislar xiyobonida qoldiramiz-da, bundan yigirma to’rt yil burungi tarixga, aniqrog’i, 1997-yilning ayni yoz chillasida olam-olam zavq-u hayajonlar og’ushida yashayotgan Jizzax viloyatiga, uning so’lim tog’- u toshlari bag’riga nazar tashlaymiz.

Tasavvur qiling: mustaqillikka erishganimizga endigina olti yil bo’layotgan qiyin va mashaqqatli pallalar. Nizo-yu adovatlariga to’lug’ notinch, sertahlika dunyoda do’st-u birodarlarimizdan ko’ra bizga mensimay, olayib qaraydiganlar ko’proq. Temir yo’llarimiz qurilmagan, “Afrosiyob” tezyurar poyezdlarimiz hali biz uchun cho’pchak... Sobiq mustabid tuzumning siniq qovurg’alarini eslatuvchi eski ko’priklar-u chalayarim binolar deyarli har qadam, har go’shada uchraydi. “Yangi uy qurmay turib eskisini buz-mang” degan, o’z vaqtida aytilgan chuqur, teran mazmunli hikmat ijtimoiy ahamiyat va zalvar kasb etgan. Halol va mehnatkash xalqimiz tarixiy sinovlar qarshisida irodasi bukilmay, uzoqni ko’ra oladigan mard va matonatli rahnamosi boshchiligida kelajakning buyuk binosini bunyod etishga azm-u shijoat bilan bel bog’lagan. Qiyinchilik va muammolar, yechimini kutayotgan, hal qilinishi zarur bo’lgan ulug’vor ishlar va rejalar benihoyat ko’p. Bug’doy noning bo’lmasa ham, bug’doy so’zing bo’lsin deyilganiday, el-ulusning, ayniqsa, yoshlarning hayotga ishonchini mustahkamlaydigan, ertangi kunga umid uyg’otadigan har qanday ezgu tashabbus, amalga oshiriladigan har qanday xayrli niyat suv bilan havoday zarur bo’lgan qiyin va murakkab o’tish davrida adabiyot ahliga, aniqrog’i, yosh ijodkorlar ko’ksiga so’lim Zomin tog’laridan bir salqin

nasim, jonbaxsh-hayotbaxsh bir shamol esib goldi-ku!..

Mamlakat adabiy hayotida, adabiy jarayon va jamoatchilik orasida, ayniqsa, yosh ijodkorlar uchun nufuzi va maqomiga ko’ra tom ma’noda chinakam adabiyot bayramlariga aylangan, ne-ne ustozlar-u shogirdlarning yuraklarini jimirlatib orziqtirgan Zomin seminarlari o’z-o’zidan paydo bo’lgani yo’q. O’rikli soyning betimsol tabiati manzaralari bilan aka-uka, opa-singil tutingan bu betakror adabiyot bayramlarining, yoshlik va surur anjumanlarining haqiqiy ijodkori, chin tashabbuskori o’sha kezlarda Jizzax viloyati rahbari lavozimida ishlagan muhtaram Shavkat Mirziyoyev – ijtimoiy faoliyati-yu ish tartibi o’ta tig’iz bo’lishiga qaramasdan, katta e’tibor va xayrixohlik bilan o’zi egalik qilib, o’zi boshqosh bo’lgan holda anjumanni yuksak maqomda tashkillashtirib, o’tkazib bergani bois, seminarning aks-sadolari bilan quvonch-u hayratlari tez orada butun mamlakatga yoyilib ketdi. Tashabbus bilan g’oya – adabiyotsevar va ma’rifatparvar rahbarga taalluqli bo’lgani, g’oya va niyat muallifining o’zi uni amalga oshirishda bevosita rahbarlik qilib ishtirok etayotgani-yu yosh shoirlar bilan bab-baravar zavq-u shavqqa to’lib, quvonib-shodlanib o’tirgani – shu birgina holatning o’zi seminarining nufuzini ham, mavqeini





ham yanada yuksaltirib yuborgan, bu kutilmagan e'tibor va xayrixohlikdan ancha-muncha davra ko'rgan tajribali ustozlar ham hayajonga tushgan edi. O'sha paytlarda shahar va tuman miqyosida o'tadigan ko'pgina adabiy yig'inlarda aksariyat mahalliy rahbarlarning qatnashishi u yoqda tursin, ijod ahliga ro'yxush bermasdan, adabiy-ma'naviy tadbirlarga nopisand qaraganiga ko'p bora duch kelgan, shunga ko'nikkan keksaroq adiblar uchun bu yangilik rostakamiga hayratlanarli edi.

Bugun endi o'ylab, muqoyasa qilib ko'radigan bo'lsak, adabiyot va ijod ahliga e'tibor, yosh iste'dodlarga ko'rsatilayotgan amaliy g'amxo'rlik, kitob va kitobxonlik masalalari, Adiblar xiyoboni va uning doirasida Yozuvchilar uyushmasining yangi binosini bunyod etish, atoqli adiblari-mizning nomi va hurmatini joyiga qo'yish singari ezgu ishlar borasida davlat rahbari tomonidan qabul qilingan qaror va hujjatlar, mamlakatimizning qaysi go'shasiga bormang, yarq etib ko'zga tashlanadigan, bugungi ijtimoiy-siyosiy hayotimizning ishonchli timsoli, jonli belgisiga aylangan Xalq qabulxonolari-yu odamlar bilan ochiq muloqot olib borishdek

---

*Inson hayotida shunday nomlar, manzillar bo'ladiki, ularning mehr-u sog'inchi bir umr dilda yashaydi.*

---

ezgu amallarning ilk tamal toshlari ham o'sha Zomindagi muborak anjumanlarda qo'yilgan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Kuni kechagina taniqli bir shoir ukamni savolga tutsam, "Bizning orzu-umidlarimiz Zominda, O'rikli soy o'riklarida kurtak yozgan..." deya juda jo'yali javob qildi.

Bir oddiy kurtak gul bo'lguniga do'vur, undan barg yozib, g'o'ra tugib, toki meva bo'lib pishib-yetilgunga qadar kechadigan fursatda qancha tahdid bilan xavf-xatar, sovuq izg'irlar-u do'l-yomg'irlarga duchor bo'lmog'ini ham, albatta, hamisha yodda tutmoq shart va zarur. Tiriklikning gul-chechaklarini har on, har soat o'ylab yashaydigan, shirin-shakar ne'matlarini ko'z qorachig'i bilan yurak-yuragida asrab-avaylab o'stiradigan el-yurtdagina ta'mi achchiq va taxir pushaymon mevalari kamroq bo'ladi.

1997-yili tug'ilgan farzandlar bu yil ikki muchalni to'ldirdi. O'sha o'g'il-qizlarimiz bugungi kunda kerakli bilimlarni olib, o'zlari ham oilasi, bola-chaqasiga bosh bo'lib, katta hayot maydonida yurt so'rab turishibdi. O'tgan yil davomida dunyo necha bor evrilib, alg'ov-dalg'ov bo'lsa-da, odamzodning ezgu orzu-armonlari hamon eskirgani yo'q. Ming afsuski, dunyo bo'yicha jaholat va razolatning xuruji ham zo'raysa zo'rayganki, aslo kamaymagan. Ilm va ma'rifatga, insoniylik va olijanoblikka talab ham, ehtiyoj ham katta. Odam bolalari mehrga ham, ma'rifatga ham hamon tashnaligicha qolmoqda.

O'shanda, bundan yigirma to'rt yil oldin – butun boshli mingyillikning anjom topishiga ham, insoniyat tamadduni va tarixining yangi uchinchi mingyilligi boshlanishiga ham bor-yo'gi uch yilgina muddat qolgan g'ala-g'ovur bir paytda, ming-ming asrlarning tig'iz o'tish pallalariga to'g'ri kelgan Zomin seminari haqida chop etilgan gazetalarda o'qiymiz. Ustoz Abdulla Oripov:

– Mamlakat yosh shoir va yozuvchilarining Zominda o'tgan anjumani g'oyatda samarali bo'ldi. Biz bu anjumanga shunchaki navbatdagi tadbir sifatida qaramasligimiz kerak. Negaki, yosh ijodkorlarning seminar-kengashini o'tka-

zar ekanmiz, ko'nglimizning bir chetida unchalik ham oson bo'lmagan hozirgi sharoitda yoshlarimiz adabiy-badiiy ijoddan tirikchilik yo'lga ketib qolmadimikan degan xavotir yo'q emas edi. Eng muhimi, hech bir lofsiz, balandparvoz gaplarsiz, baralla ayta olamizki, oqqan daryolarimiz oqib turibdi ekan... Ayni chog'da yoshlarimizga ba'zi topshiriqlarimiz ham yo'q emas. Inson o'z qalbini qanchalik tadqiq etsa, o'sha qalbdagi yashaydigan Xalq hamda Vatan tuyg'ularini ham shunchalik teran va samimiy tadqiq etmog'i lozim... Umu-man, seminar-kengashda bir qancha yosh ijodkorlarni ko'rishga, ularning ijod namunalari bilan tanishishga muyassar bo'ldik. Shu o'rinda ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlagan viloyat hokimligi, turli jamg'armalar, muassasalarga rahmat aytishni burchimiz deb bilamiz. Ayniqsa, Jizzax viloyat hokimi Shavkat Mirziyoyev, Zomin tumani hokimligi rahbarlari anjumanimizning bevosita homiylari bo'ldilar. Zomin tog'laridagi xushmanzara oromgohda ellikdan ortiq yosh iste'dodlarni quchoq ochib kutib oldilar, barcha zarur sharoitlarni yaratib berdilar... Men aminmanki, bugundan e'tiboran "Zomin adabiy maktabi" degan atama ham ijod olamida keng urf bo'ladi...

"Turkiston" (hozirgi "Yoshlar ovozi") gazetasi 1997-yilgi 5-iyul sonida Zomin adabiy saboqlari haqida shunday axborot beradi:

*Ezgu g'oya, olijanob niyat va maqsadlar o'zining bardavomligi bilan, odamlar va el-u yurt hayotidagi chiroyli amaliy ifodasi orqali ham yanada ko'rk va joziba baxsh etadi.*

– Kuni kecha Jizzax viloyatining Zomin tumanida Respublika yosh ijodkorlarining seminar-kengashi ish boshladi. Mazkur anjuman O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Jizzax viloyati hokimiyati bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Mashg'ulotlarga taniqli shoir va yozuvchilar boshchilik qilmoqdalar. Jonajon O'zbekistonimizning davlat mustaqilligi sharoitida qutlug'an'analarga tayangan holda iste'dodli yoshlar bilan ishlash sohasida ham yangi-yangi ufqlar ochilmoqda. Jumladan, mazkur seminar-kengash jannatmakon yurtimizning afsonaviy go'shalardan birida, go'zal tabiat og'ushida o'tkazilayotgan dastlabki ijodiy anjumandir. U mustaqillikka erishgan yurtimiz jamolini yuksak badiiy shakllarda tarannum etish yo'lidagi yangi bir qadam bo'lishi muqarrar...

Aytish joizki, Zomin seminariga qadar ham bu yo'sindagi yig'inlar, adabiy anjumanlar o'tkazilib kelingan bo'lsa-da, ularning darajasi-yu nufuzi talabga javob bermas, ko'p hollarda tarqoq va rasmiyatchilik nuqtayi nazaridan tashkil etiladigan bunday anjumanlardan keyin bo'ladigan gurunglarning bor-yo'q indallosi "yumaloq yostiq qilib qaytdik"dan nariga o'tmas edi. Albatta, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar saroyida bir paytlar Mirtemir va G'ayratiy domlalar rahbarlik qilgan seminar-darslar, "Turkiston" gazetasi qoshidagi adabiy to'garakda ustoz Asqad Muxtor ishtirokida kechgan mahorat saboqlari, Do'rmon, Miroqidagi uchrashuvlar-u Respublika ijodkor o'qituvchilarning viloyatlarda har ikki yilda bo'lib turadigan tanlovlari, shuningdek, Moskva, Tbilisi, Vladivostok shaharlari-da o'tkazilgan yosh ijodkorlarning Butunittifoq





seminar-festivallarigacha – eslab gapirsa arziydigan yig'inlar ham bor ediki, ularning qadri va ahamiyatini zarracha kamsitmaganda baralla aytish mumkinki, Zomin anjumanlarida bo'lgani kabi baland maqomdagi e'tibor, xayrixohlik va tashkilotchilik, faxr-u iftixor bilan g'ururbaxshlik ularning birortasiga ham nasib etmagan.

Shu munosabat bilan yoshlar gazetasi o'rinli muqoyasalarni keltiradi:

– Yana bir holatni alohida mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardikki, mazkur seminar-kengashda sho'ro tuzumi davridagi ijodkorni yashamay qaritishga qaratilgan xo'jako'rsin siyosat sabab, ellikni qoralab qolsada, yosh ijodkorlar safida uyalmay-netmay sudralib yuruvchi qalami nochor qalamkashlar mutlaqo yo'q. Demoqchimizki, butun diqqat-e'tibor ayni balog'at yoshida turgan, adabiyot bog'iga yonib kirib, uni obod qilish ishtiyoqida kuyib-pishib yurgan tom ma'nodagi iste'dodlarga qaratilgandir... Zero, donishmandlikda benazir xalqimiz "Bo'ladigan bola o'n beshida bosh bo'lar..." deganidek, so'z san'ati karvoniga o'n beshida bosh bo'la oladigan iste'dodli yoshlar uning kelajagidir...

Biz Navoiy bobomiz bashorat etgan nafis va go'zal adabiyot majlislariga rostakamiga shu ma'voda guvoh bo'ldik. Hali maktab partasida o'tirgan chog'larimizda ustoz Hamid Olimjonning "*Bunda bulbul kitob o'qiydi*" satrlari mazmunini ilg'amasdan, fahmiga yetmay yurgan ekanmiz. Bulbullarning hayot va yoshlik nashidasidan zavqqa to'lib, "chah-chah" aylab kitob o'qishlari-yu she'r aytishlarini biz jannatmonand shu go'shada o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Yosh yuraklarga Zominsoyning toshqin mavjlari bilan to'lqinlanib kirguvchi, O'rklisoyning tonggi sabolari bilan shaydo ko'ngillarni jonbaxsh nasimlarga to'ldirguvchi betimsol va betakror bu tog' u toshlar, qir-adirlarning har giyoh, har may-sasidan Vatan isi anqiydi. Ona yurtning, aziz va tabarruk tuproqning bo'y-iforlari qalblarni, tuyg'ularni yuksakka ko'taradi. Inson ko'ksi bu yerda osmonga aylanadi. Yosh ko'ngillar Vatan



darsini, insoniylik va mehr-u sadoqat saboqlarini shundan o'rganadilar.

Zomin seminarlari tashkil etilgan kundan boshlaboq, uning ovozi-yu orzu-havaslarini butun mamlakatning shahar-u qishloqlari bo'ylab el-u eldoshlarimiz qalbida, ayniqsa, yoshlar orasida keng aks-sado berdi. Odatda, bunday hollarda "aholi keng qatlamlarida" degan ibora ko'p ishlatiladi. O'sha yillarda "aholi keng qatlamlari" kimlar edi? Tasavvur qiling: mustabid tuzum changalidan endigina xalos bo'lib, katta azm-u shijoat bilan mutlaqo ozod va obod Vatan, yangi hayot, yangi turmush qurish yo'lga o'tgan, mard va matonatli bir el, bir buyuk xalq. Dehqonlar, o'qituvchilar, ishchilar va ziyolilar, binokorlar va quruvchilar, kosiblar bilan hunarmandlar, cho'pon-cho'liqlar-u mirishkor-bog'bonlar. Va bularning barchasida butun xalq va millatning o'y-tashvishi bilan birga, o'z quvonch-u iztiroblari, o'ziga yarasha orzu va armonlari ham bor edi. Vatanimizning barcha go'shalaridan qaldirg'ochlarday tizilishib, qatorlashib Zomin anjumaniga kelgan umidli o'g'il-qizlarimiz ham begona emas, aynan shu halol va tanti elning, kamtarin va xokisor shu xalqning dilbandlari, jigarbandlari edi. Ko'rkam, navnihol shu bo'yiginalari xush qadd-u qomat kasb etgunga qadar ota-onalari qancha qonlar yutgan, qancha-qancha uyqusiz kechalarni mijja qoqmay bedor o'tkazgan. Anjumandan maqsad: "yilt" etgan uchqun, shu'la sochgan iste'dod borki, ilg'ab topish, ko'ngilini ko'tarish, to'g'ri maslahat berib, to'g'ri yo'lga yo'naltirish.

Endi aytish mumkinki, Zomin seminarlari o'z nomi va darajasi, mavqei va nufuzi nuqtayi nazari-



dan sobiq ittifoqning biron bir respublikasida – na Boltiqbo‘yi va na Rossiya, na arman diyori va na turkman elida – boshqa biror mamlakatda yosh ijodkorlarning bunga o‘xshash davlat miqyosida katta mehr va e‘tibor bilan tashkil etilgan keng ko‘lamli ijodiy anjumanlarining nom-u nishoni ham yo‘q edi.

Seminarining ilk mashg‘ulotlariga jalb etilgan ustozlar, katta-kichik taniqli shoir-lar-u adiblar ro‘yxatiga bir qur nazar tashlab o‘tishning o‘ziyoq, anjumanga nechog‘li jiddiy e‘tibor bilan qaralganini bildiradi: Pirm-qul Qodirov, Jumaniyoz Jabborov, Abdulla Oripov, Ibrohim Rahim, Husniddin Sharipov, Tursunoy Sodiqova, Ma‘ruf Jalil, Halima Xudoyberdiyeva, Aleksandr Faynberg, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Yo‘ldosh Sulaymon, Ahmadjon Meliboyev, Ibrohim Donish, Turob Maqsud, Muhammad Salom, Enaxon Siddiqova, Ismoil To‘xta-mishev, Ikrom Otamurod, Yangiboy Qo‘ch-qorov, Azim Suyun, Mahmud Toir, Tursun Ali, Sharofat Botirova, Sharifa Salimova, Muhammad Yusuf, Safter No‘g‘oyev, Sobir O‘nar, Salim Ashur, Iqbol Mirzo, Rustam Musurmon, Baxtiyor Genjamurod, Abduvali Qutbiddin...

Ilk mashg‘ulotlarda asarlari yuqori baho olib, ustozlarning tahsiniga sazovor bo‘lgan yosh ijodkorlar: Uyg‘un Ro‘ziyev, Xosiyat Rustamova, Shodmon Sulaymon, Nodir Jonuzoq, Guljamol Asqarova, Bobur Bobo-murod, Orif To‘xtash, Vohid Luqmon, G‘ayrat Majid, Muxtasar Tojimatova, Zilola Xo‘janiyozova, Adiba Umirova, Oydinniso, Mehriniso, Go‘zalbegim, Muhiddin Abdusa-mad, Shodmonqul Salom, Davron Rajab, Shodi Otamurod... Bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin va bugun, oldi qirq-qirq beshga qarab borayotgan bu shoir-yozuv-chilarning “chappar urib gullagan” chog‘lari aynan Zomin seminarlarida, O‘rikli soyning sururbaxsh suv va havolari qo‘ynida sodir bo‘lganini ularning o‘zi ham sog‘inch va orziqish bilan eslamog‘i muqarrar.

“Zomin” nomi duolarimizdagi “Omin” so‘zi bilan egiz-qofiyadosh kelganida ham samoviy bir hikmat ilg‘agan ustoz adiblarimizdan biri shunday lutf qilgan ekan:

– Xushmanzara Zomin diyori bir “Omin” desinki, ilohim, shu yoshlar orasidan bugungi Cho‘lponlar-u Hamid Olimjonlar, ulug‘ Qodiriylar chiqsin!..

Bevosita Jizzax to‘g‘risida, qadim va tabarruk bu tuproq haqida gapirilganda, uning nomi bilan ta‘rif-u tavsifi ko‘hna “Zafarnoma”lar-u jahonga mashhur tarixiy kitoblarda kelganini aytib o‘tish joiz. Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlari “Boburnoma” kitobining “To‘qqiz yuz yettinchi (1501–1502) yil voqealari” fas-lida ko‘p ranj-u mashaqqatlar tortib Jizzax sarzaminiga kelganini alohida qoniqish va xushnudlik bilan eslaydi:

“...Xaliliyadan Dizak kelildi... Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq amonliqqa kelduk... Umru-mizda muncha farog‘at qilmaydur eduk. Muddat-ul-umr amonlig‘ va arzonlig‘ qadrini muncha bilmay-dur eduk. Ishrat usrattin so‘ng, farog‘at mashaqqattin keyin lazzatliroq va yaxshiroq ko‘rinur... Mundoq dushman balosidin va ochlik ibtilosidin xalos bo‘lib, amonlig‘ rohatig‘a va arzonlig‘ farog‘atig‘a yetushtuk. Uch-to‘rt kun Dizakta istirohat qilduk...”

Umruining eng qiyin davri, xorlik-sargardonlikda kechgan ayni yoshlik-navqironlik pallalarida temuriy-zoda sulton Bobur Mirzo Jizzaxga kelib uch-to‘rt kun orom va osoyish topadi. Va bu tinchlik-farog‘atga erish-gan tansiq-g‘animat damlarining o‘zi uchun nechog‘li qadrlil va aziz ekanligini chin qalbdan, mehr va min-



natdorlik bilan o'z esdaliklarida alohida qayd etib qoldiradi. Bobur Mirzoning o'sha kezlarda endigina o'n yetti-o'n sakkizga to'layotgan o'spirin yoshi bilan ul zotning shoiriligini ham inobatga olib, yuqorida "Boburnoma"dan keltirganimiz parchadan tarixiy sanalarni olib qo'ysak agar, romantik xayollarga beriluvchi soddavash hozirgi zamon o'quvchisi, misol uchun shoir Davron Rajab deylilik, hech ikkilanmasdan "Bobur hazratlari ham Zomin yoshlar seminariga qatnashgan ekanlar-da... Ko'rishmagan ekanmiz-da..." deya yurak-yuragidan armon qilishi turgan gap...

Zomin seminarlari qalb va ruhda yashaydi, sog'intiradi, orziqtiradi. Bu anjumanlar sira tugamaydi. Ustoz va shogirdlarning sog'inchlari bilan saboqlarida, adabiyotsevar qalblarning orzu-umidlari bilan havaslarida Vatan darslari yanglig' ezgulik va sadoqatga chorlab davom etaveradi.

Ezgu g'oya, olijanob niyat va maqsadlar o'zining bardavomligi bilan, odamlar va el-u yurt hayotidagi chiroyli amaliy ifodasi orqali ham yanada ko'rk va joziba baxsh etadi. G'oyaning hayotiy-ijtimoiy nufuzi bilan axloqiy ahamiyati ikki barobar oshib, u endi to'g'ridan to'g'ri jamiyat ahlining ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga xizmat qila boshlaydi.

Tarixiy "millenium"lar – mingyilliklar chorahasini ortda qoldirib, 1997-yildan yigirma yil kelajakka, ya'ni bugun o'zimiz yashayotgan, "asrlar taqdiri lahzalarda hal" bo'layotgan shid-

datli zamonga qaytarkanmiz, banogoh yuzlarimizga urilgan Zomin shamollaridan bahri dilimiz yorishib ketadi.

Hali O'rikli soyga yetib borgunga qadar seminar dasturiga kiritilajak shu sayr-u ziyoratlar bilan ulardan olinajak taassurotlarning o'ziyoq yana bir muhtasham adabiy anjuman bo'lgulik mazmunga ega. Buning yana bir nomi – Vatan darsi, Vatanni o'rganish darsi deb ataladi. Adabiyot saboqlari, ibrat va havas maktabi, orzu va umidlar darsxonasi deyiladi.

"Ona yurtimiz haqida, O'zbekiston haqida, – deya alohida ta'kidlanadi ma'ruzada, – Hamid Olimjondek "Chappar urib gullagan bog'in, O'par edim vatan tuprog'in", deya yonib kuylash kamdan kam shoirga nasib etgan..."

Zomin seminarlari yosh iste'dodlarga mana shunday faxr-u iftixor bilan o'z ona Vatani kuylash saodati nasib etmog'i uchun ham, adabiyotimizning katta orzu-umidlarini o'zida mujassam etgan holda yangicha mazmun va maqom kasb etayotir. Bu darsxonaning eshiklari yopilmaydi. Adabiyot saboqlari, ilm-u ma'rifat mashg'ulotlari tugamaydi. Shu aziz Vatanning billur suvlari, zangor havolari bilan o't-o'lanlari ham yosh ko'ngillarga mehr-u sadoqat ilmidan ta'lim beradilar. Qalblar surur va shukuhdan jo'sh urib, yoshlik zavqi, g'urur va iftixor hayajonidan yosh yuraklar yarqiragan yuksak cho'qqilarday sarafroz bo'ladilar.

Bundan salkam yigirma yil burun markaziy gazetalar viloyat rahbarining Zomin anjumani qatnashchilariga yo'llagan qisqagina dil tabrigini bergan ekan:

"Yosh ijodkorlarning mustaqil Vatan adabiyotiga Jizzax diyorida qo'yayotgan qadamlari qutlug' bo'lsin!"

Bugungi kunlar, ezgu o'y-tashvishlarimiz-u insoniy orzu-niyatlarimiz bilan naqadar jon-dosh-ohangdosh so'zlar!

Darhaqiqat, Zomin anjumanlari tugamaydi. Vatan darslari, adabiyot va insoniylik saboqlari davom etaveradi.

*Shunday o'lka doim bor bo'lsin,  
Shunday o'lka elga yor bo'lsin!..*



## Bobur Mirzo va *kvartira masalasi*

Toshkentdan kvartira olish masalasi men uchun yana ko'p yillar davomida mushkul muammo bo'lib qoldi va nihoyat, tole yulduzim omad burjiga kirgan saodatli kunlarning birida ijobiy yechim topdi.

1981-yili "Yoshlik" jurnali tashkil etilib, Erkin Vohidov bosh muharrir bo'ldi. U kishi bir necha yosh ijodkorlar qatori meni ham yangi jamoaga ishga taklif qildi.

Ichimda jon-jon deb turgan bo'lsam ham, biroz tarang qilib o'zimni taroziga soldim, ya'ni avvalo G'afur G'ulom nomidagi nashriyot rahbariyati menga ruxsat berishi qiyin ekanini, qolaversa, ishxonada kvartiraga navbatim kelib qolganini pisanda qildim.

Holbuki, men kvartira olish uchun ariza ham bermagan, binobarin, ikki yuz kishidan ortiq talabgorlar ro'yxatida ham yo'q edim.

Nega deganda, to'rt yuzga yaqin xodim xizmat qiladigan nashriyotga ikki-uch yilda bitta uy ajratilar, shu sababli mendek pessimist odam uchun bu uzundan uzun ro'yxatning oxiriga tirkalish ma'nisiz bir ish bo'lib tuyular edi. Lekin shunga qaramasdan, Erkin akaga boyagi vaj-korsonlarni to'qib aytishga majbur bo'ldim.

**"Odamlar aslida yomon emas, faqat kvartira masalasi ularni buzadi"**, deganida Mixail Bulgakov ming karra haq edi.

Ochig'ini aytganda, uysizlik, ijarama-ijara darbadar kezib yurishlar rosa jonimga tekkan edi. Bir kuni erinmasdan hisoblab chiqsam, talabalikning birinchi kursidan boshlab to qonuniy kvartira egasi bo'lgunimga qadar Toshkenti azimda o'ttiz yetti joyda ijarachi bo'lib yashagan ekanman.

Erkin aka mening surbetona talabimni hamdardlik bilan eshitdi. Biroz o'ylanib: "Bu masalada sizga aniq va'da berolmayman, lekin harakat qilib ko'ramiz", dedi.

Shu tariqa men jurnalning nasr bo'limiga – muharrir lavozimiga qabul qilindim. Erkin A'zam bo'lim mudiri etib tayinlandi.

Qizg'in ishga kirishib ketdik.



### Xayriddin SULTON

1956-yili Toshkent viloyatida tug'ilgan.  
1981–1985-yillar "Yoshlik" jurnalida bo'lim muharriri, mas'ul kotib, katta muharrir lavozimlarida xizmat qilgan.

#### Nashr etilgan kitoblari:

"Quyosh barchaga barobar"  
"Bir oqshom ertagi"  
"Onamning yurti"  
"Umr esa o'tmoqda"  
"Boburning tushlari"  
"Boburiynoma"  
"To'qchilik va yo'qchilik"  
"Saodat sohili"  
"Uch yuz oltmish to'rt kun"  
"Haqiqat jamoli"  
"Ko'ngul ozodadur"  
"Odamlardan tinglab hikoya"

#### Kinossenariylar:

"Changak"  
"Moziydan bir sahifa"  
"Mehrobdan chayon"  
"Tushlarimda ko'rib yig'layman"  
"Yolg'iz yodgorim"  
"Ulug' amir va donna Maria"

Baxtinga, “Yoshlik” jurnalini tashkil etish haqidagi hukumat qaroriga binoan tahririyatimizga bitta kvartira ajratilgan bo‘lib, jamoaning barcha a‘zolari uyli-joyli ekani uchun o‘z-o‘zidan men yagona talabgorga aylanib qolgan edim.

Xursandchiligimning cheki-chegarasi yo‘q edi. Chunki bu paytga kelib bitta boshim uchta bo‘lgan, lekin besh yildan buyon hanuz Parkent–Toshkent avtobusiga osilib ishga kelib ketardim.

Ammo dunyodagi eng rasvo, eng battol byurokratiya bo‘lgan, murvatlari zanglab ketgan sovet byurokratiyasi menga kvartira berishga sira-sira shoshilmas edi. Hukumat qarorini bajarish belgilangan tartib bo‘yicha Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasiga yuklatilgan, ammo ijroqo‘m “bo‘sh turgan tayyor kvartira yo‘q”, degan bahona bilan ishni achchiqichakdek cho‘zar edi.

Oradan bir yilcha vaqt o‘tdi. Shahar ijroqo‘miga qatnayverib, tuflilarim yirtilib ketdi. Quruq qoshiq nafaqat og‘iz, balki tuflil ham yirtar, degan maqol, afsuski, hech esimga kelmabdi, yon-atrofimdagi birona inson ham buni menga aytma bdi.

Bosh muharririmiz ahvolimga achinib, ko‘p bor mening oldimda shahar ijroqo‘mining

raisi Vohid Oxunovich Kozimovga qo‘ng‘iroq qildi. Trubkani har safar bir rus ayol olar va dona-dona qilib: “Он уехал на похороны” (“U dafn marosimiga ketdi”) deb takrorlar edi. Oxiri Erkin akaning ham toqati toq bo‘lib, “Nima balo, Toshkentda vabo tarqaganmi? Bunaqada shaharda odam zoti qolmaydi-ku”, degani ham esimda.

Bir yakshanba kuni Parkentdagi hovlimizda nimadir yumush bilan band edim, bir kishi kelib, meni raykomga chaqirishayotganini aytdi. Raykomning menda nima ishi bor ekan, deb hayron bo‘lib borsam, Hamidulla Ahmedov degan toshkentlik birinchi kotib bo‘lardi, shu kishining kabinetida Erkin Vohidov bilan Ibrohim G‘afurov o‘tirishgan ekan. So‘rashib, salomlashdik. Ma‘lum bo‘lishicha, ular So‘qoq dam olish uyiga, direktor-shoir Orif Odilxonovni yo‘qlab kelishgan ekan. Orif aka bulardan bexabar Toshkentga ish bilan ketib qolgan ekan. Kimdir ularning tumanga kelganini Hamidulla Ahmedovichga bildiribdi va raykom kotibi suyunib ularni kutib olibdi. Erkin aka shu yerda bizning bir shogirdimiz yashaydi, deb meni yo‘qlatgan ekan. Hovlidagi havorang “Жигули”da u kishining o‘g‘li Xurshidbek kitob o‘qib o‘tirgan ekan, uni ham ichkariga olib kirishdi.



*Ustoz yozuvchi Xayriddin Sultonning “Navoiy-30” asari ovozasini chiqqanida hali bosmaxona bo‘yog‘i qurib, kitob do‘konlarga tarqalib ulgurmagan edi. Muallifning mahoratidan, har bir asari shov-shuv bo‘lishidan tashqari, Navoiy ko‘chasi 30-uy manzili ko‘plab ijodkorlar uchun qadri maskanga aylanib ketgani ham bunda muhim o‘rin tutdi.*

*Poytaxtimiz markazidagi ushbu bino qanchadan qancha ulug‘ insonlarning hayotida, ijod yo‘lida chuqur iz qoldirmagan, qo‘msab eslanadigan xotiralari bilan bog‘lanmagan, deysiz. Yozuvchi ham ayni shu jihatlarga alohida e‘tibor qaratadi. Ustoz adiblar bilan kechgan voqea-hodisalarni ehtirom bilan qalamga oladi. Jumladan, “Yoshlik” jurnalida xizmat qilgan paytlarini o‘zgacha bir zavq bilan ifodalaganki, bu hikoyalarni aziz jurnalxonlarimizga ham ilingimiz keldi.*

*Hikoyalarni nashrga tayyorlayotib ko‘ngilda yana bir istak kurtak yozdi. Kelgusi yili “Yoshlik” nashr etila boshlaganiga qirq yil to‘ladi. Bu kam emas-ko‘p emas, dono xalqimiz aytganidek, er yigitning kamolot yoshi. O‘tgan davrda ne-ne ijodkorlar tahririyatda qalam tebratdi. Muhtaram ustozlar, “Yoshlik” bilan bog‘liq xotiralaringizni jurnalimizda chop etib borsak, nima deysiz?*





*“Saodat sohili” qissasiga rassom Bahodir Jalolov chizgan rasm. Jurnalning 1982-yil 1-sonidan olindi.*

Hamidulla Ahmedovich tashkilotchi odam emasmi, darhol tuman madaniyat uyida shoir-yozuvchilar bilan uchrashuv o‘tkazish harakatiga tushdi. Shu kuni oynning oxiri bo‘lib, tikuvchilik fabrikasida ishlaydigan ayollar navbatdagi smenadan chiqayotgan ekan, birpasda ularni uchrashuvga to‘plab kelishdi. Parkentlik xotin-qizlar mashhur shoir va munaqqidning qiziqarli, samimiy suhbatidan bahra olib, xursand bo‘ldilar.

Uchrashuv tugab, mehmonlarni kuzata boshladik. Erkin aka o‘zi rulda ekan, xayrlashib mashinaga o‘tirayotganida menga qarab: “Toshkentgacha ancha yo‘l ekan, har kuni qatnaysizmi?” deb so‘radi. “O‘rganib ketganman”, dedim kulib. “Bo‘lmasa, bundoq qilsak, – dedi u kishi, – siz ertaga soat sakkizda ijroqo‘m binosining oldiga kelib turing, men ham shu vaqtga

yetib kelaman. Vohid Oxunovich, axir, ishga shu eshikdan kiradi-ku, shu yerda ushlaymiz. Boshqa payt, ko‘ryapsiz, qabuliga kirib bo‘lmayapti”.

Shunday deb ular jo‘nab ketishdi.

Ertasiga kelishilgan vaqtda hozirgi Amir Temur xiyoboni yonidagi Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasining asosiy kirish eshigi oldida ikkalamiz raisni kuta boshladik. Erkin aka katta amaldorlarning fe‘l-atvorini yaxshi bilar ekan, aytganidek, yarim soatcha o‘tib, eshik oldiga kelib to‘xtagan oppoq “Bo‘lra”dan Vohid Oxunovich salobat bilan tushdi. Poygakda odob saqlab turgan Erkin Vohidovni ko‘rib, “Iye, iye, Erkinjon, qandoq shamol uchirdi?” deb farg‘onacha mulozamat bilan (u kishi asli qo‘qonlik edi) samimiy ko‘rishdi, menga ham iltifot qilib qo‘l cho‘zdi. Vestibulyda g‘oz qotib chest bergan militsionerga bilinar-bilinmas bosh igr‘ab, bizni ichkariga boshladi. Yordamchi lift eshigini ochib turgan ekan, ichkari kirib, to‘rtinchi qavatga ko‘tarildik, mening ko‘zimga juda vahimali bo‘lib ko‘ringan raisning kabinetiga kirdik.

Bir piyoladan choy ichilgach, Erkin aka jinday qo‘shib-chatib, meni tanishtirib-ta‘rifladi. Bobur Mirzo haqidagi “Saodat sohili” degan qissam bosilgan jurnaldan bir nusxa olib borgan edik, raisga taqdim qildik. Bizning baxtimizga, domla Kozimov ham Bobur Mirzoning oshig‘i ekan. Londonda, Buyuk Britaniya qirolichasining muzeyida Ko‘hinur olmosini ko‘rgani haqida so‘zladi.

Keyin biz dardimizni bayon qildik. Vohid Oxunovich, hozirgidek esimda, Vladimir Smotrov degan kvartira boshqarmasining boshlig‘ini chaqirib, “Yoshlik” jurnaliga ajratilgan kvartira masalasini tezda hal qilish haqida topshiriq berdi.

Xudoning qudratini ko‘ringki, Bobur Mirzoning sharofati bilan men Toshkentdek shahri azimda uy-joyli bo‘ldim.

Hukumat qaror chiqargan, shahar ijroqo‘mining raisi topshiriq bergan bo‘lsa ham, lekin bu kvartirani undirish uchun yana talay sarguzashtlarni boshdan kechirishga to‘g‘ri keldi. Quyidagi hikoyada shu haqida so‘z boradi.

## “Kim obi yovgʻon opkeladi?”

Yozuvchi Raul Mirhaydarovning kasbi quruvchi, katta bir tashkilotda injener boʻlib ishlardi. Ayni vaqtda ishlab chiqarish mavzusida rus tilida “Damba”, “Marjonbuloq” degan qissalar ham yozib yurardi. U Erkin Aʼzam bilan men xizmat qilgan “Guliston”, “Yoshlik” jurnallariga kelib turar, bitta-yarimta hikoya yoki ocherklarini oʻzbek tiliga tarjima qilib chiqarar edik. Raul akaning yozganlaridan koʻra hayotiy tajribasi oʻn marta zoʻr, bilmagan balosi yoʻq edi. “Raul Mirsaidovich oʻlib koʻrmagan, xolos”, derdi Erkin aka kulib.

1983-yili “Yoshlik” jurnali orqali kvartira oladigan boʻldim. Raul aka meni tabriklagani keldi.

– Oldingmi uyni? – deb soʻradi.

– Endi, – dedim, – kecha joyni koʻrib keldim.

– Qayerda ekan? – dedi Raul aka.

– Sergelida.

Aniqrogʻi, “Sputnik” mavzesida, – dedim

ogʻzimni toʻldirib. – Eski fondan boʻlsayam, yaxshi uy deyishyapti.

– Nima, rozilik berdingmi? – deb soʻradi Raul Mirsaidovich.

– Rozi boʻlmaganda, nima... Boriga shukur, – dedim zohidona kamtarlik bilan.

– Nima balo, jinnimisan? – dedi u hayron boʻlib. – Ey, bilmasang, bilib ol, odam umrida bir marta kvartira oladi. Darrov rad qil Sergelini.

– Qanday rad qilaman? – dedim dovdirab.

– Rayjrokom raisiga kir. Men SSSR Yozuvchilar soyuzining aʼzosi, de. Aynan shunday – “SSSR” deb ayt, “Oʻzbekiston” desang, bular bir tiyinga ham olmaydi, tushundingmi? Men yozuvchiman, mening ishim redaksiyalar, nashriyotlar, radio-televideniye bilan bogʻliq, shuning uchun markazda yashashim kerak, deb ayt.

– E, qanday aytaman, uyat boʻlmaydimi? Men qayoqda-yu

shahar markazi qayoqda... – dedim.

– Rostdan jinni ekansan, – dedi Raul Mirsaidovich, – kimligingdan qatʼi nazar, sen SovMin redaksiyaga ajratgan kvartirani olyapsan, tushundingmi? СовМин esa har qanaqa tentakkayam kvartira ajratmaydi. Yugur rayjrokomga!

Raul aka qistab qoʻy-magach, ikkilana-ikkilana rayjrokomga bordim va u kishi oʻrgatgan gaplarni toʻtiqushday takrorladim.

Ikki haftadan keyin shahar markazidan – Lenin rayoni, Chexov koʻchasida yangi qurilgan 21-uydan uch xonali kvartiraning orderini oldim...

Shu odam 80-yillarning oʻrtalarida Gorbachyovning oshkoralik siyosatidan unumli foydalanib, siyosiy detektivlar bitadigan yozuvchiga aylandi. “Пешие прогулки” (“Piyoda sayr”), “Двойник китайского императора” (“Xitoy imperatorining qiyofadoshi”) nomli dastlabki romanlari Toshkent va Moskvada yuz minglab nusxalarda bosilib chiqib, juda katta shov-shuvga sabab boʻldi.

Shon-shuhratga choʻmib yurgan kunlarining birida yozuvchi avtofalokatga uchradi. Xotini va oʻgʻli Renar bilan Gorkiy nomidagi teatrdan chiqib uyga qaytayotganida ular oʻtirgan taksi bir “Zil” samosvalga toʻqnashib ketadi...

Respublika jarohatshunoslik va ortopediya instituti



kasalxonasida yotganini eshitib, Erkin aka bilan ko'rgani bordik.

Raul aka kichkina bir palatada butun badani yuz-ko'ziga qadar bint bilan chirmab tashlangan holda yotgan ekan, bizni arang tanidi.

Hol-ahvol so'rashishga ham ulgurmasimizdan:

– Yigitlar, sizlarga bir gap aytaman, umrbod esdan chiqarmanglar, – dedi ruschalab. –

Hech qachon butun oila bitta mashinada yurmanglar, bitta samolyotda uchmanglar. Hech qachon! Xudo ko'rsatmasin, biron kor-hol bo'lib qolsa, hamma qirilib ketishi mumkin. Mana, biz uchalamiz uchta palatada yotibmiz – mening belim, xotinimning oyog'i singan, o'g'limning boshi shikastlangan. Hatto bir qoshiq obi yovg'on opkeladigan odam ham yo'q...

## “Yoshlar bilan qariyalarga tegmang...”

Mehnatkash, kamtarin shoira opamiz Gulchehra Jo'rayeva “Yoshlik” jurnalida she'riyat bo'limini boshqarar, ayni vaqtda boshlang'ich partiya tashkilotining kotibasi ham edi.

Bir kuni opa mening oldimga kirib keldi.

– Xayriddinjon, bizni kecha raykomda yoshlarga e'tibor bermayapsizlar, deb yaxshigina tanqid qilishdi, – dedi kulimsirab, – Erkin Vohidovich bilan maslahatlashgan edik, u kishi siz bilan gaplashib, hujjatlaringizni tayyorlashimni topshirdilar. Siz jurnalimizning mas'ul kotibi, rahbar xodimlardan birisiz, albatta, partiya safida bo'lishingiz kerak.

Leninchi kommunist bo'lish hech qachon xobixayolimga kirmagan edi, shuning uchun yotig'i bilan uzr aytdim:



– Opajon, siz bilan Erkin akaning ishonchi men uchun katta sharaf, ammo men hali partiya safiga kirish uchun tayyor emasman, yoshlik qilaman.

– Nechaga kirdingiz? – deb so'radi opa mehribonlik bilan.

– O'ttizga, – dedim.

– Ayni a'zolik yoshida ekansiz, – dedi partkom kotibamiz va yarim soatcha meni ko'ndirishga urinib da'vat qildi. Men yoshligimni, palapartish yurishlarim ko'pligini, partiya intizomini buzib

qo'yishim mumkinligini qayta-qayta aytib, oyoq tirab turaverdim.

Oxiri opa mendan biroz ranjib, nasr bo'limining mudiri Erkin A'zamning yoniga ketdi.

Keyin eshitsam, Erkin aka o'zining yoshi o'tib qolganini, qariganda (ya'ni o'ttiz olti yoshda) partiyaga kirsam, odamlar amalparast deb kulishi mumkinligini aytib, rozi bo'lmabdi.

Uch-to'rt kundan keyin redaksiyada yig'ilish bo'ldi. Gulchehra opa shu masalani ko'tarib, rahbarimizga jindek arz qilgan bo'ldi:

– Xayriddinjoniga partiya a'ziligiga o'ting desam, yoshman, deb ko'nmadilar. Erkinjon bo'lsa, qariman, deb unamayaptilar. Men buni tushunmay qoldim, Erkin Vohidovich...

Bosh muharririmiz bizga bir qarab oldi-da, miyig'ida kulimsirab:

– Mayli, Gulchehraxon, yoshlar bilan qariyalarga tegmay qo'yaqoling, – dedi.



## Qor ostidagi murojaat

Bir kuni bosh muharririmiz Erkin Vohidov Erkin A'zam ikkalamizni xonasiga chaqirib qoldi.

– Endi, yigitlar, ba'zan shunaqa ishlar ham bo'lib turar ekan, – dedi qandaydir iymanib va muddaosini bayon qildi.

Ertalab u kishini Markaziy komitetga chaqirib, nozik bir topshiriq berishibdi. Ya'ni O'zbekistonning atoqli madaniyat, san'at va adabiyot arboblari nomidan xalqni paxta yig'im-terimiga da'vat etadigan murojaat matnini tayyorlab berishni iltimos qilishibdi.

– Endi bunaqangi tekstlar shoirlardan ko'ra nosirlarning qalamidan yaxshi chiqadi, – dedi Erkin aka, – shuning uchun ertalabgacha qoralama nusxasini yozib kelsalaringiz, birgalashib ko'rar edik.

“Amri vojib”, bo'ynimizga olib, rahbarning kabinetidan chiqdik. Ishdan keyin Erkin A'zamning Qorasuvdagi kvartirasida o'tirib, O'zbekiston xalqiga murojaat loyihasini insho qilmoqqa kirishdik.

Bundan bir-ikki yil oldin Brejnev O'zbekistonga kelib, yuksak minbardan “Надо, Шарафчик, надо!” deb 6 million tonnalik paxta majburiyatini respublikaning bo'yniga ilib ketgan edi.

Bunday ulkan planni bajarish amalda imkonsiz ekanini hamma bilib-tushunib tursa-da, yanvar oyigacha yo'qdan bor qilish harakati

“paxta siyosati” degan nom bilan beto'xtov davom etardi.

Ko'pdan buyon faqat badiiy asarlarni tahrir qilishga o'rganib qolgan qalamimiz balandparvoz, yolg'on-yashiq gaplarni yozishga tixirlik qilardi. Shuning uchun ikki-uchta partiya gazetasini oldimizga ochib qo'yib, “hali dalalarimizda hosil mo'l”, “Bugun O'zbekistonda hamma paxtakor”, “Oq oltinni oltin qo'llar yaratadi”, “Hosilning so'nggi misqoligacha nest-nobud qilmasdan terib olish – barchamizning burchimiz” degan qolip jumalarni ko'chirib olib, yarim kechadan o'tganda murojaatni moxovga oshna qilib yozib bitirdik.

Qog'oz-qalamni yig'ishtirib, bundoq derazadan qararak, tashqarida gupillab qor yog'ayapti! Noyabr oyining boshlarida bunday qalin qor tushganini men shaxsan endi ko'rishim edi.

Ertalab palto-telpakka burkanib, diydirab ishga keldik. Havo qattiq sovuq, yo'llar yaxlab yotibdi.

Bosh muharririmizga kirib, buyurtmani topshirdik. Qog'ozga bir ko'z yugurtirdi-da, “Rahmat”, dedi, kiyinib, Markazkomga ravona bo'ldi.

Ertasi kuni u kishi SSSR yozuvchilari delegatsiyasi tarkibida Suriya Arab Respublikasiga jo'nab ketdi.



Oradan ikki-uch kun o'tdi, lekin bizning qor ostida tug'ilgan murojaatimiz nima uchundir matbuotga chiqmadi. Kim bilsin, balki buyurtmachi tashkilotlarga ma'qul bo'lmagandir. Keyin bilsak, o'sha kunlari Brejnev og'irlashib, Markazkomda bu murojaat hech kimning yuragiga sig'may qolgan ekan...

## *“Moskvada mumkin, Toshkentda mumkin emas”*

“Yoshlik”ning navbatdagi soni maket qililib, bosmaxonaga topshirilayotgan edi. Bir sahifaning tagida shapaloqdek joy bo'sh qoldi, shuni to'ldirish uchun **“Kelgusi sonda qrim-tatar adibi Ervin Umerovning “Echkiqoya toshchalari” nomli hikoyasini o'qiysiz”** degan kichik e'lon berdik.

Ervin Umerov – Moskvada yashab, rus tilida ijod qiladigan yozuvchi edi.

Oradan o'n besh kuncha o'tib, juma kuni, ish tugashiga yaqin jurnalning “tandirdan yangi uzilgan” nusxasi keldi. Sinchiklab ko'rib chiqqach, bosilishiga ruxsat etib, qo'l qo'ydik. Xotirjam tortib, uy-uyimizga o'tlanib turganimizda, jurnalni chop etgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komitetining nashriyotidan birdaniga qo'ng'iroq bo'ldi. Bosh muharrir o'rinbosari va meni zudlik bilan chaqirishdi. Birpasda vahima bo'lib ketdi: “Jurnalda siyosiy xato o'tib ketibdi!” Nima gapligini bilolmay hayron edik, u yerdagi o'rtoqlar ko'rsatishdi: “qrim-tatar” degan so'z o'tib ketibdi! Taajjublanib so'radik: “Buning nimasi xato?”

Ma'lum bo'lishicha, o'sha paytda yuqori tashkilotning yopiq ko'rsatmasi bo'lib, unga binoan respublika matbuotida boyagi so'zni ishlatib bo'lmas ekan, “Afsuski, biz bu yopiq ko'rsatmadan bexabarmiz”, dedik va shu

binoda chiqadigan “Ленин байрағы” nomli qrim-tatar gazetasini eslatdik. O'rtoqlar bizga bu gazeta hozir qrim-tatar emas, tatar gazetasi hisoblanishini va shunday deb nashr etilishini aytdilar!

Butun boshli xalqning nomi bundoq o'zgartirib yuborilgani, ayniqsa, hayratomuz edi. Shunda men kabinetimdan “Литературная газета”ning bir hafta oldingi sonini olib kelib ko'rsatdim. Unda Moskvada, SSSR Yozuvchilar soyuzida qrim-tatar adabiyotining muhokamasi haqida hisobot bosilgan va bu so'z o'nlarcha marta zikr etilgan edi. Ammo bu dalilim ham inobatga o'tmadi. “Moskvada mumkin, – deb javob berishdi o'rtoqlar, – bizda mumkin emas...”

Cho'kayotgan odam xasga ham yopishadi. Shu naqlga amal qilib, biz jurnalni chop etishga ruxsat bergan senzura – Uzglavlitning muhrini ko'rsatdik. Ammo bu gapimizga ham darhol qaqshatqich zarba oldik: “Glavlitni tinch qo'yinglar, – deyishdi o'rtoqlar, – o'zlaringiz uchun javob beringlar”.

Qisqasi, bu mojaro uch kecha-yu uch kunduz to'xtovsiz davom etdi. Bittagina so'z uchun qariyb uch yuz ming nusxadagi jurnalning bosilishi to'xtatib qo'yildi. Jurnal ta'asischilari – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va O'zbekiston Komsomoli Markaziy komitetining rahbariyati ham faollik bilan g'avg'oga qo'shib, aybdorlarni izlab topish va jazo berish bilan astoydil shug'ullandi.

Hozir marhum bo'lib ketgan katta bir rahbarning o'shanda: “Kim qilgan?! Atay qilganmi?! Butun tirajning bahosini aybdorlardan undirib olish kerak!” degan vajohatli so'zlari hanuz qulog'imda...

Yana bir amaldor ma'noli bosh chayqab, “Mana, Erkin Vohidovichning yo'qligi darrov bilindi-qoldi”, dedi.

Bosh muharririmiz Erkin Vohidov bu vaqtda adabiyot va san'at kunlarida qatnashish uchun Tyumenga – xizmat safariga ketgan edi.

Oxiri, “tepa”dan ijozat bo‘lib, jurnal bosilib chiqdi. Bu hodisa redaksiyada “ЧП” – favqulodda hol deb baholandi va jiddiy muhokama qilindi. Hammamiz buning bema’ni, mantiqsiz gap ekanini sezib turardik. Biroq “yuqori”ga “siyosiy xato” uchun ko‘rilgan choralar haqida qog‘oz kerak edi. Oqibat shu bo‘ldiki, mas’ul kotib sifatida men va texnik redaktor hayfsan bilan “taqdirlandik”.

Erkin aka safardan qaytib kelgach, redaksiyada sodir bo‘lgan mojaroni eshitib behad ajablandi. “Men bunaqa ko‘rsatma borligidan bexabarman, agar ishda bo‘lganimda bu so‘zni men ham o‘tkazib yuborgan bo‘lardim”, dedi.

Keyinchalik bilsak, o‘sha paytda qrim-tatarlar o‘z tarixiy vatani – Qrim yarim oroliga qaytish uchun navbatdagi siyosiy harakatini boshlagan bo‘lib, biz shuning kasriga qolgan ekanmiz.

Sovet mafkurachilari o‘rtoq Stalinning dono o‘gitiga tayanib ish tutgan edilar: “Нет человека – нет проблемы”.

Ular bunga qo‘shimcha qilib: “Нет народа – нет политической проблемы”, deb o‘ylagan bo‘lsalar ajab emas.

## “Sizlar ham o‘qidinglarmi?”

“Yoshlik” jurnalida Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasi bosilib, o‘quvchilar o‘rtasida shov-shuv bo‘lgan kunlar edi.

Bu asarning chop etilish tarixini yozsa, o‘zi alohida bir kitob bo‘ladi. Yangicha, modern usulda bitilgan bu qissani bironta jurnal, bironta nashriyot qabul qilmay yotgan paytda biz uni bosh muharririmizga maqtab-maqtab o‘qishga berdik.

Yozuvchilar uyushmasida qo‘lyozma muhokama qilinib, muallif tanqid ostida qolib ketganida Erkin Vohidov so‘z olib, “Bu biz o‘rganmagan yangicha yo‘nalishda yozilgan asar ekan, avtorning qalami hurmati, “Yoshlik” jurnali uni bosadi”, dedi. Keyin esa Erkin A‘zam ikkalamizni chaqirib, “Va’dani berib qo‘ydik, ammo asarni maromiga yetkazish uchun Murodjon bilan birga o‘tirib qattiq ishlashinglar kerak”, deb topshiriq berdi.

Shu tariqa proza bo‘limining Erkin A‘zam (mudir), men (muharrir) va Anvar Tursunov (keyinchalik mashhur ulamo, u vaqtda redaksiya xatlar bo‘limining xodimi) o‘tiradigan kichkina xonasida uch-to‘rt oy mashaqqatli ijodiy jarayon qaynadi. Avvalo, asarning



hajmi juda katta bo‘lib, uni keskin qisqartirish kerak edi. Buning ustiga, qo‘lyozmada muallifning faqat o‘zi tushunadigan, faqat o‘ziga moyday yoqadigan boblar, yondosh syujet liniyalari ham ko‘p edi.

Erkin A‘zam bilan muallif ertalabdan stolga baqamti o‘tirib olib tahrirga kirishar, birozdan keyin tortishib, jiqqamusht bo‘lib ketardi.

Muharrir biron sahifani qisqartirsa, muallif shu zahoti “Bag‘rimdan uzding-ku, jo‘ra!” deb faryod solardi, keyin esa o‘zini yupatib:

– Mayli, kesaver, menda gap ko‘p, ertaga baribir yangi bobini yozib kelaman! – deb kerilardi.

Muharrir: “Murod, kallangga solaman hozir, mana bu o‘n sahifani nimaga yozgansan? Safsata-ku bu?” desa, u kishi:

“Bu “поток сознания”, tushun axir, jo‘ra!” derdi. Bunga javoban Erkin aka jig‘ibiyron bo‘lib: “Noma‘qul buzoqning go‘shhini yebsan! Hech qanaqa “поток сознания” emas bu! Bu yerda “поток” bo‘lsa bordir, lekin umuman “сознания” yo‘q”, – deb baqirardi.

Bu jarayondagi mening asosiy vazifam – qarama-qarshi tomonlarni aldab-suldab, murosai madoraga keltirishdan iborat edi.

Ba‘zan ijodiy bahslar dahanaki janglarga aylanib ketar, Murod aka sumkasini yelkasiga osib, “Ketdim, yelkamning chuquri ko‘rsin redaksiyangni!” deb arazlab jo‘nar, ammo ertasiga: “Erkin jo‘ra, G‘aybarov Haykal G‘aniyevichga bunday desa bo‘lmasmikan?” deb yana eshikdan kirib kelar, kecha u bilan yuzko‘rmas bo‘lgan muharrir ham gina-kuduratni unutib, tahrir qalamini qo‘lga olar edi.

Xullas, ana shunday ijodiy g‘urbat bilan qissaning

birinchi qismi jurnalda bosilib chiqdi, hamma joyda ovoza bo‘ldi.

Bir kuni pastda – hozirgi “Sharq” konsernining hovlisidagi yozlik oshxonada tushlik qilib o‘tirsak, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining bosh muharrir o‘rinbosari Ibrohim aka G‘afurov kelib qoldi. U kishi “Yoshlik” jurnalining tahrir hay‘ati a‘zosi, Erkin Vohidovning jonajon do‘sti, har kuni kelib bosh muharririmiz bilan shaxmat o‘ynar, redaksiyadagi barcha ijodiy jarayonlardan yaxshi xabardor edi.

Birgalashib tushlik qila boshladik. Bir mahal Ibrohim aka, bilmadim, xayolidan faromush bo‘lganmi, bizga qarab:

– Erkin, Xayriddin, “Yoshlik”da Murodning zo‘r qissasi chiqibdi, sizlar ham o‘qidinglarmi? – deb so‘rab qolsa bo‘ladimil!

Men-ku nisbatan yosh edim, o‘zimni ushlab qoldim, ammo Erkin aka bu savolni eshitib, “Ihm!” dedi-yu yiqilib tushishiga bir bahya qoldi.

## “Changak”ning changagida

1989-yili yosh kinorejissor Jahongir Qosimov “Yo, Jamshid!” degan hikoyam asosida “Changak” deb nomlangan televizion badiiy filmni suratga oldi. Film televideniye orqali namoyish etilib, el ichida duv-duv gap qo‘zg‘adi. Shu paytgacha yozgan hamma narsalarim bir tomon bo‘ldi-yu “Changak”ning o‘zi bir tomon bo‘ldi. Sababi – bunday qaltis mavzuning ilk marta ekranga olib chiqilishi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Jahongirni bilmadim-u, lekin men har xil past-baland davralarda “qimorbozlar kuychisi, mafiya maddohi” degan nomlar ham orttirdim. Ayrim odamlar, mavzuni bunchalik chuqur bilishiga qaraganda, o‘ziyam gardkam, deb oshiq otib tursa kerak, degan gaplar ham tarqatishdi.

Ba‘zi xayrixoh do‘st-u yaqinlar esa, “Shu kinoni bekor ko‘rsatdingiz, tinchmisiz, ishqilib?” deb tashvish-xavotir bildirishgani ham esimda.

Endi... zamon notinchroq edi-da. Eng chekka, xilvat qishloqlarda ham o‘zining mahalliy mafiyasi, “razborchi”lari, ko‘chaning odamlari paydo bo‘lgan bir davr edi.

Ana shunday kunlarning birida bir guruh noshirlar kitoblarimizni reklama



qilish, savdo shartnomalari tuzish maqsadida kechki poyezdga o'tirib Farg'ona viloyatiga xizmat safariga jo'nadik.

Ertasi tongda manzilga yetib borib qararak, bizni u yerda kutib olishi kerak bo'lgan "O'zkitobsavdo" uyushmasining viloyat rahbari bir ayol ekan, yigirma sakkiz yashar qizi kechasi fojiali ravishda halok bo'lib, opa vokzalga chiqolmay qolibdi. U kishining ikki-uchta xodimi bizni uzr aytib qarshi oldi. Musulmonchilik, avval to'g'ri azador xonadonga borib ta'ziya bildirdik, keyin o'z ishimizga mashg'ul bo'ldik.

Tumanlararo kitob bazasiga, kitob do'konlariga borib, o'quvchilarning talab va takliflarini o'rgandik, reklama materiallarini tarqatdik. Kitobxonlar konferensiyalarini ham o'tkazdik. Hamma yerda men asosiy ko'rgazma quroli, ya'ni o'sha mashhur "Changak"ni yozgan odam" sifatida ko'z-ko'z qilindim.

Maqtanishga yo'ymasangiz, aytaman: bunday uchrashuvlarda biz targ'ib qilayotgan Alisher Navoiy bilan Lev Tolstoy kitoblari ham chetda



qolib, yig'ilganlar nuqul "Changak" haqida savol yog'dirardi: kinodagi voqealar rostdan bo'lganmi? Rost bo'lsa, qayerda yuz bergan? Qimorbozlarning hammasi kuyib o'ldimi yo bitta-yarimtasi tirik qoldimi? O'rinboyning keyingi taqdiri nima bo'ldi? U hozir ham qimor o'ynayaptimi? "Changak" kitob bo'lib chiqadimi?

Goho bitta-yarimta yurakliroq o'quvchi o'rimdan turib, "O'zingiz oshiqni yaxshi ko'rasizmi yoki kartanimi?" degan mazmundagi qitmir savollarni ham berib qolardi.

Xullas, uch kunlik safar davomida beixtiyor "Changak"ning reklamasi bilan ham band bo'ldik.

Uchinchi kuni mezbonlar "madaniy dastur" doirasida bizni Shohimardonga olib borishdi. U paytda yo'llar ochiq, birpasda manzilga yetib bordik. Qararak, viloyat "Kitobsavdo"ning boshlig'i – ko'k kiygan azador opa, "Sizlar bilan birga bo'lolmadim, uzr", deb qo'li ko'ksida, ma'yus jilmayib turibdi.

O'zbekchiligimiz ham bor bo'lsin, xijolat bo'lib bir-birimizga qaradik, lekin mezbonlar samimiy mulozamat ko'rsatib, birpasda noxush vaziyatni yumshatib yuborishdi.

Tushgacha tog' bag'rida yayrab dam oldik, Ko'li Qubbonni tomosha qildik. Nihoyat, ziyofat oxiriga yetib, Farg'onaga, undan Toshkentga qaytish uchun yo'lga chiqdik.

Xizmatga bitta "Volga", ikki-uchta yangi "Jiguli" qo'yilgan ekan, birin-ketin mashinalarga joylashdik. Boya kabob pishirib, choy tashib yurgan ikkita barvasta yigit menga yuzlanib: "Aka, charchamadingizmi? Bizning mashinaga o'tirsangiz, suhbatlashib ketardik", deb mehribonlik ko'rsatishdi.

"Xo'p", deb rozi bo'ldim, hamrohlarim boshqa mashinalardan joy olishdi. Oldinma-ketin yo'lga ravona bo'ldik.

Biz kichkina karvonimizning eng oxirida borardik. Mashinaning ichi xuddi kelinning uyidek hafsala bilan yasatilgan, magnitofondan Sherali Jo'rayev "G'ayra-g'ayra dam-badam", deb aytib turibdi.

Birozdan keyin uyqu elitib, pinakka ketibman. Ko'zimni ochsam, ship-shiydam, yaydoq bir dalada





ketib borayotibmiz, oldinda ham, orqada ham birona mashina ko'rinmaydi. Negadir yo'l ham boya kelgan yo'limizga o'xshamaydi. Hayron bo'ldim.

– Adashib qolmadikmi?

– deb so'radim oynadan tashqariga alanglab.

Rulda o'tirgan, marg'ilon do'ppisi tagidan quyuq jingalak sochlari toshib chiqqan xushmo'ylov yigit menga qarab kulimsiradi:

– Yo'g'-e, nega adashamiz, aka. Ular aylanma yo'ldan ketdi, biz hozir qisqa yo'ldan kesib chiqib, to'g'ri vokzalning o'zidan chiqamiz.

Xotirjam tortib, sekin bosh irg'ab qo'ydim.

– Aka, – dedi shofyorning yonida o'tirgan devdek sherigi men tomonga yarim o'girilib, – siz anovi... "Changak"ni yozganmisiz?

Bundoq qarasam, ko'zlari bejo, o'qrayib tikilib turibdi. Yuragim shuv etib ketdi. Tevarak-atrof biyday dala, zog' ham yo'q.

O'l-a, ahmoq! Bir o'zim bitta mashinada yalpayib ketar ekanman, deb hovliqmasdan, yoningga birona sherigingni olsang o'larmiding?!

Juda bo'lmasa, tibbiy nashriyotdagi Renat akani o'tqazvolmaysanmi, avariya tufayli bo'lsayam, harna, qamoqda yotib chiqqan, degan nomi bor, bular bilan qandoq muomala qilishni bilardi-ku, axir!

– Nega indamaysiz, aka? – deb savolini qaytardi barzangi. O'lay agar, endi gapida boshqacha bir ohanglar sezila boshladi.

– Ha, endi, ko'p qatori... – dedim chaynalib.

– Ammo-ley, zo'r yozib qo'ygansiz, aka! – deb gapga qo'shildi haydovchi zavqlanib. – Endi, chumchuq so'ysa ham qassob so'ygani ma'qul. Gap yo'q, o'zimizdan ekansiz, bir iltimos bor, yo'q demaysiz. Bugun kechqurun Marg'ilonda o'tirishimiz bor, akaxonlarimiz... – U shunday deb ikkita-uchta odamning nomini tilga oldi, – sizni bir ko'rsak, deb niyat qilishgan edi. Birrov kirib o'tsak. Ertalab aeroportdan birinchi reys bilan Toshkentga kuzatib qo'yamiz.

O'lding, "mafiya sardori!"

"Hali senmi bizni sharmanda qiladigan!" deb mana shu kimsasiz dalaning o'rtasida o'ldirib ketisharmikan yoki Marg'ilonga oborib kalamni uzisharmikan? Agar biz bilan qimor o'ynaysan, deb turib olishsa, nima qilaman? Umrimda qo'linga oshiq yoki karta ushlagan bola bo'lsam ham mayli edi!

Lekin hozirgi vaziyatda bularga sir berish – men uchun o'lim bilan barobar edi.

– Dov qancha o'zi? – dedim pinagimni buzmasdan.

– Barzangi ko'zi o'ynab, og'zini to'ldirib, katta bir raqamni aytdi.

Indamadim, lekin butun vujudim, afti-angorim bilan mendek odam bunaqangi mayda-chuyda dovlarga qiziqmasligini bildirdim.

– Bajonidil borgan bo'lardim, – dedim nihoyat, – lekin Toshkentda ham nozik bir joyda gapimiz bor edi, uzr. – Shunday deb aftini umrimda ko'rmagan, lekin el qatori nomini eshitib yurgan bir-ikkita "avtoritet"larning otini bepisandlik bilan tilga oldim.

Buni qarangki, gapim bularga kutilmaganda keskin ta'sir qildi, bir-biri bilan ma'noli ko'z urishtirib olishdi.

– Keyingi safar oldinroq bildirsanglar, albatta, kelaman, – dedim ruhlanib.

Yo'ldoshlarim xursand bo'lib:

– E, siz ovora bo'lib yurmang, o'zimiz borib opkelamiz, aka! – deb yuborishdi.



**Ergash SALIYEV,**  
*Jizzax viloyati hokimi*

# YOSHLIK VA NAFOSAT BAYRAMI

Adabiyot haqida so'z ketganda Prezidentimizning "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", degan gaplari naqadar haqqoniy ekaniga amin bo'lamiz.

Yoshlarni vatanparvar va insonparvar etib tarbiyalash, ularning ongida ezgulik, bunyodkorlik, ijtimoiy birdamlik kabi g'oyalarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi. Shu bois yoshlarning tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish oldimizdagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, Jizzax zamini azal-azaldan o'zining baxshilari, so'z ustalari, shoir va yozuvchilari bilan ham dong taratib kelgan.

"Baxt va shodlik kuychisi" Hamid Olimjon, Sharof Rashidov, Nazir Safarov, Oqiljon Husanov kabi zabardast ijodkorlar yaratgan sara asarlar o'zbek adabiyotining durdonalari sifatida o'qib o'rganilayotir. Bugungi kunda ham viloyatimizda yashab ijod qilayotgan yozuvchilarimizning salmog'i anchagina. Ergash Muhammad, Abdulla Ahmad, Abulqosim Mamarasulov, Turob Yusuf, Abdusattor Sodiqov, Abdurahmon Karimov, Mehribon Abdurahmonova, Isoq Ismoilov singari

adiblarimiz yaratayotgan asarlar mamlakatimiz adabiy jamoatchiligida o'z e'tirofini topayotgani fikrimiz isboti.

2017-yili xalqimizning suyuqli farzandi, atoqli davlat arbobi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan viloyatimiz markazida Sharof Rashidov maydoni barpo etilib, unga hamohang ravishda Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim xiyoboni bunyod etilgani butun jizzaxliklarning qalbini g'ururga to'ldirdi. Bu xiyobonda Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining bunyod etilishi adabiyotni, adabiyot orqali Vatanini, xalqini, insoniyatni sevuvchi qalbi pok, mustaqil fikriga ega, dunyoqarashi keng, ma'naviyati yuksak avlodni tarbiyalashday ulug' maqsadlarga qaratilgan.

Aynan ustozlar yaratgan ezgu an'analarni davom ettirayotgan ijodkor yoshlarning safi kundan kunga ko'payib borayotgani esa kishini quvontirmay qolmaydi. Jizzaxlik yosh ijodkor qizlar: Dilfuza Mahkamova, Yulduz Zoirova, Shohida Mo'minova, Ma'mura Yoqubova, Vazira Ibragimova, Laziza Shavkatova, Mohigul Raimqulova, Aziza Shokirova, Zuhra Yo'lchiyeva, Muqaddas Mamarasulovalar aynan adabiyot yo'nalishida Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga loyiq ko'rilgani fikrimiz isboti.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining seminarlarida ishtirok etib, ustozlar e'tirofiga sazovor bo'lgan yosh ijodkorlari – Shodi

Otamurod, Muhiddin Abdusamad, Charos Yoqubova, Sayfiddin Okanovlarning ilk to'plamlari "Birinchi kitobim" ruknida 20 000 nusxada chop etilishi bu borada olib borilayotgan ishlarning yorqin ifodasidir.

Yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani navqiron avlod kelajagini belgilovchi ko'plab imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilishiga puxta zamin hozirlamoqdaki, yosh ijodkorlarni izlab topish, ularning iste'dodlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlovlarning ahamiyati katta bo'lmoqda.

Ma'lumki, ilk bora 1997-yilning yozida o'tkazilgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari juda ko'plab yosh iqtidor egalarini kashf etganligi bilan adabiyot ixlosmandlarining qalbini g'ururga to'ldirgan-ki, bu haqda gap ketganda ijod ahli hamon ko'tarinkilik bilan bu seminar mamlakatimiz adabiy hayotidagi ulkan ijobiy hodisa bo'lganligini ta'kidlashadi. "Zomin maktabi" deb nom olgan mazkur adabiyot bayramida ko'plab ijodkor yoshlar kashf etildiki, bu yoshlar bugungi kunda o'zbek adabiyotida o'z ovozi, o'z o'rniga ega shoir va yozuvchilar qatoridan joy olib ulgurishdi.

Prezidentimiz qo'llab-quvvatlashi bilan mazkur adabiyot bayramining yana qaytadan tashkillashtirilgani mamlakatimiz ijod ahlining quvonchiga

sabab bo'lgan edi. Har qanday ulug'vor ishlar o'zining davomiyligi bilan xayrlidir.

...Zominda yana katta tantana. So'lim O'rikli soy go'shasi bu yil yana yoshlik va nafosat bayramiga guvoh bo'lib turibdi. 2018-yilgi Zomin seminarining kashfiyoti bo'lgan yosh shoir Zuhra Yo'lchiyeva 2019-yili Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi bo'lgani, 2019-yildagi Zomin seminari qatnashchisi Muqaddas Mamarasulovanning 2021-yili Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga loyiq ko'rilgani mazkur seminarining yoshlar taqdirida nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turibdi. Shu o'rinda jizzaxlik Sayfiddin Okanov, Ravshan Xalilov singari yoshlarimizning adabiyot yo'nalishi bo'yicha "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi bo'lganini aytib qo'yishni lozim, deb hisoblayman. Ular ham mana shunday seminarlarda kashf etilgan ijodkor yoshlarimizdandir. Bunday yoshlar bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida mamlakatimizning turli viloyatlaridan tashrif buyurgan ijodkorlar adabiyotning nazm, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, badiiy tarjima va badiiy publitsistika yo'nalishlari bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyon etib, o'zbek adabiyotining taniqli shoir va adiblaridan kerakli, zaruriy maslahatlar oladilar. Zero, ijodkorlik sari yo'l kitobxonlikdan boshlanadi.





**Shodi OTAMUROD**

1978-yili tugʻilgan.  
Oʻzbekiston Milliy  
universitetining Jurnalistika  
fakultetini tamomlagan.  
“Sogʻinch ranglari” hamda  
bolalarga atalgan “Muloyim  
mushuk” nomli sheʼriy  
toʻplami nashr etilgan.

## *Uning...*

Qishlarini menga berganmi,  
Yogʻayotgan qorlari kammi,  
Sogʻinchlardan oppoq gilamni  
Toʻshayotir –  
Yozida yoʻqman.

Yiroqlarda hilpirar roʻmol,  
Xayolidan oʻchdim, ehtimol,  
Hijronlardan yuqtirmay malol,  
Yashayotir –  
Yodida yoʻqman.

Nigohini mendan berkitib,  
Koʻksimdagi muzni eritib,  
Yuragimning eshigin chertib,  
Kelayotir –  
Yonida yoʻqman...

## Togʻlar qizgʻanmaydi *mendan oʻzini...*

\* \* \*

Oʻxshar uchayotgan qushga bu dunyo,  
Yo oʻxshar lahzalik tushga bu dunyo.

Tashvishlar xaltasi qoʻltigʻidadir,  
Ketmoqdadir qaysi ishga bu dunyo.

Qancha bekatlardan toʻxtamay oʻtdi,  
Qaygadir shoshgani shoshgan bu dunyo.

Bilaman, azobin ichga yutadir,  
Qoʻymoqda tishini tishga bu dunyo.

Qancha siri boʻlsa, shuncha yashirin,  
Aytmaydi, ichidan pishgan bu dunyo.

Yoyilib yotar u barmoqlarimdek,  
Aylansa yaxshiydi mushtga bu dunyo.

Chanqagan savobning bogʻiga yetmay,  
Gunoh qirgʻogʻidan toshgan bu dunyo.

Sinovda topshirar necha bahoga,  
Ikkigami yoki beshga bu dunyo.

Jilvasi bizlarni rom etgan sari,  
Baʼzida haddidan oshgan bu dunyo.

Kiprik orasida omonatdir u,  
Oʻxshaydi koʻzdagi yoshga bu dunyo.

Men-ku oʻz holimni anglarman, ammo  
Bilmayman, ne koʻyga tushgan bu dunyo...



## Yo'l...

### **Shoir ukam Sayfiddin Okanovga**

Ishq deguvchi ka'bam bor,  
Qaytdim degan tavbam bor,  
Qalb nuridan tortsam dor  
Ka'bamdan ka'bamgacha.

Inson qayon ketgaydir,  
Madad izlab goh daydir.  
Muhabbat ko'p – yetgaydir  
Odamdan odamgacha.

Tug'ilmoqlik azobi  
O'lmoqlikning kitobi,  
Topilgaymi javobi  
U damdan bu damgacha.

Uchratganing do'stmi, yot,  
Yo'l poylarmi ul sayyod,  
Hisoblimi bu hayot  
Qadamdan qadamgacha.

Ortda qolgan izlarim,  
Goh butundir, goh yarim.  
Yo'lin topgay so'zlarim  
Qalamdan qalamgacha.

Yo'lovchingman, ey dunyo,  
Umidlarga men ham yor.  
Ko'ngil degan chiptam bor  
Ko'klamdan ko'klamgacha...

## Hol

Vo'ajab, ko'nglimdan ohlar o'tgaydir,  
Shu ohlar meniki zorlari bilan.

Yana gunoh qilsam, xudo, kechirgin,  
Shu jazo meniki dorlari bilan.

Tog'lar qizg'anmaydi mendan o'zini,  
Shu tog'lar meniki qorlari bilan.

Men ham turibman-ku qatoringizda,  
Shu qator meniki norlari bilan.

O'zi eslatgaydir insonligimni,  
Shu g'urur meniki orlari bilan.

\* \* \*

Shu ekanmi bir kam dunyo,  
Nayza bor-u kamonim yo'q.  
Yomonlardan yomon yorim,  
Yonimda shu yomonim yo'q.

To'kildim men shamollarda,  
Uchirdilar, somonim yo'q.  
Tortishdilar tegirmonda,  
Tortilmagan tomonim yo'q.

Muhabbatda podshoman-u  
Ammo biror farmonim yo'q.  
Oy yuzini bir ko'rsaydim,  
Armonim yo'q, armonim yo'q.

Alloh bilar kam-u ko'stim –  
Imonim bor, gumonim yo'q.  
Bu ishqimning savdosiga  
Dosh berguchi zamonim yo'q...



# Yolg'iz

## ODAM

Hikoya

Bir qaragam atrofimda hech kim yo'qday..

**Abdulla ORIPOV**



### Abduhamid MUXTOROV

1979-yili Jizzax viloyatining Forish tumanidagi Bolg'ali qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetida tahsil olgan. "So'nggi qo'ng'iroqdan keyin...", "Mening tasavvurim" nomli to'plamlari nashr etilgan.

Har galgidek bugun ham sahar turib bobom bilan o'zimga tahorat uchun suv tayyorladim. Bomdodni otam ishtirokida o'qidik. Yoz emasmi, hali quyosh chiqmasa-da atrof allaqachon yorishib ketgan, xush ovoz bilan "Yosin"ni tilovat qilayotgan otam uni yakunlay deb qolgan edi. Shu payt ko'cha muyulishida bir qora tobora bizga yaqinlashib kelaverdi. Tilovat tugab duoga qo'l ochilganda u kishi ham yurib kelayotgan joyida to'xtab, cho'nqayib o'tirgancha duomizga qo'shilib yuziga fotiha tortdi. Bir-birimizga salom berib ota-bola o'rnimizdan qo'zg'aldik. Bobom esa joyidan jilmay tasbehini o'girib ko'zlarini yumganicha Yaratganga hamd, payg'ambarga salavat aytib o'tirardi.

Bu har kungi holatning takrori edi. Otam biroz bo'lsa-da ishlab badanini qizdirib olish uchun boqqa ketar, men esa supa ustidagi o'rin-ko'rpalarni yig'ishtirib, o'tirish uchun joy hozirlar, erinmasdan bordi-keldi qilib dasturxon tuzar, onam bergan shirchoylarni keltirib qo'yar, terlab-pishib qaytgan otam yuvinib, dasturxonga o'tirishini kutib turar edim. Bobom ham zikrini tugallab, davraga qo'shilgach nonushta boshlanardi..

Xullas, otam boqqa ketmay, men o'rin-ko'rpalarni yig'may, bobom zikrini boshlashga ulgurmay darvoza vazifasini o'tovchi g'ov yog'ochdan uzun bo'yli, qomatiga judayam yarashib tushgan kostyum-shim kiygan, yoshi oltmishdan oshgan bo'lishiga qaramay o'zini yaxshi saqlagan xushsurat kishi hatlab o'tdi.

Bobomning huzuriga har kuni o'nlab mehmon kelishiga o'rganib qolgan bo'lsak-da, bunchalik erta tashrifdan biroz ajablandik, rosti.

– Assalomu alaykum! Bobo to'ra, mehmon olasizmi? – dedi mehmonimiz o'ktam ovozda.

– Va alaykum assalom! Qurbon aka to'ra, sizni kutib turibmiz o'zi, kecha tushimga kirgan edingiz, – dedi mehmonga javoban bobom.

Rostini aytsam, bobomning o'zidan ancha yosh, kenja o'g'li qatori odamga aka to'ra deb, buning ustiga sizlab murojaat qilgani meni yana bir bor ajablantirdi.

Otam qo'lini ko'kragiga qo'yib: "Assalomu alaykum, marhamat qiling", degancha peshvoz yurdi.

– Adashmasam, Ahadxon to'ramsiz-a? Keling endi, quchoqlashib ko'rishaylik! – Mehmon shunday deb quchoq ochdi. Otam ham u kishining shashtini qaytarib o'tirmadi. Bobom mehmonimiz bilan bag'irlashib ko'rishar ekan, negadir ikkovining ham ko'zlari namlanganligini ko'rdim...

– Qurbon aka, qani, dasturxonga marhamat, – dedi bobom mulozamat qilib. Nonushta deyarli suhbatdan xoli, onda-sonda takalluf inobatga olmaganda osoyishta o'tdi.

Shirchoydan bo'shagan kosalar olinib, dasturxonda faqat bir lagan ho'l meva, kichikkina choynakdagi achchiq ko'k choy va ikkita piyola qolgandagina mehmon menga tanishtirildi (Umuman, bobomning bu odati gohida menga noqulay tuyular, hatto hozir ham kelgan mehmonni atrofdagilarga tanishtirmay, buning ustiga taom mahali "oling-oling"dan nariga o'tmay kutishni hazm qilolmagan bo'lsam-da, bobom taomlanish ustida gaplashishni yoqtirmasligini yaxshi bilardim).

– Hamidjon, bu kishi mening bo'lam, Dahbetda o'tgan kichik xolamning kenja o'g'illari Qurbon aka to'rangiz bo'ladi, – dedi nihoyat bobom menga yuzlanib.

Biz bir-birimiz bilan qayta hol-ahvol so'rashganday bo'ldik. Ko'p o'tmay dadam ishga jo'nadi. Men esa xizmatida qoldim.

– Qurbon aka (bobomning mehmonni yana akalagani g'ashimga tegdi), bu hovuz bo'yidagi soya kechgacha hech qayerga ketmaydi. Yuring, bog'ni aylanib kelamiz. O'z qo'li bilan uzib yeyilgan meva ta'mi boshqalariga o'xshamaydi.

Mehmon rozi bo'lib ular qo'zg'alishdi. Katta mezbon yoshiga xos vazminlik bilan imillab qadam tashlar, mehmon esa u kishining yonida sukut saqlaganicha, o'ychan ketardi. Mo'ljalidagi yo'l yarimlab ham qoldiki, ulardan sado chiqmasdi. Bir paytlar bog' o'rtasida qo'r to'kib o'sgan, kuni bitib qurib qolgach, kesib tashlangan, endilikda esa kundasigina qolgan yong'oqqa ham yetib keldik. Bobom har gal unga o'tirib nafas rostlar, boshqa

hamroh bo'lmasa, menga biror rivoyat aytib berar yoki qarindoshlar to'g'risida so'rab-surishtirar edi. Hozir ham odatini tark etmadi. Mehmon maysaga chordona qurdi. Men tik oyoqda qolib ularni e'tibor bilan kuzatdim. Mehmonda dastlabki o'ktamlikdan asar ham qolmagan, bobomning ham xayoli parishon, buning ustiga ahyon-ahyonda uf tortib xo'rsinib qo'yadi.

Qancha vaqt "nafas rostlangani"ni bilmayman, biroq oyoqlarim og'rib ketganidan bildimki, bu hol biror soat davom etgan bo'lsa, ajabmas. Xayriyatki, otam kelib qolib, yana supaga qaytdik. Nimanidir unutgan ekan. Olib ketgani kelibdi. Mehmon otam bilan katta yo'lgacha chiqib oladigan bo'ldi. Bobom bilan xayrlashar ekan, endi ikkovi ham o'zini tutib o'tirmay rostakamiga yig'lab yuborishdi. Ularning allanima deb g'o'ldirashidan mehmonimiz bobomga "rozi bo'ling", deyayotganini tushuna oldim xolos...

O'sha kuni bobom deyarli kun davomida joynamozidan qimirlamadi. Hatto tushlikka qayrilib ham qaramadi. Savollarimizga ham javob bermadi. Kelib-ketgan mehmonni ichimda rosa so'kdim. Ha-ha, aynan so'kdim. Qarindosh bo'lganiga ham qarab o'tirmadim. Kasofat? Bobomni nega bu ko'yga solib ketdi-ya? Qolaversa, u yaramas qanday mehmonki, tayinli suhbat ham bo'lmadi. Ikkovi bir-biriga tiklab-tiklab nimani gaplashishdi o'zi?

Bechora bobomning o'tirishini ko'rganingizda edi. Ko'zlari yumuq, joynamozda cho'k tushib tasbeh o'girar, gohida ko'zlarini ochib bir nuqtaga tikilganicha o'zidan o'zi pichirlab, kim bilandir gaplashar, yana ko'zini yumib olar va yumilgan ko'zlaridan sizgan yosh soqolini namlardi...

\* \* \*

Adashmasam, ikki-uch kundan so'ng o'sha qarindoshimiz olamdan o'tgani haqida xabar keldi. Otam og'alari bilan yig'ilib qayergadir ketdi. Bir kundan so'ng marhumni qishlog'imiz mozoriga keltirib, yerga topshirishdi...

\* \* \*

Bu o'lim oilamizda eng ko'p bobomga ta'sir qildi. Ancha vaqt ochilib gaplashmadi. Men esa

rivoyat-u hikoyatlardan mahrum bo'ldim. Bundan jahlim chiqqan kezlarda esa o'lganiga ham qaramay o'sha qarindoshimizdan xafa bo'lardim...

\* \* \*

Kechki ovqatdan so'ng otam bobomning oyoqlarini uqalar ekan, tasalli ohangida:

– Dada, Olloning irodasi ekan. O'lim barchamizning boshimizda bor. O'tinib so'rayman, o'zingizni bunchalik siqmang. Salomatligingizga putur yetkazib qo'yasiz, – dedi.

Bobom ma'qul ishorasida bosh irg'adi.

– O'zi nima bo'lgan ekan? – deb so'radi so'ngra.

– Insult bo'libdi. Miyasiga qon quyilgan, – javob qildi dadam.

– Sababi nima ekan?

– O'sha kuni tug'ilgan kunlari ekan. Yubiley qilaman deb restorandan ikki yuz kishilik joyni buyurtma qilibdi. Mehmonlar soat 11 ga aytilgan ekan. Soat ikki bo'lsayam o'n chog'li odamdan boshqa hech kim kelmabdi. Asabi buzilganini ham hech kim eslolmadi. Kayfiyatini buzmay kelganlarni ichkariga taklif qilib, xush-xandon suhbat qilib o'tiribdi. To'g'risi, ozgina ichkilik ham ichgan ekan (Bobom afsus bilan bosh chayqab, qovog'ini solib oldi). Ikkinchi ovqat suzilganda

bir shogirdi kirib kelibdi. Ustozini tik oyoqda tabriklab, o'tirishga ham, ovqatga ham unamay, "hoy-hoy"larga ham qaramay chiqib ketibdi-da. Rahmatli, o'sha payti o'zini tashlab yuboribdi. Tez yordam chaqirib kasalxonaga olib borishsa, uzilib bo'lgan ekan...


\* \* \*

Yaratgan barcha dardga davo bo'luvchi shunday ne'mat ato etganki, bu – vaqtdir. Oradan oylar o'tib bobomning rivoyatlarini eshitish yana nasib qildi. Kunlarning birida marhum qarindoshimiz haqida so'rashga jazm qilib, bobomga savol qotdim:

– Bobo, anavi qarindoshimiz bor-ku, birdan o'lib qolgan. O'sha kishi o'zi kim edi? Otamdan so'rasam, u kishi ham tayinli javob bermadi.

Bobomning yuz ifodasidagi tabassum o'rnini allaqanday xayrixohlik, achinish aralash g'amginlik egalladi. Birpas sukutga ketgach, so'z boshladi.

– U kishini Qurbonxon deyishardi. Mendan ko'p kichik. Katta dadang bilan teng. Senga oldin ham aytganman. Dahbetdagi kichik xolamning kenja o'g'li edi. Xolam bechora bizning qishloqqa qo'yilgani uchun Qurbonni ham shu yerga qo'ydik. Otasi ham akasi ham armiyaga ketib qaytmagan..





Bir ukasi bo'lardi, afg'onda qoldi. Xolam rahmatli omonatini bizning uyda topshirdi. Unda sen hali tug'ilmagan eding. Sho'rlik Qurbonning tirikligini bilmay olamdan o'tib ketdi.

Bunchalik chalkash taqdirar. Yaratgan boshqa bandasiga ko'rgulik qilmasin. Xolam rahmatli beva bo'lib qolgach, Dahbetdan kelmay o'sha uyning chirog'ini yoqib o'tirdi. Katta o'g'lidan ayrilgandan keyin ham ko'chirib kelaman, deb rosa qistovga oldik. Unamadi. Qurbon bo'la maktabda yaxshi o'qidimi, Moskvaga o'qishga kirib ketib, o'sha yoqlarda yurdi. Boshida yaxshi edi. Har olti oyda kelib-ketib turardi. Ukasi afg'onga ketganda bir keldi-yu bedarak ketdi. So'rab-surishtirsak, o'qishni bitirib, o'sha yoqlarda ishlab qolgan ekan. Xat-xabar ham uzildi. Xolam uch yildan keyin "bolamdan ayrildim" deb dod solib yig'laganda izlashtirdik. Tula degan shaharga borib izini yo'qotdik. KGB degan milisalar "qidirmanglar, u endi yo'q" deb, allaqanday qog'ozlarga qo'l qo'ydirib orqamizga qaytarib yubordi.

Xolamga Qurbon o'lgan deb aytoilmadik. Topolmadik, deb yerga qaradik. Bechora ukasi ming o'limdan omon chiqib, uyga qaytaman deb turganda vos-vos bo'lib qolgan o'zining o'rtog'i otib qo'ydi, degan xabar keldi. Lekin jasad kelmadi. Xolam bechora yotib qolgandan keyin ko'nmaganiga ham qaramay shu yerga ko'ch-ko'roni bilan olib keldik, uch oyga borib-bormay olamdan o'tdi.

Oradan qancha yillar o'tib, katta dadang Rossiyaga savdo bilan borib gap topib keldi. Qurbon degan o'zbek bilan tanishib qolibdi. Katta olim ekan. O'zini dahbetlik deganmish. Bu gapni eshitgandan so'ng mazam qochdi. Katta dadangga o'shaning oldiga olib bor, deb turib oldim. Leningradga ekan. Ishxonasidan topdik. Xudoning qudratidan... (Bobom qaltiroq qo'llari bilan ko'zlariga quyilib kelgan yoshlarini artib birpas jim qoldi).

– Bo'lamiz bomba yasaydigan ustaxonaning kattalaridan bittasi ekan. Milisalarning KGB degani shuncha yillardan beri hech kim bilan uchrashishga ruxsat bermagan. Endi biroq bo'shroq qo'yib turgan vaqtiga kelib, biz topib olibmiz-da. Meni ko'rib rosa yig'ladi. O'sha kuni

uyiga bordik. Bir rus ayalga uylangan ekan, Timofey degan o'g'liyam bor ekan-u Germaniyaga ko'chib ketgan dedimi-yey. Xullas, chol-kampir o'zlari qarovsiz qolgan ekan-da.

Ikki-uch kun mehmon bo'lib qaytdik. Xat yozishib turdik. Mustaqillik bo'lib ketgandan keyin, Qurbonxon bo'lani ishdan bo'shatganmi yo o'zi bo'shaganmi, haytovur kelib qoldi. Kampiri kelishga ko'nmapti. O'g'liyam. Baribir olim odam yerda qolarmidi?

O'zimiznikilar darrov ish berdi. Bir yil ishlab-ishlamay bir joyga direktor bo'ldi. Uzoqqa borib o'tirmay kotibasiga uylandi. Biroq uyam bizning millatdan emasdi. Toshkent bir qadam bo'lib qolgandan keyin uning ro'zg'ori bilan tanishib, ixlosim qaytdi. Haligi, ikki xonali uy olgan. Gilamni-ku qo'ya tur, to'shagulik narsaning o'zi yo'q. Yalang'och yerning o'zi. Uy ichida ham shippak kiyib yuradi. Divanda o'tiradi. Shunda uxlaydi. Xullas, erta-indin ketadigan musofirday yashar ekan bechora. Makoniga borgan mehmon yotib qololmaydi, ahmoqgarchilikni qaraki, hojatxonasi ham shu ikki katalakning ichida. Kamiga bitta laycha it o'zlari bilan birga ovqatlanib o'tiradi...

Xolam bechoraning shu noma'qulchiliklarni ko'rmagani ham yaxshi bo'lgan ekan!

Qarindosh-urug'lar bilan yig'ilib o'rtaga oldik.

– Hoy Qurbonxon, bu qanaqasi, birorta to'y-ma'arakaga chiqmas ekansan. Hech kim bilan bordi-keldisi yo'q, deb eshityapmiz. Ro'zg'oringni munday epaqaga keltirib ol. O'zbekchilikka to'g'ri kelmaydi, axir, – dedik.

– O'rtoqlar sizlarga noto'g'ri ma'lumot yetkazishibdi. O'zimga yarasha bordi-keldi qiladiganlarim bor. To'y masalasiga kelsak, bilasizlar, Toshkentda yarim kechasi oshga borishadi. Uyquni harom qilib shu bir cho'qim osh uchun ovora bo'lish shartmi? Bir ko'rganda tabriklab qo'ysak bo'ldi-da. Ro'zg'or masalasida ilojim yo'q. Mening ko'rganim ham, ko'nikkanim ham shu, – deb bizga gap bermadi.

O'shandan keyin uning uyiga borishni yig'ishtirdim. Tovba, odam ham shunchalik o'rislashib ketarmikan-a, loaqal onasining boshiga yilda bir kelmasdi. Biroq xudoga shukur-

ki, insofga keldi. Insofga kelishiyam qiziq bo'ldi-da o'ziyam. Rahmatlining o'zi aytib bergan edi.

Uch yil oldin oltmishga kirib, pensiya yoshiga yetgach, ishni qo'ymoqchi bo'libdi. Kattalariga shunday-shunday, pensiyaga chiqaman, desa ko'nishmabdi. O'ringizga odam topilguncha ishlab turing, topilishi bilan javob beramiz deb aytishibdi. Lekin Qurbonxon bo'layam tutgan joyidan kesardi. Ministrga gap tamom, mana ariza, debdi-yu chiqibdi-ketibdi. Ertasiga ishga chiqmabdi, indiniga tug'ilgan kuni ekan. Uyida dasturxon tuzab mehmonlarni kutibdi. Boldizi bilan Valeriy Pavlovich degan ulfatidan boshqa hech kim kelmabdi. O'shandayam davleniyasi oshib balnisaga tushgan ekan. Xudo imonini bergur to'g'ri kasalxonadan chiqib ministrning oldiga borib, arizasini qaytarib olib, qaytadan tug'ilgan kun qilgan, kasofatchilikni qaraki, hech narsani bilmaganday hamma shogirdlari-yu hamkasblari quchoq-quchoq sovg'a bilan kelgan ekan.

Xuddi o'tgan safargudek, "Eshon bobo, mehmon olasizmi?" – deb kirib kelib rosa dardini dasturxon qilgan edi.

– Meni xudo urib qo'yibdi. Kimligimni unutib qo'yibman. Daraxt har qancha shirin meva bergani bilan tomiri suvdan uzilsa, qurib qolishini hisobga olmabman. Shu ahvolda kimman? Qaysi yuz bilan o'zbekman deya olaman-a, – deb yig'lab yubordi.

– Haliyam kech emas, Qurbonxon aka. Hech bo'lmasa, endi esingizni yig'ing. O'g'lingizni yoki nevarangizni chaqirib oling. Bir hovli solib ko'ching anavi qafasdan. Udumlarga e'tiborliroq bo'ling, – deb tasalli berdik.

– Uch yilda payg'ambar yoshiga to'lar ekanman. O'shanda menam elga osh beraman. Aytganlaringizni qilaman, shoyad odamlar amaldorligim uchunmas, odamgarchiligim uchun yo'qlab kelishsa, – dedi rahmatlik.

Oxirgi kelishida tug'ilgan kunidan uch kun oldin kelgan edi. Esingda bo'lsa, senga tanishtirgan edim. Bechoraning avzoyi o'zgarib ketdi, bildimki, ishdan bo'shagan, bildimki, payg'ambar yoshiga tayyorgarlik ko'ryapti...

O'shanda e'tibor qilgan edim, ko'zlarida hadik bor edi...

\* \* \*

Arafa kuni otam bilan mozor boshiga bordik. Oilamiz xilxonasi oldida cho'kib, otam tilovat qildi. Qabrlarni qoplab olib, qovjirab qolgan xas-xashaklarni tozalagan bo'ldik. Mana bu katta onamning qabri, go'ri nurga to'lsin, ilohim, yaqinda olamdan o'tdi. Undan tepada katta bobomizning qabri. Qo'yilganiga ham yuz yildan oshgandir. Otamning bitta akasi, yana uch nafar ammasining, bobomning onasi va kichik xolasining qabri. Biz ularning har birining boshiga bir tupdan qayrag'och ekdik. Shundan so'ng ortimizga qaytdik.

Mozor darvozasidan chiqib mashinaga o'tirishga chog'lanayotgan vaqtimizda katta dadam "Eh", degancha peshonasiga shapatiladi.

– Ha, tinchlikmi, aka? – dedi bundan ajablangan dadam.

– Qurbonxon bo'laning boshiga bormabmiz-ku? – deya o'z xatti-harakatini izohladi u kishi.

Gap-so'zsiz ortimizga qaytdik. Ajabo, u kishining qabri negadir bizning xilxonamizda emas, qabristonning bir chetida – yolg'iz qabr bo'lib tushgan ekan. Do'mpayib o'sgan tuyaqorinlar qabr oldigacha borishga imkon bermadi. Katta dadam otamga "o'tiramiz" ishorasini qilib, birinchi bo'lib o'zi cho'kdi-da tilovat boshladi.

\* \* \*

Uyga qaytgach, bobomning Qurbonxon bo'la haqida aytgan uzuq-yuluq hikoyasidan tuzuk-quruq tasavvurga ega bo'lmaganimni anglab yetdim. Nega odamlar u kishini yomon ko'rgan? Nega hamma u kishini majburiyat yuzasidan yo'qlagan? O'z davrining qurboni bo'lgan, tirik bo'la turib yaqinlaridan ayrilgan bir bechorada nima gunoh? Axir, u kishi hech kimga yomonlik qilmagan ekan-ku!

Men bu mulohazalarimni otamga aytdim.

– Hech kimga yomonlik qilmayman degan odamdan qo'rqish kerak! Negaki, u kimgadir yomonlik qilmaslik uchun yana kimgadir yaxshilik ham qilmaydi.

Otamning javobi shu bo'ldi.

# Tengdoshlarim

## ijodiga nazar



**Ozoda  
ABDURASHIDOVA**

1993-yili tugʻilgan.  
Toshkent davlat  
Oʻzbek tili va adabiyoti  
universitetining Oʻzbek  
tili adabiyoti fakultetini  
tamomlagan.  
Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi  
(2021).

Zomin semina-  
ridagi hayajonlar, mana  
necha kun oʻtibdiki, men  
bilan hamroh. Aytish  
mumkin boʻlsa, biz Zomin  
togʻlarida tom maʼnodagi  
adabiyotimiz jonkuyarlari  
bilan uchrashdik. U yerdagi  
ijodiy davra, adabiy muhit  
koʻz oʻngimizda shunday bir  
manzarani gavdalantirdiki,  
agar biz adabiyotni goʻzal  
bir chamanga qiyoslasak,  
ushbu chamanning  
ulugʻvor togʻlari, qir-  
adirlari, etaklarini toʻldirgan  
archazorlari, toshlar  
bagʻridan sizib turuvchi  
buloqlari-yu jilgʻalari  
bor. Shu bilan birga,  
adabiyotimiz maydonida  
endi nish urib kelayotgan  
maysalar ham tebranib raqs  
tushayotgandek.

Seminar davomida  
tanishishga ulgurgan  
tengdoshlarimning ijodini  
ozmi-koʻpmi oʻrgandim  
va ular xususida oʻz  
xulosalarimga ega boʻldim.  
Havas qilsa arziydigan  
isteʼdodlarni uchratdim, ular  
bilan birga ijodiy manzillar  
sari odimlayotganimdan  
xursand boʻldim.

Surxon vohasidan ishtirok etgan  
Sadoqat Ergasheva toʻrt kun mobaynida  
menga eng yaqin hamroh va dildosh boʻldi.  
Bu qizning oʻqish va ish faoliyati bilan  
tanisha turib, boʻlajak olimaligini bilib  
oldim. Ayni paytda Termiz oliygohida  
oʻzining ilmiy izlanishlarini olib  
borayotgan Sadoqat uchun sheʼriyat,  
ijod eng sevimli dunyosiga aylanganini  
his qilish mumkin. Men shoirlik va  
olimlikning bir koʻngilda yaralishi  
mumkinligiga biroz shubha qilardim.  
Biroq Sadoqatning sheʼrlarini oʻqib,  
adashganimga amin boʻldim.

*Soat chiqillaydi...  
Tashqari zulmat.  
Qorongʻi sukunat alla aytadi.  
Mening yuragimda qandaydir xilqat,  
Koʻzingni ziyorat qilib qaytadi.*

Yosh ijodkor ushbu sheʼri orqali  
kishini beixtiyor ruhiy olamga, koʻngil  
dunyosiga olib kira boshlaydi. Tasvir  
mahorati va soʻzlarga yuklangan sirli  
joziba kishini oʻziga tortmasdan iloji yoʻq.  
Va bularning hammasi chiqillab turgan  
lahzalar oraligʻida sodir boʻlishi haqiqatda  
ham juda sirli jarayonga ishora qiladi.  
Uzoqdagi yorning koʻzlarini eslash, oʻylash  
yoki his etishmi – shu kabi qandaydir  
holatni shoira goʻzal tarzda “ziyosat qilmoq”  
deya ifodalaydi. Aslida ham, bu sehrli  
olamning sinoatlari koʻpki, koʻzlarni ziyosat  
qilish orqali koʻngillarni ham ziyosat qilish

mumkin. Eng pokiza tuyg'ular aynan ko'zlar orqali bir-birimizga ko'chib yuradi. Ammo shoira bundan ham kattaroq tushunchalarni dilimizga soladi. Yor timsolida ilohiy ishqqa yetishish mashaqqati turar, ehtimol. Ilohiy bir ko'zlarni ziyorat qilish orzusi yashayotgandek ushbu satrlarda.

*Soat chiqillaydi...  
Ruhim keksayar.  
Soniya sen bilan mengacha yo'ldir.  
Muhabbat farzandi sen bo'lsang agar,  
Ko'nglimni pokiza ishq bilan to'ldir.*

Yana o'sha soat lahzalarida kechayotgan holat. Soniya esa Ul yorni topmoq ko'yidagi yo'l u. Faqat muhabbat farzandining ko'ngillarga pok ishqni sola olishi lirik qahramonning topgan iqrordir.

*Soat chiqillaydi...  
Yurak azobda.  
Injiq dunyoyingdan ketmoqlikka shay.  
Sen olis ketasan har dam yiroqqa,  
Sog'inchning qadriga yetsin deb atay.*

Bu hijron va visol o'yinlaridan zada bo'lgan yurak nolasi va ular quloqlar ostida jaranglaydi.

*Soat chiqillaydi...  
Men senga aytsam,  
Bu dunning ruhini ko'nglimga kiydim.  
Sening huzuringga tiz cho'kkanimas,  
Yuragimni olib ketgani keldim.*

“Dunning ruhini ko'ngilga kiymoq” – o'ziga xos topilma. Oxirgi ikki satrdagi fikr esa qahramonning o'ziga xos ishonchi va jasorati deyish mumkin. Shoiraning qalb buloqlari sharq falsafasidan, mumtoz lirikadan suv ichgan. Uning bir yutug'i bu falsafani bugungi zamon kishisi sifatida ayta olishidir. Sadoqat ruhiyat kuychisi, uni ko'proq ichkin tuyg'ular qiziqtiradi. Uning she'rlarini o'qib kishi ruhiy olam sari yo'l oladi.

*Kimdir o'lchamoqchi bo'ldi harorat,  
Dedi: “Suv qaynaydi yuz gradusda.  
Sening yuragingning qaynog'i qancha?”  
O'lchadi. Hayron u: “Ming gradusda?!”*

*Axir bu issiqda erir metallar,  
Bu fanda yangilik eltay darakni.  
Men-chi ming gradus yuragim bilan,  
Erita olmayman bir tosh yurakni.*

Ushbu misralar jizzaxlik yosh ijodkor Umidjon Qodirovga tegishli. Shoirning mashrabxonligi, g'azallar shaydosi ekani ushbu turkum she'rdan satrma-satr o'z aksini topgan.

*Jon dilbar ko'rinur, ko'za ko'targan,  
Yo'lida bir oshiq g'azalin aytar.  
Tovonin o'pmoqqa suv bo'lmoq dardi,  
Agar oshiqlicin aytsa, bu jahon o'rtar.*

Bu to'rtlikda Mashrab g'azallariga ishora seziladi. Ayniqsa, uning qalandarona hayot yo'lini timsollar bilan tushuntirishga harakat qiladi.

*Necha asrlarki, bor g'orda kitob,  
Ustida bir yurak urib turibdi.  
“Devonai Mashrab” derlar nomini,  
Qalandar o'lmagan, hamon yuribdi.*





*She'ni yaxshi anglash  
va his etish mavjud.  
Obrazli yetkazish mahorati  
baland.*

Ushbu to'rtlikda "Mashrabning dardi ko'chib yuribdi" degan ijodkorona qarash mavjud. Umidjonning o'ziga xos uslubi, qiziqishlari va izlanishlari tahsinga sazovor.

*Ko'zlarimga tomchilar tushlar,  
Bir tushlarki, o'nglardan avlo.  
Nechun meni o'shal tushlarga  
Aylantirib qo'yaysan, Mavlom?*

Ushbu she'r sirdaryolik ishtirokchi Zarnigor Abdualimova qalamiga mansub. Ushbu misralarda ijodkor o'z orzusidagi olamni go'zal tushlariga qiyos etmoqda. Bu olamning o'nglardan-da a'lo ekaniga iqrar bo'lmoqda. Umuman, adabiyotning orzusi bo'lgan yuksakdagi olam haqida ijodkor sifatida ko'p mulohaza qilamiz. Aynan she'rda yoki asarda u haqida darak berish bedor qalblarning tashna vujudiga o'zgacha obi-hayot olib keladi. Zarnigorning o'ziga xos topilmalari bor: "Qanotsan-u hurlikka egiz, Uchmoq uchun munosib tan yo'q!" yoki "Avoxirga qadar uyg'oqman" kabi satrlari ijodkorlik mahoratini ko'rsatadi.

Zomin seminarida respublika bo'yicha 27 nafar yosh shoir va shoirlar o'zlarining ijod mahsullari bilan ishtirok etdilar. Kamina ham shular qatoridagi ishtirokchiman. Tinglagan she'rlarim orasida yuqoridagilardan tashqari Durдона Tursunova, Sobirjon Abdujalilov, Umidjon Qodirov, Halim Malik, Meyrambek Abduqaliyev kabilarning ijodi bilan ham tanishishga muvaffaq bo'ldim. Kichik guruhimiz safidagi yoshlardan Durдона Tursunova va Sobirjon Abdujalilning she'rlari chin ma'noda maqtovga loyiq. Xususan, Durдона Tursunovanning "Yuragim



– Qashqadaryo, ko'nglimga quyilmas boshqa daryo" degan satrlari kishini o'ziga tortadi. Seminarada adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yoshlarning barchasida ham ijodkorona nafas bor. She'ni yaxshi anglash va his etish mavjud. Obrazli yetkazish mahorati baland. Mohiyatni anglash, uni idrok qilishga urinish sezilmoqda. Yangiliklar ham ko'zga tashlanmoqda. Biroq ko'plab yosh ijodkorlarda, shuningdek, o'zimda ham bayonchilik, hodisalarning atrofida yurish, kitobxonlik kayfiyati, ishoraga ko'p urg'u berish, fikrparastlik, bo'rttirilgan dard kabi kamchiliklar uchrab turibdi. Ustozimiz Qozoqboy Yo'ldosh aytganlaridek, yashirib aytishga, aytmay turib aytishga o'rganmog'imiz kerak. Eng muhimi, milliy o'zlikni topishga harakat qilmog'imiz lozim. Qolaversa, adabiyot faqat fikr aytish uchun minbar emas, balki tuyg'ularni ifodalovchi, insoniyat ataluvchi azaliy, pinhoniylar namoyon etuvchi san'at ekanini ham his qilishimiz lozim. Biroq ushbu seminarida bizlarga fikr bildirgan ustozlardan Enaxon Siddiqovanning o'gitlaridan kelib chiqib aytish lozimki, shoirlarning maktabi yo'q. Ushbu maktabni hayot davomida har bir ijodkor o'zi uchun o'zi yaratishi lozim. Ya'ni o'z kamchiliklarini o'zi anglab, to'g'irlab borsin. Shu ma'noda, ushbu yozilgan tahliliy yondashuvimiz alal-oqibat o'z ijodimizni ham o'stirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.



**Sayfiddin OKANOV**

1995-yili tugʻilgan.  
Jizzax davlat  
pedagogika instituti  
talabasi. Respublika  
yosh ijodkorlari Zomin  
seminari ishtirokchisi.  
“Eng chiroyli uy” nomli  
sheʼriy toʻplami chop  
etilgan.

## Toʻzgʻib xayolingiz, boʻronday kezsam...

\*\*\*

Senga maza! (Chetdan qarasa)  
Senga shahar, qishloq – bir qadam.  
Senga qarab qoʻylar maʼrasa,  
Jiyirasan burningni bir dam.

Har kun tongda yoʻl olib ishga,  
Qaro kechda qaytib kelasan.  
Shaharingdan soʻz ketsa agar,  
Qishloqqacha aytib kelasan.

Chiqib olish azob yoʻlgacha,  
Bir sen-u, bir kalish ovvora.  
Sening bunday oliftaliging  
Qishloqliklar tushunsa, zora...

Chang koʻchada labingni burib,  
Qovogʻingni uyib ketasan.  
Yoʻl boʻyida daraxt ichiga  
Kalishingni qoʻyib ketasan.

Mashinaga oʻtirasan soʻng  
Koʻz oldingda boʻlaman paydo.  
Ezgʻilana ishqi poyingda,  
Kuzgi bargdek boʻlaman ado.

Olib qochar yana xayoling,  
(Shu orada koʻrinar shahar).  
Atrofingni yasama kulgi  
Va koʻzyoshsiz yigʻilar bosar.

Ishxonangga kelmaydi kirging,  
Oʻrinbosar koʻzing yoshlaydi.  
Hujjat kabi xato yozilgan  
Muhabbating yirtib tashlaydi.

Kuning shunday oʻtar azobda,  
Jim kutasan kech boʻlishini.  
Umr boʻyi xasta bemorning  
Kutgan kabi tinch oʻlishini.

Qololmaysan shaharda ayon,  
Chunki senga emaslar mushtoq.  
Kech boʻlganda qaytasan arang,  
Vijdoningni qoʻzgʻaydi qishloq.

Oʻsha daraxt yoniga kelib,  
Mashinadan tushib qolasan.  
Sumkachangga tuflingni solib,  
Kalishingni sekin olasan.

Chang koʻchalar meni eslatar,  
Koʻzyosh namlar sekin yuzingni.  
Oʻrinbosar yodingga tushsa,  
Oʻxshatasan menga oʻzingni.

Tuning oʻtar umrdan uzun,  
Tongni kutib, yigʻlaysan sim-sim.  
Otlanasan yana shaharga,  
Senga juda keladi rahmim!  
Senga juda keladi rahmim...



## *Senga nima?!*

Senga nima, ne qilgum,  
Ne bilan ovoraman,  
Istasam, gul umrimni  
Havoga sovuraman.  
Yuragimni shart yulib,  
Tovada qovuraman,  
Senga nima?!

Har kuni mingta qizga  
Gap otaman, boqaman,  
Bilib turib qalbimni  
Olovlarda yoqaman.  
Ko'nglimni tumor qilib  
Bo'yinlarga taqaman,  
Senga nima?!

Zaminni mulzam qilib,  
Yig'lataman osmonni,  
Yerni ag'daraman, so'ng  
Qulataman osmonni.  
Oshiq ahli kechirmas,  
Balki, menday nodonni,  
Senga nima?!

Hech kimning bo'la olmay,  
Bo'ldim begona kishing,  
Senga tegmas ziyonim,  
Uchmasin sira hushing.  
Sevgan – menman, kuygan – men,  
Bo'lmasin sening ishing,

## *Mening ko'nglim tog'da qoldi...*



\* \* \*

Kimnidir izlasang sababsiz hargiz,  
Yo'lga sababsiz ko'z tiksang mushtoq.  
Salom deb qo'llarin tutib, ul nargis –  
Lablardan so'z kutsang besabab mutloq.

Nozik kiftlaridan tutsang besabab,  
Besabab yo'lma-yo'l tilasang majlis.  
Bir shirin xushxabar kutsang besabab,  
Yer chizib jilmaysang hech bir sababsiz.

Men ham yer qidirgan kemaday qalqib,  
Bir go'zal qoshiga o'zni uraman:  
U butkul sevgimdan bexabar balki,  
Men butkul besabab yaxshi ko'raman.

**Mansur Jumayev** tarjimasi

\* \* \*

Mening ko'nglim tog'da qoldi,  
Zominda –  
soylarni yoqalab,  
tog'lar oralab.  
Tiniq tuyg'ularni, mo'l hayajonni  
tashlab keldim kirdan, darddan tozalab.

O'rikli soy yo'li esimdan chiqdi,  
balki, topolarman tushimda har tun!  
Ko'nglimdagi darddan qutulmoq uchun  
Zominga she'r bilan borishim mumkin!

Xush qol, o'zligimni anglatgan tog'lar!

**Parizoda Ro'ziboyeva** tarjimasi

**Bazarbay  
JOLDASBAYEV**

1997-yili tug'ilgan.  
Berdaq nomidagi  
Qoraqalpoq davlat  
universiteti  
magistranti.  
Respublika yosh  
ijodkorlarining  
Zomin seminari  
ishtirokchisi  
(2021).



**Sitorabonu  
SHOMURODOVA**

1992-yili tug'ilgan.  
O'zbekiston Milliy  
universitetini tamomlagan.  
Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi  
(2021).

*Borsang salom o'ynab o'sgan ellara,  
Ko'qamishim mazgil joyim cho'llara...*

**Oybarchin**

\*\*\*

Qushlar, salom ayting Samarqandima,  
Nelar uchun bul hijronga ko'ndim-a?  
Hech bir malham topolmadim dardima,  
Nelar izlab bunda kelgan gadoman?

Ona, nega berib qo'yding Shoshlarga?  
Yo'llar yo'qdir, ko'p to'qishdim toshlarga,  
Yuragimni muzlatdi-ku qishlari,  
Sozlangan-u, chalinmagan satoman.

Sendan qochib, senga bekindim, yohul!  
Ishqdan aytma, ko'ngil – yarador ohu,  
Qo'lingga qo'l bermay adashdim, chog'i,  
Sochimdan timog'im qadar xatoman.

Uchar qushlar, boringiz Urgutima,  
Mening dilim qolib ketmish yurtima...  
Qo'ling bergin, ko'kayimni o'rtama,  
Men senga Haq atab bergan atovman!

## *Ishqdan aytma, ko'ngil – yarador ohu*

### *Sen kelding*

Sen kelding, ko'zimda gulladi bahor,  
Qalbidimda qiqirlab qo'ydi yalpzilar.  
Yaldolar kun bo'ldi, shom esa sahar,  
Kulgi lablarimdan boshpana izlar.

Sen kelding, kaftingda eridi g'amlar,  
Dovud ilkidagi temir singari.  
Mehrimg olovidan o't olgan shamlar,  
Yo'limni yoritdi mendan ilgari.

Sen kelding yonmoqqa shavq bo'ldi bois,  
Ibrohim olovin rohatin tuydim.  
Har bir sharorimdan gul ochdi ildiz,  
Ishqing sajdasi boshimni qo'ydim!

Sen kelding!

Sen kelding!!

Sen kelding!!!

\*\*\*

Eshiklarni qulflab qo'yaman,  
Kelganida kirolmasin deb.  
Sog'insin, o'rtansin va yonsin,  
Biroq meni ko'rolmasin deb.


Necha yilki, eshik sukutda,  
Taqillatmas uni biror kas.  
Sen kelganing bilmay qolmay deb,  
Uxlamadim hatto bir nafas.

Faqat kutdim eshikka kelib,  
Ochgil deya, yolvorishingni...  
E, voh, bugun supurib oldim.  
Ostonada qolgan ishqimni...





## «Muhabbat bu manim ochgan, vale yopmas kitobimdir»



**Laylo HASANOVA**

1991-yili tugʻilgan.  
Oʻzbekiston Milliy  
universitetini tamomlagan.  
Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi.

Sitorani koʻpdan beri taniyman. Uning kechinmalari his-tuygʻulari, tafakkur olami, dunyoni qabul qilishi menga biroz boʻlsa-da tanish. Uning yonib-kuyishlari, kuyunchakligi, begʻubor qalbi, samimiyati va fikrlarini keskin, qoʻrqmasdan ifoda eta olish jasorati yana bir mavzu...

Buni taʼkidlashni joiz deb bilganim... Adabiyotshunoslikda asarni avtobiografik nuqtayi nazardan oʻrganish, yaʼni ijodkor shaxsiyatini bilish orqali asar mazmuniga kirib borish masalasi mavjud. Mazkur maqolada shu yoʻldan borishni joiz deb topdik.

Mumtoz adabiyotning bilimdoni, bugungi kun uchun kamyob hodisa boʻlgan gʻazal janrining taraqqiyotiga hissa qoʻshayotgan, uning gullab-yashnashi uchun tomirlarida jon suvini yurgizayotgan jasoratli shoira. Bu janrda ham mazmun va shaklni teng tarozi pallasida olib borish mahorat, mumtoz adabiyot namunalaridan teran xabardorlik va keng tafakkurni talab etadi.

Mumtoz adabiyotda musajja g'azal mavjud bo'lib, g'azalning bu turi yuksak bilim va iste'dod sohiblarining ijodida uchraydigan alohida hodisa. Sitoraning she'rlarida ham ayni shu hodisaning guvohi bo'lish bir qadar shoiraning darajasi haqida kerakli xulosa qilishimizga zamin yaratadi.

*Tongim qaro, shomim qaro,  
bul ishq aro devonaman,  
Devonalig' ham bir balo,  
otash ichinda yonaman.*

*Sen kelmading diydor uchun,  
Majnuni xasta xor uchun,  
Boshimni tutdim dor uchun,  
vasling tilab hayronaman.*

*Aksing erur yer-u falak,  
ishqing etar dilni halok,  
Bir sen uchun ins-u malak  
ichra mudom vayronaman.*

*Vasling sharobin ichmadim,  
bir lahza sendan kechmadim,  
Ey sen, musohib, sen nadim,  
lafzing kutib to'lg'onaman.*

*Savdolaring boshim egar,  
Hajring tuni yoshim to'kar,  
Ko'ldir qaroq, qondir jigar,  
yoding bilan uyg'onaman.*

*Zikringga til go'yo bo'lib,  
vasling shirin ro'yo bo'lib,  
Sen deb yashab, Sen deb o'lib,  
kavnayn aro sarsonaman.*

*Kutmish Sitora intizor,  
ko'nglim, ko'zim, jonim nisor,  
Hajring aro vaslingga zor  
oshiq o'zim, bir donaman.*

Musajja g'azalda bayt to'rtta teng qismga bo'linadi hamda avval uchta kelgan qismlar o'zaro qofiyalanib, so'nggi qism asosiy qofiyaga

ergashgan holda ohangdoshlik hosil qiladi. Alibek Rustamov "Mumtoz badiiyat lug'ati" kitobida g'azalning bu turiga ta'rif berar ekan, musajja usuli g'azal ohangdorligini g'oyatda kuchaytirib, unga ayri-ayri joziba va latofat bag'ishlashini ta'kidlaydi. Shuningdek, g'azal baytlarining kam-ko'stsiz rajazi musammami solim vazniga to'la mos kelishi ham bugun e'tiborga molik hodisalaridan deya baholashimizga asos bo'ladi.

Zabardast olim Bahodir Karimov ma'ruzalarida har bir harfning o'z rangi bor deya ta'kidlagan edi. Shu kabi tovushning tuyg'ularni ifoda etish shakli ham mavjud. "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning "o'si ohni, "d'si dardni ifoda etgani singari mazkur g'azalda tavze' hosil qilgan "o" tovushi lirik qahramonning ishq o'tidan olovlangan ohlarini ifoda etadi.

*Tongim qaro, shomim qaro,  
bul ishq aro devonaman,  
Devonalig' ham bir balo,  
otash ichinda yonaman.*

Shu baytning o'zida yana radd, tazod kabi badiiy san'atlar borligi ham uning badiiy qimmatini oshiradi. Ishq o'tida yonayotgan oshiqning ruhiy holati o'quvchi ruhiyatida akslanishi ifodalarning yuqumli ekanligini dalillaydi.

Quyima misralar ilhom shitobi bilan tizilgan; hislarga erk berib, ruhning har puchmog'ida qolib ketgan qadim tuyg'ularni uyg'otib o'qiladigan asar. Muhabbat sharobidan bahramand bo'lgan, uning ko'yida ruhi tozargan ijodkorning qalb nolalari bu.

Sitoraning yana bir g'azalida ham ishqning ahamiyatini, qalb uchun zaruriyatini tirik obraz shaklida husni ta'lilga solganini ko'rishimiz mumkin.

*Ayo do'stlar, bu dunyoda  
ishqdan dardli dard yo'qdir,  
Bu olamda anosi yo'q yetimdek ro'yi zard yo'qdir.*

Ko'rinadiki, g'azallarida ishq, dard, jununlik va firoy yetakchi motiv sifatida ko'zga tashlanadi. Tasavvuf she'riyatini teran anglagan adabiyotshunos sifatida bu yetakchi unsurlarning majoziy mazmunda o'z o'rnida qo'llay olgan. Uning otashin,

nozik hislarni nomma-nom ayta olish iqtidori ham tahsinga loyiq. Masalan, "Muhabbat bu manim ochgan, vale yopmas kitobimdir..." deya boshlanuvchi g'azalida ham buning ifodalarini ko'rishimiz mumkin.

*Jununlik tushdi bu jonga,  
yurak to'lmish qaro qonga,  
Tasanno aytsam imkonga, ajab,  
diydor sarobimdir.*

*Mushavvash bo'lmakim,  
bu dard mening-chun obi hayvondir,  
Agar u yo'q, u dunyo-yu  
bu dunyo ham xarobimdir.*

*Sitora tots'a o'ldurgay,  
bu maydin totmasa, o'lgay,  
Muhabbat, bu no'sh  
etmasdan xumor etgan sharobimdir.*

kabi misralarda ham majoziy obrazlarga tasavvufiy mazmun yuklaydi hamda ishqning

naqadar buyuk va naqadar zalvorli ekanligini ifoda etadi. Ishqning bir tomiri vatan tomirlari bilan tutash muhabbatning bir ta'rifi vatan ekanligini, dunyoda arjumandlar ichida eng a'losi ekanligini Sitora shu tarzda bayon etadi:

*G'aribdek orzumand yo'qdir,  
Gumondek badkamand yo'qdir,  
Azizim, ikki ochunda  
Vatandek arjumand yo'qdir!*

Shunday! Ba'zan izlangan oltin sening tevarak atrofingda, ammo nigohingdan nari qolaveradi.

Vatan, muhabbat, ishq, dard, jununlik kabi ifodalarning asrlar osha ta'rif-tavsifining nihoyasi yo'q, ehtimol, kelgusida asrlar bu mavzuga nuqta qo'yishi ham dargumon. Har yurakda yangilanadigan bu tuyg'ular Sitoraning she'rlarida ham o'z shakli, rangi va ohangida o'zgacha tovlangani – bu yangi ovoznining qadim uslublardan topgan ohanrabosi bo'lib adabiyotda akslanadi.



**Muqaddas  
TAYLANOVA,**  
Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi  
(2021).

## *Ruhiyati baland ijodkor*

Ijodkorga ko'p narsa kerak emas, aslida. Ijodiy kayfiyat ulashuvchi ona tabiat tarovati va qalbdoshlari bo'lsa bas. Zominda yangragan qalb so'zlari to'rt kun davomida sersavlat tog'larni, yugurik jilg'alarni o'ziga muxlis qildi, go'yo. Menimcha, u har yili ijodkorlarni intizorlik bilan kutadi. Go'yoki u ham bizga yomg'iri, quyoshi, bulutlari va shamoli bilan qo'shilib she'rlar aytadi.

Zomin badiiy asarni haqiqatan badiiy qilib tarjima qilishga ilhom beradigan go'sha... Ruhiyati baland ijodkorlar, sertabassum va jonkuyar ustozlarimiz bilan o'tgan to'rt kunimiz xotiramizda qolajak...



**Humoyun FATTOH**

*2000-yili tug'ilgan.  
Farg'ona davlat universiteti  
Filologiya fakulteti talabasi.  
She'rlari turli nashrlarda  
chop etilgan. Respublika  
yosh ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi (2021).*

## Bu oqshom

Uchrashsak keng, g'arib ko'chada,  
Ko'rishsak to'lganda paymona,  
Bir yupanch axtarib kechadan,  
Kezarmiz malak va devona.

Qarasang, bu oqshom oy to'lgan,  
Ul tomon burqsiydi sigorim...  
Quloqqa pichirlab aytilgan  
She'rlarni yozib ol, nigorim.

Yo'qolgach sog'inching mazmuni,  
Botining kulgilar otmasmi,  
Yig'lama, ko'zlari mahzunim,  
Samoning yig'lashi yetmasmi?!

Feruzanglarga burkanib  
O'ptirsa bir malak mastona,  
To'lsa-da dunyoning bir kami,  
Bu dunyo – ostona, ostona...

Qarasang, bu oqshom oy to'lgan,  
Ul tomon burqsiydi sigorim.  
Quloqqa pichirlab aytilgan  
She'rlarni yozib ol, nigorim.

\*\*\*

Hammadan ertaroq uyg'onib qo'ydim,  
Ko'zlarin ishqalab yotganda tonglar,  
Yozlarda sovqotib, qishlarda kuydim,  
Balki, xato qildim hayotni anglab.

Qaysi odam bog'ni xushlamas, deysiz,  
Hech kirgim kelmaydi za'faron bog'ga.  
G'amgin chinorlarga termilib o'ysiz,  
Har kun derazadan boqqanim-boqqan...

Baxtiyor olamda yuribman mulzam,  
Etagin silkigan darveshlar kabi.  
Ko'nglimda dunyoni ko'targan bo'lsam,  
Nega og'ir botar bir qizning gapi?!

Sochaloq qilishdi ko'ngil mulkimni,  
Eng toza hislarni o'rtaga surib...  
Mo'ysafid dardini chekish mumkinmi,  
Hali yigirmaga kirmasdan turib?!

## Qaytgunimcha

Yig'lamay turgin,  
Olib borma umidni dorga.  
Sog'inchingni etarman surgun,  
Mahzunliging bo'lar badarg'a.

Mustamlaka bo'lib gina, kek,  
G'amdand ozod bo'larsan yana.  
Tunda quvongani kabi ko'k,  
Quvonarsan ko'zlaring yona...

Atrofingga o'rnatib halqa,  
Seni ta'qib etgan hislarni  
Yo'q qilaman, butun bir xalqqa  
Zulm qilgan dohiy singari...





**Shamshoda  
HAMDAMOVA**

*1996-yili tug'ilgan.  
Buxoro davlat universitetining  
Filologiya fakulteti  
magistratura bosqichini  
tugatgan. Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi (2021).*



## Zominda yozilgan she'r

Bizlar ko'rgan Zomin zaminlarida  
Ilhomlarga to'la tog'lar-u qirlar.  
U yerning soylari so'ylar hikoya,  
U yerlarda yog'ar nazmiy yomg'irlar.

U yerda kelajak quyoshlari-yu  
She'riyat tongining cho'lponlari bor.  
Unda alisherlar g'azallar bitib,  
Unda nodiralar o'qiydi ash'or.

Zominning sharqiroq soylari kabi,  
Tugamas sertoshqin dillar ilhomi.  
U yerning tonglari she'r bilan otib,  
Mushoira bilan botadi shomi.

## Yuragimiz bo'lsin ishqning ummoni...

### Shunday yashaylik

Shunday yashaylikki, tole tongida  
Baxtdan kulib boqqan oqtoq bo'laylik.  
Osmon orzularning oydin rangida  
Mehrnga belangan mohtob bo'laylik.

Shunday yashaylikki, qalbimizdagi  
Sevgimiz yashnatgan gullar so'lmasin.  
Ilohim, hech qachon o'rtamizdagi  
Muhabbat, sadoqat, ishonch o'lmasin.

Shunday yashaylikki, bir-birimizni  
E'zozlab, ardoqlab, sevaylik yonib.  
Baxtiyor aylaylik bu umrimizni,  
Har bir kunimizdan yayrab, quvonib.

Shunday yashaylikki, yashnab yuraylik,  
Hayratdan lol qilib ko'hna dunyoni.  
Muhabbatdan shunday oshyon quraylik,  
Yuragimiz bo'lsin ishqning ummoni.

Shunday yashaylikki, mehr silasin  
Aziz boshimizni har bir soniya.  
Mayli, yelkamizga osmon qulasin,  
Baxtliman yonimda sen borsan deya.

Shunday yashaylikki, Olloh siylasin,  
Baxtga, muhabbatga qonib, azizim.  
Olov sevgimizni olam kuyulasin –  
Biz shunday yashaylik yonib, azizim!

# Zomin kundaligi



**Otabek ISROILOV**

1999-yili tug'ilgan.  
O'zbekiston Jurnalistika va  
ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti talabasi.  
Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi (2021).

## Hayrat

Tog' xushomadni yoqtirmaydi, shuning uchun ham uning viqori ko'rganlarni hayiqtiradi, hayratga soladi. Tog'ning qalbi pokiza, inchunun ham g'ubordan xoli qorlar tog'ni mangu makon tutadi. Tog' shunday sofdilki, ona zaminga armug'oni bo'lgan uning irmoqlari yerni yashnatadi, unga hayot baxsh etadi. Zomin tog'larida, O'rikli soy balandliklarida halol, pokiza, sofdil yosh qalamkashlarga "oq yo'l" tilash yaxshi an'anaga aylanganki, uning hosilasi adabiyotimizning yangi ovozlari da voqe' bo'lyapti. Aslida, bularning hammasi – hayrat. Shoir yozganidek:

*Daryolar guvillab chopar dengizga,  
Qushlar xayolingni zavqqa o'raydi.  
Zamin mo'jizalar berar-u bizga,  
Evaziga faqat hayrat so'raydi.*

Zomin, O'rikli soy mehribon volida misoli bizni o'z bag'riga olganida, tog'liklarga barobar hayrat ham bizni o'z og'ushiga olgan edi. Ushbu kundaligim Zomin seminaridan yorug' nur bo'lib qolsin!

## Birinchi kun

Atrofni kuzatish maroqli. Ayniqsa, u senga notanish maskan bo'lsa. Javonibga suqlanib qaraysan va O'rikli soy betakror tabiati, sharqirab oqayotgan yaxdek suvlari bilan xush kayfiyat bag'ishlaydi. Kechki O'rikli soy bilan tanishuv yakuniga yetgach, hamxonalar bilan tanishish gali keldi. Oromgohdagi 6-xonani besh qatnashchi band qildik: ikki shoir, ikki musavvir va kamina. Ularni bir-bir tanitsam:



yangiyoʻllik shoir Oybek Akbarov, Bekobod tumanidan – Erkinjon Hojimatov, rassomlar – Akmal Rasulov va Jasur Abrayev. Bu insonlardan samimiyat balqib turadi. Ehtimol, shuning uchundirki, ularga hurmat bilan qarayman doim.

Kechki tamaddidan soʻng mushoirada qatnashdik. Eʼtiborli jihati, shoir akamiz Botirjon Ergashev bu anjumanning koʻtarinki ruhda oʻtishi uchun koʻp ter toʻkkani sezildi. Hamkor tashkilotlar tomonidan anʼanaviy qoʻshiq ijrochilari, bastakorlar, kinematografiya sohasi yosh ijodkorlari, rassomlar – kitobat sanʼati yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalardan iborat ijodiy guruhlarining ishtiroki taʼminlangani hazilakam gap emasdi. Demoqchi boʻlganim, mushoirada faqat sheʼr oʻqilmadi – sheʼriyat kechalari nazm-u navo oqshomlariga aylandi. Ochigʻini aytish kerak, Oʻrikli soy oromgohida hordiq chiqarayotgan boshqalarga ham bu oqshomlar manzur keldi, katta taassurot qoldirdi, madaniy zavq ulashdi.

Ayrim davralarda quloqqa chalinadiki, och qoringa adabiyot kerak emas, degan gaplar. Yoʻq! Qalb uygʻoq boʻlsa, adabiyot har yurakka kerak ekan. Tun yarmidan oqqan esa-da, Zominning etni junjiktiruvchi salqin havosida sheʼr eshitgan yurtdoshlarimizni kuzatib, bunga shohid boʻlgan kamina shu soʻzni aytadi. Shunday xulosa yasayman,

sahnada Oʻrikli soyini toʻldirib, yosh hofiz Rustam Yigitaliyev berilib tor chertar edi.

5-iyul, 2021-yil

## *Ikkinchi kun*

Bu yilgi Zomin seminarining badiiy publitsistika yoʻnalishida ishtirok etib, amin boʻldimki, Oʻrikli soyda “oq fotiha” olgan pokqalb yosh ijodkorlar nafaqat adabiyotning umidiga, balki millatning ishongan togʻi va haqparvar jarchilariga ham aylanadi. Ular safida bor ekaningning oʻzi shodlig-u quvonch, oʻz navbatida – masʼuliyat.

Biz – yosh publitsistlarga Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzolari: Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist Ahmadjon Meliboyev, filologiya fanlari nomzodi Toʻlqin Eshbek va “Madaniyat va maʼrifat” telekanali direktorii, shoir Vohid Luqmonning mahorat darslaridan bahramand boʻlish nasib etdi.

– Jurnalistika, bu – aniq raqamlar, aniq tahlil. Masalan, bu yerda bir bino bor, deb tasavvur qilaylik. Oʻsha bino birdan qulab tushdi. Endi shu voqelikni yoritish kerak. Ijtimoiy tarmoqlar falon joyda bir bino quladi, jarohat olganlar va halok boʻlganlar bor, deb xabar beradi. Bu hodisani televideniye koʻrsatsa, binoning qulayotgan vaqtini namoyish eta olmaydi. Televideniye voqea sodir boʻlganidan soʻng keladi. Agar jurnalist bu holatni yoritmoqchi boʻlsa, bino nima sababdan qulab tushganini aniqlashi, yoritishi va tahlil qilishi kerak. Jurnalist aniq fakti yozishi lozim.

Mana bu olma daraxtining uchidagi mevalarga eʼtibor bering. Bu yerda katta falsafa bor. Jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni shu holatga oʻxshatish mumkin. Daraxtning tagiga suv quysangiz, hosil kattalashaveradi, lekin vaqt oʻtib mevalar zalvori shoxni sindirib yuborishi mumkin. Demak, odam oʻz oldiga maqsad qoʻysa, bir meʼyorda ketishi lozim. Birdan odam bilimdon boʻlib qolmaydi, asta-sekinlik bilan oʻsib boradi. Jurnalistning uchta



ko'zi, uchta qulog'i bo'lishi kerak, – dedi ustoz Ahmadjon Meliboyev.

Tajribali publitsistlardan o'rganganlarimiz shu bo'ldi: ijodkorning qalbi pok bo'lsa, uning asari ham pok bo'ladi, tabiiyki, pokizalikdan bahra olgan adabiyot muhibi-da halollik, oqko'ngillik, odamiylik kabi fazilatlar sari odimlaydi. Aslida, so'z ham pokiza ne'mat. Uning uvolini bilish, isrofdan tiyilish kerak. Nur nurdan yorug'lik olgani kabi pok so'zdan poklik taraladi. Shu jihatdan yondashilsa, bugun jamiyatga sof asar-u sof axborotni yetkazish kerak. Axir, Erkin Vohidov bejiz yozmagan-ku:

*– Istasang toza ko'ngilga  
qo'nmasin zarra g'ubor,  
Pok so'z-u pok ish va pok dil,  
pok xayol bo'lmoq kerak.*

Mahorat saboqlarida Ahmadjon Meliboyev to'g'ri ta'kidladi: o'tgan asrning 90-yillari publitsistikasi ehtiroslar asosiga qurilgan edi. Bugungi kun o'quvchisi esa hissiyotni emas, dalillarni talab qiladi. Shunga binoan aytilsa, bugungi davr tahliliy publitsistik asarlar yaratilishini taqozo etadi.

Suhbatlarning davomida bu haqiqatga yana bir karra iqror bo'ldik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyati bo'limi muassisligidagi "Adabiyot ziyosi" gazetasi bosh muharriri

o'rinbosari, shoir Zohidjon Olov bilan o'rindiqda suhbat qurar, shuning barobarida ona tabiatning pokiza tabiatidan hayronligimizni yashirmay ifoda etar ekanmiz, olam bag'ridagi odam bolasi ham pok bo'lishi kerak, degan xulosa yasadi. Haqrost, Zohidjon aka aytganidek, dard ko'chirma bo'lmasligi kerak. Agarda dard nusxalandimi, ijodkorning qalamidan to'kilgan asar ham takror bo'lib qoladi. O'z navbatida, dard ham porloq, nurafshon bo'lishi lozim.

6-iyul, 2021-yil

## Uchinchi kun

O'rikli soyning tanga huzur bag'ishlovchi kunlari davom etyapti. O'rikli soy tabiati she'r tinglashda bardavom. O'zbekiston xalq shoirlari – Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Enaxon Siddiqova boshlab bergan mushoirani Faxriyor, Nodir Jonuzoq, Orif To'xtash, Xosiyat Rustamova davom ettirdilar. Zomin tog'lari bilan birga viloyat hokimi Ergash Soliyev, viloyat hokimi o'rinbosari Furqat Jo'raqulov; viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, general-mayor G'ayrat Qodirov ham she'r sehrini tuydilar.

Tushlikdan so'ng Zomindagi sharsharaga ekosayohat uyushtirdik. Sharshara O'rikli soydan besh-o'n chaqirim yuqorida ekan. Tayin qilingan vaqtdan kechikib, attang qilib qoldik. Seminar qatnashchilarini olib, avtobus yonginamizdan o'tdi-





ketdi. Qizig'i, xonadoshlarimizdan Oybek Akbarov, Jasur Abrayev va Erkinjon Hojimatov avtobusda edi. Akmal aka bilan achchiq qilib, ortga ham qaytmoqchi bo'ldik. Ortga o'girilganimiz hamono o'n chog'li ishtirokchilar bilan adiba Ma'mura Zohidova va shoira Mahfuza Imomova kelar edilar. Na iloj, ular bilan piyoda yo'lga tushdik. Har narsa maromida, rejadagidek bo'lsa, hayotning qizig'i qolarmidi? Yurgan sog'liqqa foyda, deya yuqorilay boshladik. Yo'l-yo'lakay Mahfuza Imomova va boshqalarni taksilarga o'tqazib yubordik. Eng oxirida Ma'mura opa, Akmal aka va men yarim chaqirim yo'lni piyoda yurdik. Axiyri, bir "Jiguli" to'xtadi. Sharsharagacha eltib qo'yadigan bo'ldi.

Haydovchi qavmi azaldan shunday – gappa chechan, gapdon.

– Zamon o'zgardi, – luqma tashladi haydovchi.

– Zamon joyida... Odamlar o'zgargan, – deya "kirakash"ning fikrini inkor qildi Ma'mura opa.

Haydovchi inkorni inkor qilib, tag'in so'z aytmoqchi bo'ldi, biroq o'qilgan she'r uni tappa to'xtatdi qo'ydi:

– *Ja o'zing ham yaxshisan,  
Yomoni yomonlama.  
Menga qara, ey odam,  
Zamoni yomonlama.*

...*Ey odamzod zuryodi,  
Tasodifning bunyodi,  
Zamon – Xudoning oti!  
Zamoni yomonlama.*

Sharsharani ko'rdik, suratlarga tushdik, muharrirlar bilan yaqindan tanishdik... va O'rikli soyga qaytdik. Kechki taomdan so'ng, odatdagidek,



nazm-u navo kechasi bo'ldi. Endi davrada Shuhrat Daryo sel bo'lib kuylardi.

7-iyul, 2021-yil

## To'rtinchi kun

Ibtido borki, intiho bor. Bu yilgi Zomin seminari ham nihoyalay boshlagandi. Taqdirlash marosimi, hayajonli taassurotlar bayoni, gul-gul chehralardan to'kilayotgan tabassumlar... hammasi O'rikli soyning o'riklariga qaytadan o'rik gullarini taqqandek edi.

Seminarining ilk kuni katta qiziqish, ishtiyoq bilan tanishganimiz – O'rikli soyning past-u balandliklari, tol-u archalari, shabboda-yu soylari endi notanish emas, bil'aks, bo'lakcha qadri. Qani endi bu zamin bag'ridan uzilmasangiz! Ha-da, to'rt kun ichida bu yerda hazilakam hodisalar bo'lmadi, deysizmi? Qanchadan qancha mushoiralar, nazm-u navo kechalari, qalamdoshlaring bilan tortishuv va bahs-u munozaralar, eng muhimi, do'stlik rishtalariga, ijodiy hamkorlik aloqalariga beshik bo'lgan bu maskan yoshlikning, umr bahorining so'lmas o'rik guli bo'lib mangu qoladi.

8-iyul, 2021-yil



**Isajon SULTON**

## Badiiy tafakkurning yangi shakllari

Zomin seminari mamlakatda kitobxonlik madaniyatini oshirish, ilm-fanga va yoshlarga bo'lgan e'tiborning yangi bosqichga ko'tarilganligi bilan hamohang. Davlat madhiyamizdagi "Yashnagay toabad ilm-u fan, ijod" degan hikmatli so'zlar "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" degan ezgu g'oya ostida bunyod etilayotgan yangi O'zbekistondagi yaratuvchilik va bunyodkorlik ishlarini, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyatini, undan ko'zlangan maqsadlarni to'la namoyon etadi.

Jamiyatdagi tub yangilanishlar va tafakkurning yangi ufqlariga intilish nuqtayi nazaridan qaralganida, bugungi kun yoshlarining shuuri avvalgilaridan farqlanishi tabiiy, albatta. Misol keltiradigan bo'lsak, yoshlar oldida yangi manzillar namoyon bo'ldi. Ularning hayotiga yangi fanlar kirib keldi, biotexnologiyalar, SMM, innovativ yo'nalishlar, aerokosmik bilimlar, molekulyar genetika kabi sohalar qo'shildi. Dunyoda keng avj olgan pandemiya ofati fundamental fanlarga bo'lgan talabni kuchaytirishi bilan birga, badiiy ijodda ham muayyan o'zgarishlar sodir qildi. Global falokatlar vaqtida inson shaxsiyati, uning o'lmas ruhi, aql-u zakovati va irodasi eng ulug' va aziz qadriyat bo'lib ilg'orga chiqdi.

Shu sabablarga ko'ra, Zomin seminari qatnashchilari qo'l urgan mavzular ham zamonaga mos va rang-barang. Yoshlarning davrga xos

fikrlashga, badiiy tafakkurning yangi shakllarini topishga intilishlari yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

Bevosita nasr yo'nalishidagi yoshlarimiz ijodini yozuvchilar bilan birgalikda tahlil qildik. Samarqandlik bir qizimiz durustgina roman yozibdi, asarida keng ko'lamli epik tafakkur uchqunlari sezilib turibdi. Yana bir qizimiz Charos Avazovanning mashqlarida ramziy reallik talqinlari ko'zga tashlanadi. Andijonlik Firdavs Shokirovda falsafiy fikrlashga moyillik bor, Iroda Bekmurodova asarlari esa kutilmagan yangi topilmalari bilan diqqatni jalb qiladi. Xullas, har birining o'ziga xos olami, shu olamdagi ijodkor o'zlikni namoyon etishga intilish bor.

Zomin seminarining shiori ustozlarning ham, yoshlarning ham ezgu niyatlarini yaqqol ifodalaydi: "Yosh ijodkorlarning mustaqil Vatani adabiyotiga Jizzax diyorida qo'yayotgan qadamlari qutlug' bo'lsin!" Ya'ni qalbida yashiringan iste'dodni ro'yobga chiqarish, ustozlardan ta'lim olish bahobarida o'z asarlari bilan xalqqa va Vatanga xizmat qilish, o'z millati tafakkur qudratini olamga tarannum etishday katta bir yo'lning debochasi hamdir. Ushbu sharafli yo'l esa, davlat madhiyamizning yuqorida tilga olib o'tilgan chuqur mazmunli misralari bilan jo'rovozdir:

*Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!*



# Notanish siyrat

Hikoya



**Shukurullo  
AHMEDOV**

2000-yili tug'ilgan.  
Qarshi davlat  
universitetining O'zbek  
filologiyasi fakulteti  
talabasi. Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminar ishtirokchisi.

U ni qachon uchratganligimni aniq eslay olmayman. Shunisi ayon ediki, u shiddat bilan o'tayotgan kunlarimning birida hayotim kengliklarida paydo bo'lgandi. Biz mamlakatdagi eng nufuzli universitetda o'qirdik. Bu yerda do'stim ikkimiz barcha ilmlarni o'zlashtirishga harakat qilardik, hatto adabiy davralarda professor bilan ham bahslashishgacha borib, ba'zan ularni aniq fakt va noyob isbotlar bilan mum tishlaganday gapirtirmay qo'ysak, talabalar bizga mubham nigohi bilan boqishardi. Biz esa o'zimizni gap-so'zlarga beparvo tutardik. Faqat men kunini eslay olmaydigan o'sha kungacha, hayotimiz, nazarimda, bir maromda kechayotgan edi.

Har kungidek o'zgacha shukuh bilan oliygohga yo'l olar ekanman, ichkaridan shosha-pisha do'stim chiqib keldi. Uning yuzidan ter quyilardi, qiyofasi xuddi sizga biron-bir sir-sinoatni aytmoqchi bo'lgan odamning chehrasiga o'xshardi.

– Guruhimizga yangi talant kelibdi! – dedi do'stim ko'zlari allanechuk bejolanib.

– Kim ekan u? – dedim taajjubimni yashirmay .

– Auditoriyaga kirsang ko'rasan!.. – dedi u negadir menga emas, bino derazalariga ko'z yugirtirgan ko'yi.

Dabdurustdan hayron qoldim. Do'stim olamshumul xabarni odamlarga yetkazmoqchi bo'lgan amir zamonidagi jarchilarga o'xshardi. U

“yangi iste’dod” deb qulog’imga shivirlab aytar, aftidan, do’stim unga o’zini ko’rsatib qo’yimoqchi ekanini ko’zidan payqash mumkin edi.

Ma’ruza xonasiga qiziqish bilan kirib bordik. Do’stim ta’riflagan iste’dod deraza qarshisidagi stulda o’tirar, uning yuzlari negadir horg’in ko’rindi. Do’stim uning yoniga bordi-da, qo’l berib salomlashmoqchi bo’ldi. Notanish yigit esa unga ma’nosiz tarzda qo’llarini uzatdi. Keyin do’stim menga qarab, “O’zini katta olishini qara” degan alfozda lablarini beo’xshov burdi. Nega bu yigit o’zini bunday g’alati tutyapti ekan? Qayerdan paydo bo’ldi bu talaba? Darvoqe, uning aft-angoriga, o’sib ketgan sochlariga, kir tirmoqlariga, kiyilaverib g’ijim bo’lib qolgan qop-qora shimi va ko’p terlash oqibatida ko’kimtir dog’li ko’ylagiga nazar tashlagan inson borki, uni aslo talabalar safiga qo’sha olmasdi. Do’stim nega uni maqtaganiga hamon hayron edim. Yoki, men bilan hazillashmoqchi bo’ldimi? Xullas, savollarim ko’payib ketgandi. Butun dars davomida ham xayolim faqat o’sha notanish siyratda bo’ldi. Uning kimligi haqida aksiga olib hech kim biror so’z demas, bu esa bizning ichimizda savollarning paydar-pay qalashib ketishiga olib kelardi. U na gapirar, na jilmayishni bilar, ko’zlari ba’zan ertaklarda sehrlab qo’yilgan qahramonlarni yodga solardi. U shu darajada jim ediki, auditoriyadagi shovqin-suron ham unga ta’sir qilmasdi. Safdoshlar o’rtasida u haqda pichir-pichirlar avj ola boshlagandi. Eng yomoni, o’qituvchilar ham notanish talaba to’g’risidagi savollarimizga javob berishni xohlamas, hatto falsafa ustozimiz noo’rin va takror berayotgan savollarimizdan charchagani bois, bizni jerkigan, so’zamolligidan foydalanib, kafedrada rosa ikki soat ikkalamizning ortiqcha faolligimiz, atrofda har bir hodisaga aralashaverishimiz xayrli tugamasligini ham pisanda qilgandi.

Do’stim negadir notanish talaba haqida tinmay gapirar, u butun xayolini qamrab olgandi. Notanish yigit esa nuqul allaqanday ajnabiy til-dagi kitoblarni hafsalasiz varaqlab o’tirar, darslar boshlanib o’qituvchilar ma’ruzasini maroq bilan hikoya qilayotgan paytda ham u faqat kitobga termilganicha, ikki qo’lini iyagiga tirab olib xayol surardi. Do’stim bo’lsa uning bu xatti-harakatini

“oliftagarchilikning oliy ko’rinishi” deya istehzo bilan qulog’imga pichirlar, unga bo’lgan qiziqishi kun sayin kuchayib borardi.

Bir kuni darslar poyoniga yetgach, universitetning ko’rimsizgina oshxonasiga yo’l oldik. Bu yerda shohonalik degan so’zni oshxonadagi barcha taomlarga va jihozlarga nisbatan antonim tarzda qo’llasa bo’lardi.

– Anavi olifta qayerdan bizning universitetga kelib qoldi? O’ylab o’yimga yetolmayapman, – dedi do’stim qahvadan bo’shab qolgan stakanni stolga qo’yib.

– Eng qizig’i va menga alam qilayotgani, u haqda o’qituvchilar nega og’iz ham ochishmayapti? Men bunda boshqa bir sirli va g’alati hodisa yashiringan degan qarorga keldim, do’stim. Mavhumlikning ortida har doim ulkan ma’no bo’ladi. Bu ma’noni keyinchalik tushunib yetganimizda miyig’ida bir kulib qo’yishimiz mumkindir, ehtimol. Lekin aniq bilaman: bu jaryonlarning ortida cheki-chegarasi yo’q haqiqatlar pinhona...

Do’stim ayni damda barmoqlarini tinmay qisirlatar, og’iz juftlaganda xuddi detektiv kinlardagi qahramonlarday atrofga olazarak boqqancha pichirlab gapirardi. Uning bu shivirida jon bor edi, albatta. Inchunin, yonimizdagi stollarda talabalar, kafedraning yoshroq o’qituvchilari ham tamaddi qilish bilan andarmon edilar. Biroq shunga qaramasdan u bu talabaga ortiqcha urg’u beryapti, sababi u ham boshqalarga ko’p-da o’xshamas-da, hammamiz qatori bir inson edi.

– Ko’p kitob o’qiyverib hayotni ham badiiy asarlarga aralashtirib yuborayapsan, do’stim, – dedim uning yuziga tikilganicha. – To’g’ri, o’sha talabani yaxshi bilmasman, ammo uning g’ayritabiyligiga ham endi ishonmayman. U ham bizdek ilm yo’lida mashaqqat chekib yurganlardan bo’lsa kerak. Ortiqcha e’tibor berishning hojati yo’q.

– Do’stim, meni har kuni yuzlab savollar qiynaydi. Buni yaxshi bilasan. Shu savollarim qatoriga anavi nusxaning qo’shilganidan o’zim ham afsusdaman...

Shu onda bilmadim, osmondan tushdimi, yoki yerning tagidan chiqib keldimi, xullas, ang’lay olmay qoldim. Oshxonaga notanish talaba



kirib keldi-da, bizdan oldinroqda joylashgan stolga borib o'tirdi.

– Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi, – dedi do'stim menga qarab kulimsiragancha.

Uning yoniga oshxona bekasi darhol qovurilgan kartoshka bilan bir choynak choy keltirib qo'ydi. Notanish talaba oldidagi noz-ne'matlardan asta-sekin tanovul qila boshladi. Do'stim ikkalamizni ajablantirgan holat – birinchidan, notanish talabaning aft-angori va ko'rinishi bo'lsa, ikkinchidan, oshxona bekasining unga ko'rsatayotgan ortiqcha iltifoti edi. Notanish yigitning sochlari va soqollariga zamonaviy ko'rinishda oro berilgan, egnida yap-yangi kostyum-shim, oyog'iga ham e'tibor berdik: chiroyli va qimmatbaho tuflari kiyib olgan, qo'lida Benjamin Franklinning surati tushirilgan pullardan kamida besh-oltitasiga sotib olish mumkin bo'lgan bejirim soat, yonimizdan o'tayotganda dimog'imizga hidi darhol urildi: Yevropadan keltirilgan bo'lsa kerak – xushbo'y hidli atir ham sepib olgandi. Uning bir kunda bunchalik o'zgarib ketganidan do'stim bilan hayratda qoldik. Hali aytganimdek, yana bir kutilmagan jihati, bu oshxonaga kelganlarning barchasi, hattoki o'qituvchilar ham o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishar, ishtahasi nimani tusayotgan bo'lsa, o'shani tanovul qilishar, oshxona bekasi esa ulardan faqatgina pulni sanab olishni eplardi.

– Bekamiz uchun bugun quyosh mag'ribdan chiqqanga o'xshaydi, – dedi do'stim qo'lini iyagiga suyagan ko'yi unga termilarkan.

– Tush ko'rmayapmizmi o'zi, do'stim? – dedim notanish talabaga ko'z yugurtirgancha biroz hayajonlanib.

U ovqatini oxirigacha yeb tugatmasdan oshxona bekasi endi bir lagan palovni keltirib qo'ydi. Talaba “yo'q” degan ishora bilan qo'lini qimirlatgach, beka uning yonidan ovqatni istamaygina olib ketdi. Yo'l-yo'lakay bizga o'shqirib yubordi:

– Bir soatdan beri stolimni band qilib o'tirib-sizlar. Ketish niyatlaring bormi?

Biz avvaliga esankirab qoldik.

– O'tirsak pulini to'laymiz, – dedi do'stim keyin achchiqlanib.

Ochig'i, bekaning bunaqangi darg'azab muomilasidan biror bir ma'no ilg'ay olmadik. Bu izdi-

homda, qolaversa anavi talabaning ko'z o'ngida beka bilan tortishish ortiqcha ekanligini fahmlab yetdik (*aniqrog'i, bu taklif mendan chiqdi*).

Quyosh tobora qizdirib zabtiga olayotgan paytda bekatda avtobus kuta boshladik. Shu dam bizning ahvolimizdan xabardorday avtobus shiddat bilan keldi-da, bekatdan sal o'tib to'xtadi. Biz yugurib unga chiqib oldik-da, bo'sh o'rindiqlarga asta cho'kkaladik. Bu yer ham bizni hayrat komiga tortib ketdi: boyagina oshxonada tamaddi qilayotgan notanish siyrat ko'rinmas sharpa kabi paydo bo'lgandi. Do'stim: “U bilan suhbatlashishning ayni fursati”, dedi-da, talaba tomon odimlay ketdi.

– Og'ayni, yaxshimisiz? – dedi uning yoniga o'tirgach. (*Darvoqe, o'tirish ruxsati talaba tomonidan boshini qimirlatib qo'yish bilan berilgan edi*).

U lom-mim demasdan cho'ntagidan shu kunlarda olingani ko'rinib turgan qimmatbaho telefonni chiqarib nimalarnidir titkilay ketdi. Ochig'i, bu holdan biz endi ajablanmay qo'ygandik. Nahotki, u soqov bo'lsa? Bu xastalik unda azaldan bormikan? Nega shu narsa ikkalamizning xayolimizga kelmadi ekan deb turganimizda avtobus qo'qqisidan to'xtadi. Shunda notanish talaba darhol avtobusdan tushib zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– U haydovchiga yo'lkira haqini bermasdan ketdi, – dedi do'stim saqichini pufak qilib shishirarkan.

– Ko'rdim, – dedim ko'zlarimni avtobusning chang bosgan oynasidan uzmay...

Har qanday olamshumul voqea ham, yoinki, tarixiy hodisalar ham vaqti kelib e'tibor va e'tirofdan chetda qolishi turgan gap. Faqat bu yerda gap o'sha tarixiy jarayonning kimni yoki nelarni himoya qilganiga ham bog'liq bo'ladi. Yoki, goh achchiq bo'lsin, goh totli, baribir o'sha voqeliklarni adolat ko'zgisida aks ettira oladigan muarrixlar topilmas ekan, unda ming xayrli va savobli ishlarga umringni sarflaganing bilan befoyda. Shunaqangi bema'ni xayollarga berilib o'tirganimda ma'ruza xonaga falsafa o'qituvchimiz qovog'idan pag'a-pag'a qorlarni yog'dirib kirib keldi.

– Bugungi mavzuni hamma daftariga yozib olsin! – dedi professor doskaga mavzuni ko'chirti-

rar ekan, talabalarga buyruq ohangida dona-dona qilib, salmoq bilan topshiriq berdi.

Doskada "Haqiqat tushunchasi" degan yozuv paydo bo'lgandi. Do'stimning mavzuga ko'zi tushishi bilanoq sevindi. U bu mavzuga qariyb bir yildan beri tayyorlangan, professorning mavzuga oid savollariga shay edi.

– Va nihoyat bizga ham nutq so'zlash imkoniyati yetib keldi, – dedi u yoqasini tuzatar ekan. – Anavi oliftaga ham ko'rsatib qo'yaman...

Do'stimni qo'llab-quvvatlagan kishi bo'ldim.

– Professor, mavzu haqida ikki og'iz fikrlarimni bildirsam maylimi? – dedi do'stim o'rnidan sekingina qo'zg'alib.

Professor xushlamaygina ko'zoynagi ustidan qaradi. Butun auditoriya do'stimga tikilgan, faqatgina notanish talaba har doimgidek hafsala-siz derazadan tashqariga termilardi. Do'stim professorning ruxsati bilan ikki qo'lini qorin qismiga birlashtirganicha so'zlash uchun og'iz juftladi. Shu onda kutilmagan hodisa ro'y berdi: do'stim og'zini tinmay ochganicha nimalarnidir gapirmoqqa urin-ar, lekin negadir tili kalimaga kelmasdi. U faqatgina og'zini tez-tez ochib, ko'ngilni ezib yuboradigan darajada qiynalib g'udranar, o'zini ortiqcha azoblayotganidan peshonasi tirishib ketar, yuzlari ayanchli tus olgan, u sodir bo'layotgan voqeani aql chig'iridan o'tkazishga-da kuchi yetmasdi. Do'stimga nima bo'ldi? Nahotki, zabondan qolgan bo'lsa? Barcha talabalar hayratdan nima qilishni bilmas, do'stim bo'lsa, hamon tishi-tishiga tegmasdan dag'-dag' qaltiraganicha, endi imo-ishora qilishga urinardi. Biroq shu onda professor jahll bilan partani mushtladi. So'ng do'stimga yuzlanganicha:

– Sirkda emasmisan, masxaraboz? – deya dag'dag'a qilishga tushdi.

U professorga najot umidida iltijoli tikildi, biroq ayni damda uning vajohati do'stimning umidlari bilan hisoblashmasligi tayin edi.

– Darsdan chiqib ket!!! – dedi u baqirib. – Sen bilan hali alohida gaplashib olamiz!..

Do'stim nima qilishni bilmasdan sekingina xonani tark etdi. Uni bu ahvolda yolg'iz qoldirib bo'lmasdi. Kimdir partamga bir parcha qog'ozni igr'itdi. Orqamga o'girilib qog'oz kim tomoni-

dan menga uloqtirilganini ilg'adim. U notanish talabadan edi. Qog'ozni bir amallab ochdim-da, ichida pala-partish yozilgan "Hamrohingizni shifokorga olib boring" mazmunidagi yozuvlarni zo'r-bazo'r o'qiy oldim. Avvaliga hayron bo'ldim. Nega u do'stimdan xavotir olyapti ekan? So'ng professoridan ruxsat oldim-da, jon holatda tashqariga otildim. Zallar bo'm-bo'sh, do'stimdan nom-nishon yo'q edi. Butun universitetning tashqi-yu ichki tomonini izlay-izlay daraxtga suyanib turganimda kimdir qo'llarini ohistagina yelkamga qo'ydi. Bu do'stimning ayni o'zi bo'lib, u qandaydir mung'ayib qolgandi. Uni arang ko'ndirib shifoxonaga olib bordim. Do'stimni bir guruh tajribali shifokorlar ko'rikdan o'tkazishar, men esa bir chekkada o'tirganicha o'rmonda adashgan ovchi holiga tushib qolgandim. Shu payt yonimga keksaroq bir vrach keldi-da, meni savolga tuta boshladi. Uning bir-biridan tushunarsiz savollari-ga javob berib charchab qoldim. Vrach ham holatimni payqadi, shekilli, savol berishdan to'xtadi. So'ng boshini biroz quyi egib turdi-da:

– Do'stingda hech qanday kasallik alomatlari yo'q ekan, – dedi.

– Nega unda gapira olmayapti? Nahot buning biror-bir sababi bo'lmasa? – dedim vrachdan norozi bo'lib.

U bir zum kalovlanib turdi-da, darhol ko'zoynagini oq xalatingning cho'ntagiga joylab, o'zining naqadar tajribali mutaxassis ekanligini ko'z-ko'z qilmoqchi bo'lganday ohista so'zlay ketdi:

– Takror aytaman: do'stingda hech qanday kasallik yo'q. U sog'lom. Buni tahlil natijalari ham isbotlab turibdi. Tildan qolgani esa... bilimadim, nega bunday bo'lgan? Yaqinda ham bir bemorimiz xuddi shunaqa xastalikdan nolib kelingandi. Vaholanki, unda ham hech qanday kasallik belgilari yo'q, o'zi binoyidek ko'rkam, istarasi issiq yigit edi. Faqat to'satdan tiliga kalima kelmay qolgan. Unga dori-darmon yozib berdik. Ozroq davoladik. Shundan beri u bizga qorasini ham ko'rsatmadi.

– Bu kasallik yuqumli emasmi mabodo? Siz noto'g'ri tushunmang, men o'zimdan xavotir olayotganim yo'q. Siz ta'riflagan bemorni men

taniyman. U bilan birga o'qiyviz. Balkim o'sha talabadan do'stim bu illatni yuqtirib oldimikan? – dedim xavotirim oshib.

Vrach negadir tabassum qilganча:

– Bu illat emas, aksincha ulug' fazilat! – dedi hech kutilmaganda. – Undan keyin aslo qo'rquvga hojat yo'q. U odamdan odamga yuqmaydi. Bu xastalik bemorlarimizga baxt-saodat olib kelsa ham ajabmas!

Vrachning bu so'zlaridan battar ichimga shubha-yu gumon kirib olgan, endi ularni haydab chiqarish amri-mahol edi.

O'sha kundan buyon vujudimni faqat bir savol qiynar, eng yomoni dilimda to'planib qolgan bu jumboqlarga tayinli javob topa olmasdan qiynalardim. Do'stim hamon shifoxonada davolanar, uning falsafa darsida aytolmay qolgan so'zlariga qo'shilib butun hayoti ostin-ustun bo'lib ketgandek edi go'yo. U menga qandaydir imo-ishoralar qilar, taassufki, ularning birortasini tushunishga qurbim va aql-farosatim yetmasdi. Shundan so'ng do'stim qog'ozga bir nimalarni qoralar, yozuvining nihoyatda chalkashligidan ularda qanday ma'nolar mujassam ekanligini ilg'ay olmay halak edim. Bu orada esa notanish talabaga bo'lgan hurmat-ehtirom yanada kuchaygandi. Uning qayerda yashashini tunov kuni izquvarlik qilib izidan uyigacha poylab kelgach bilib olgandim. U shahar chekkasidagi odam gavjum bo'lmagan mavzeda yashardi.

U yashayotgan hovli chinniday tozalangan, hammayoqdan poklikning ifori taralayotgandi. Talaba istiqomat qiladigan bu xonadon bor-yo'g'i ikkita xonadan iborat ekan. Negadir eshiklar ochiq turardi. Ichkariga kirib hammayoqni ko'zdan kechirdim. Xonalar hovlining tamoman aksi bo'lib, bu yerda kitoblar sochilib yotar, deraza tokchasida muxbirlar ishlatadigan turli-tuman mikrofonlar bo'laklarga bo'lingan holda turardi. Xonadagi namlikning ta'siridanmi, kitoblar qoramtir bo'lib qolgandi. Shunda bu notanish siyratning avval muxbir bo'lganligini darrov ilg'ab oldim. Yaqinda bu talabani boshqa birorta dang'illama hovliga ko'chirishsa kerak dedim

o'zimcha xonadagi abgor holatni ko'rgach. Shu payt paxtasi ko'rinib qolgan kir yostiqning ostida g'ijimlanib yotgan eski daftarga ko'zim tushdi. Shu zahoti uni qo'limga oldim-da, shosha-pisha varaqlay boshladim. Unda notanish talabaning deyarli butun hayoti yozilgandi. Shu fursatda negadir barchasini angelayotgan va bu bilganlarim meni qo'rquvga sola boshlagan edi. Hash-pash deguncha, daftardagi tafsilotlarni o'qib chiqdim. So'ngra uni sekingina joyiga qo'ydim-da, hovlidan bor kuchimni to'plab uzoqlashdim. Do'stimning nega to'satdan tildan qolgani, ushbu "kasallik" unga kimdan o'tgani, notanish talabaga ko'rsatlayotgan cheksiz hurmat va laganbardorlikning hammasi endi menga ayon edi.

Do'stimni ham notanish talabaning qis-mati kutib turganligini fahmlagach, butun vujudimdan sovuq ter chiqib ketdi. Darhol o'ylab o'tirmasdan shifoxonaga borishga qaror qildim. Loaqal, do'stimni ogohlantirib qo'yishni yelkamdagi qarzdorlik burchim deya o'yladim. Biroq shifoxonaga borganimda do'stim allaqachon bugungi ilmiy yig'ilish uchun o'zi istamasa ham majburlab olib ketilgan, vrachning so'zlariga qaraganda, uni kuyovlardek o'ta zamonaviy qilib kiyintirishgan edi.

Shifoxonadan parishon holda qaytarkanman, shu onda notanish talabaning daftaridagi yozuvlar ko'z o'ngimda musavvir chizib bergan kartina kabi jonlana boshladi. "Men adolatsizlikni ko'p bora o'limga hukm qilmoqchi bo'ldim. Atrofimda sodir bo'lishga parovoz misol tezlik bilan shaylanayotgan zulmlarga qabr qazib, ustidan haqiqat tuproqlarini tortishga urindim. Bir tekisda va zerikarli manzilda ketayotgan karvonga ogohlilik suvlarini sepmoqqa intildim. Biroq ko'p o'tmay tildan qoldim. So'zlash ne'matidan bebahra qildim. Yaqinda xuddi o'zimga o'xshaydigan ikkita yigitga duch keldim. Ulardagi shijoatning alan-gasini ko'rib qo'rqdim. Axir, ular ham men kabi soqov bo'lib qolishsa-chi?.."

Shu payt ajabtovur va dahshatli fikr butun vujudimni chulg'ab oldi. "Menga ham qachondir bu "kasallik" yuqishi mumkin? Qolganlarga-chi?"



**Parizoda  
RO'ZIBOYEVA**

2000-yili tug'ilgan.  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti  
O'zbek filologiyasi fakulteti  
talabasi. Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi  
(2021).

\*\*\*

O'rik guli misol to'kilsa,  
Terib olsang nigohlarimni.  
O'ychan oyga boqib o'tirsam,  
Eslatmasa gunohlarimni.

Uchmasaydi bo'g'zimdan qushlar,  
To'kilmasa edi tomchilar.  
Senga eltar faqat shu tushlar,  
Ashkim oy ko'ksiga tomchilab...

Sochlarimni tarab ketadi,  
Kipriklaring erkalab mayin.  
Unutmoqqa bardosh yetadi,  
Deyman, yana ishq qilar mayib.

Uyg'onmayin, astagina kul,  
Oy ko'shkidan chopganim sensan.  
Ketma, endi meni ham tushun,  
Tushlarimdan topganim sensan...

\*\*\*

Yana bir tun,  
To'kilar anduh,  
Tun o'ynar oy kokilasini.  
Sog'inchlarim tebratar sizning  
Derazangiz shokilasini.

Tun qo'ynida kezinar xayol,  
Bunda sog'inch uvlaydi uzun.  
Ko'zlarimdan issiq yosh kelar,  
Mehrim muzlab qolmasin uchun.

Pichirlashar so'nggi yaproqlar,  
Hilpiratib ko'ylaklarini.  
Oy aksini tomosha qilar,  
Yomg'irlarning ko'lmaklarida.

Siz uxlaysiz, tundan berkinib,  
Ko'rpangizni boshgacha tortib.  
Yasmin kuylar qayta va qayta,  
Sog'inchlarim ketadi ortib...

Yana bir tun, keyin bari hal,  
Ayriliqqa bo'lamiz duchor.  
Boray desam... tong begonasiz,  
O'ylamoqqa yana bir tun bor.

\*\*\*

Suyunchi,  
Suyunchi, suyunchi!  
Xalq o'g'li xalqqa so'z aytarmish.  
Alplarim, uyg'oning bu tongda,  
Alpomish eliga qaytarmish.

Tulporlar qomini to'ydiring,  
Meshlarni suv bilan to'ldiring,  
Oybarchin yuzlarni kuldiring,  
Alpomish eliga qaytarmish.

Bog' eting to'rtala tomonni,  
Mo'l qiling eng tansiq taomni,  
Qorajon, qani u, omonni,  
Alpomish eliga qaytarmish.

Ey o'zin sher bilgan to'ralar,  
Otaga tik boqqan jo'ralar,  
Kim so'rar tanchadan mo'ralab:  
– Alpomish eliga qaytarmish?

Yodgorlar, yovqurlar, uxlamang,  
Alp o'g'li nomini bulg'amang,  
Tuzin yeb tuzliqqa tuflamang,  
Alpomish eliga qaytarmish!

Boysari qay sari ketdi, hov,  
Boybo'ri qay tovga yetdi, hov?  
To'yingni boshlagin, elim-ov,  
Alpomish eliga qaytarmish!





**Saodat FAYZIYEVA**

1992-yili tug'ilgan.  
O'zMUning O'zbek  
filologiyasi fakultetini  
tugatgan. Respublika yosh  
ijodkorlarining Zomin  
seminari ishtirokchisi (2021).

\* \* \*

Maysalar, uyg'oning,  
Gullar, uyg'oning,  
Osmonda o'zgarib bormoqda qaydlar.  
Mo'jizani faqat tushda ko'rardim  
Siz kabi ildizim zamonda paytlar.

Toshlarga hayqirib ovoza qiling,  
Ko'ksidan sidirib otsin g'ussani.  
Eng chiroyli gullar marjonin taqib,  
Akadek quvonib shod etsin mani.

Yomg'irni uyg'otib chorlang uyimga –  
Singlisin sevinchi sherikli bo'lsin.  
Quyosh endi tongni ko'rganigamas,  
Tongda meni ko'rib, ko'zlari kulsin.

Tolega tutashgan uzun yo'llarda  
Qismatim aqlidan ozib ketdi-ya.  
Ko'kargan daraxtning novdalari mast –  
Falakka qulochin yozib ketdi-ya.

Maysalar, uyg'oning,  
Gullar, uyg'oning,  
Bu lahzaning muhrin bosmoqda karam.  
Ana, tor so'qmoqdan kelayotibdi –  
Qalbmning muzlarin eritgan Odam!

## Tongda meni ko'rib, ko'zlari kulsin...

\* \* \*

Onajon, yengingga ilashibdi gard,  
Ko'ksingni to'ldirgan qanday og'riqlar?  
Yo seni g'am bilan hamsoya qilmish  
Mening peshonamga tushgan yoziqlar.

Tong bilan uyqungning chegarasi bir,  
Yelkangda turgan u yorug' osmonmi?  
Sen yopgan nonlarning hidiga to'lgan  
Tandirga almashgum jumla-jahonni!

Seni ko'ngli halim, mushtipar-ku deb,  
Qo'lingdan tortqilab yashaydi g'amlar.  
Eh, ko'kning tartibli o'yinlarini  
Qayerdan ham bilsin sodda odamlar.

Sening ko'ksing metin, sening sabring tosh,  
Garchi bor tashvishlar senga atalgan.  
Ayol tuproq emas, qovurg'alardan  
Dunyoga baxt berish uchun yaralgan!

\* \* \*

Men yomg'irga singilman, bilsang,  
Og'am – chaqmoq, ko'kni yoqadi.  
Tomirimda sokinlik bilan  
Gulduraklar to'lib oqadi.

Shamol – inim, yaproqqa qo'shib,  
Tuyg'ularni uchirar gohi.  
Osmon – opam, bir yig'lar to'lib,  
Yo jimgina kechirar gohi.

Maysa bilan egizak ruhim  
Ibodatda oqibat tilar.  
Yuragimda o'sgan gullarning  
Tilin faqat oymoma bilar.

Kabutarlar bilan ulg'aydim,  
Qanotlarim hali kichkina.



## HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI IJOD MAKTABI

*Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularni barkamol etib tarbiyalash maqsadida ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi.*

*Jumladan, Jizzax viloyatida xalqimizning sevimli farzandlari Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi ochildi. Bugun ushbu ijod maktabida 151 nafar o'g'il-qizlar ta'lim olayotir. Ularning ko'pchiligida adabiyot va san'atga mehr bo'lakcha. Bizningcha, o'quvchilarning maktab partasida yozgan mashqlaridagi adabiy san'atni emas, balki ulardagi beg'uborlikni, orzu va istakni ko'proq qadrlashimiz, shu ma'noda qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Quyida, siz jurnalxonlarga taqdim etilayotgan adabiy mashqlarning ayni shu jihati – qalb musaffoligiga e'tibor qaratasiz, degan umidda Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi bir guruh o'quvchilarining ijodidan namunalarni berishni lozim topdik.*

### *Abadiy ishq*

Yana bahorlarga vaslingni tutib,  
Kuylay boshlamoqda tanish qo'shiqni.  
Bir lahza kel, yana dardni unutib,  
Kel, birga kuylaylik abadiy ishqni.  
Bu ishq qo'shig'idan yaralmish olam  
Va yurak qatida hanuz hayajon.  
Endi gul bag'rida uyg'onmish shabnam  
Va qalbda tirilmish Hamid Olimjon.  
Mana, chappar urib, vodiylar kezib,  
His qildi hayotning sof nafasini.  
Yorining zor yolg'iz qolganin sezib,  
Izladi bog'lardan Zulfiyasini.  
Endi ruhing ila chiqamanmi-a?  
Bahorga, baxtlarga, shodlikka peshvoz.  
Eshitilar, o'zing aytgandek, tingla,  
Faqat bor quvonchni maqtagan ovoz.  
Endi parchalolmas, endi sindirmas  
Bahor mavjlariga bo'lgan oshiqni.  
Bo'ronlarda o'chmas, olovda yonmas,  
Kel, birga kuylaylik mangu qo'shiqni...

**Sevinch ABDAZOVA**

## *Olma*

Shoxda qizarib pishgan  
Qizil olmaga qarang.  
– Tushmayman, – deb yig'laydi,  
Osilib turar arang.  
Ona daraxt aytdiki:  
– Olmajon, jon olmajon,  
Sen bo'lmasang, bolajon  
Bo'lib qoladi nimjon.  
Olma xatosin anglab,  
Sekin yerga tushadi.  
Bola tomon yumalab,  
Iymanib gap boshladi:  
– Bolajon, meni yegin,  
Bog'bonga rahmat degin.  
Meni qilmagin uvol,  
Bo'lg'in sog'lom barkamol!

**Marjona ESHBOYEVA**

---

## *Do'stlik*

Do'sting bo'lsa, albatta,  
Yordam berar kulfatda.  
Kasal bo'lsang, yoningda  
Paydo bo'lar fursatda.

Darslaringni qoldirsang,  
Tushuntirib berar u.  
Ko'ngling qolsa birovdan,  
Shifo, malham bo'lar u.

Do'st, dugona, sinfdosh,  
Sirdosh, darddosh bo'larkan.  
Yaqinlardan yaqining  
Yoningda shay turarkan!

**Ruxsora ALISHBOYEVA**

## *Quyoshjon*

Quyoshjon, manziling qayerda sening?  
Boshingni berkitgan ufqqa yetsaydim.  
Gar issiq taftingdan kuysam qizarib,  
Ortingdan shom bo'lib botib ketsaydim...

Va sahar uyg'otib mudroq zaminni  
Sen-la qo'l berishib kelsaydim Sharqdan.  
G'aflatga ko'ksini berib yotganlar  
Qalbiga nur bo'lib kirsaydim shaxdam.

Men sening olovqalb qizingman, Quyosh,  
Tunlarni yoritgan tong bo'lgim kelar.  
Ko'ksimda yig'lagan bitta armonim –  
Dunyoda baxt degan bong bo'lgim kelar...

Men sening olovqalb qizingman, Quyosh!

**Shahnoza MAMIROVA**

---

## *Tun*

Tun...  
Borliqda bir ajib sukunat kechar,  
Zim-ziyo pardasin tushirdi osmon,  
Sarg'imtil yulduzlar mitti fonusdek,  
Erinib nurini to'kadi hamon.

Tun...  
Yolg'izlik istagan dillarga tuhfa,  
Gavjum xurujlarga beozor taskin.  
Bebosh tuyg'ularni jilovlash uchun  
Sukunat qa'riga bir nafas berkin.

Tun...  
Basharni bag'rida tebratgan xilqat,  
O'ksik ko'ngillarning ma'sum malhami.  
Borliqning jonlarga arg'umon etgan  
Umr kitobining osuda dami...

**Laylo BOSIMOVA**

Sevinch ABDURASULOVA

## Bir kuni ranjitdi otani farzand...

Oppoq pag'a bulutlar qo'ynida moviy osmon uzra uchib borayotgan po'lat ot ichida ketayotgan Mirahmad otaning xayoli mana shu bulutlar bag'rida uchib yurgandi. Umrida birinchi bor samolyotda uchayotgani uchun hamma joyga bir-bir nazar solib chiqardi. Yonidagi sherigiga qo'rqayotganini bildirmaslik uchun qanotli otning o'ng burchagida turgan qizil tugmachaga qarab turdi-yu, o'sha kuzning noyabr oyida bo'lgan voqeani bir-bir eslay boshladi. Bu

voqea hali-hamon ko'z o'ngida.

Chorshanba kuni edi. Xudoyberdi ishdan kayfiyati yomon holda, kech qaytdi. Otasining yo'lini poylab o'tirganini ko'rib, bugungi asabiyliklarning bor alamini otasidan oldi. Yolg'iz farzand bo'lishiga qaramay otasining oldidagi burchini anglamagan o'g'ilning qahri o'sha chirik

darvoza eshigidan ko'cha tomon yuzlantirdi. Ko'zlari yoshga to'lib turgan otaning xayollarini "Diqqat, diqqat! Iltimos, xavfsizlik yuzasidan kamarlarni yana bir bor ko'zdan kechirishingizni so'raymiz. Qaytaraman..." degan gaplar bir zum chalg'itdi. Yana orqadagi yoshi ulug' ayolning: "Dunyoda hamma narsa ham qaytavermaydi. Faqat inson nima ish qilayotganini bilib yashashi kerak", degan gaplari Mirahmad otani sarosimaga solib qo'ydi-yu, o'zi qayerga nima uchun borayotgani ham yoddan butkul chiqib ketdi. Yana shunday moviy osmon qo'ynida erkin qushday uch soatcha parvozdan so'ng otamiz necha yildan buyon orzu qilib kelgan o'sha mo'tabar va qutlug' joyga yetib keldi. Ota Ka'ba qoshida o'tirar ekan, shu kunlarga yetkazganiga shukurlar qildi va noyabr oyida bo'lib o'tgan g'amboda tunni eslab yuragi orqaga tortganday bo'ldi. Atrofdagi insonlarga qaragani o'zida kuch yo'qligini sezardi-yu, lekin o'g'lining yelkalarini quchgan, ajin bosgan qo'llarini duoga ochib, shunday dedi: "Yo Robbim, ibodatim bo'lsa ham uvol, faqat saodat ber o'sha bolamga".





Iroda XOLBEKOVA

# Tilla baliqcha xatosi

Hikoya

A dashmasam, to'qqizinchi sinfda o'qiyotgan vaqtlarim edi. Endigina qo'limga qalam olib, ilk marta she'r qoralagan davrim... O'shanda hamma sinfdoshlarim meni shoir deb chaqirar, yondosh sinfdagi o'quvchilar ko'chada ko'rib qolishsa, qo'llarini bigiz qilib: "Qaranglar, shoir kelyapti. Hoy, chala shoir, bizga atab she'r yozmaysanmi?" – deya masxara aralash iltimos ham qilib qo'yishardi. Men esa qaddimni g'oz tutib: "Haqiqiy shoirlar buyurtmaga she'r yozmaydilar, ular she'rni ilhom kelganida qog'ozga tushirishadi", – deya mag'rur qadam tashlardim.

She'rim ilk bor gazetaga chiqqan kuni esimda. Maktabda tonggi saflanish vaqtida adabiyot o'qituvchimiz Farog'at opa chiqib, bu yangilikni e'lon qilgandilar. Shunda direktorimni meni yonlariga chaqirib, hammaning oldida:

– Shunday shoir bola bizning maktabda o'qir ekan-u, bilmay yurgan ekanmiz, – deya yelkamga qoqib qo'rganlarida kimdir menga havas bilan qaragan, kimlardadir hasad tuyg'usi yanada avj olgan, ammo sinfdoshim Rohila hech narsaga e'tibor bermas, menimcha, o'z xayollari bilan band edi.

Saflanish tugagach, maktab hovlisidan sinfxonaga qaytib kirar ekanman, hattoki boshqa sinfdagi qizlar ham shaxsan qo'l berib tabrikladi. Asta ularning yonidan uzoqlasharkanman, uch-to'rtta bo'lib uyulishib turgan qizlarning:

– Zo'r yozibdi-ya she'rini? – degan gaplari qulog'imga chalinardi. Bundan so'ng battar o'z-o'zimdanda mag'rurlanib ketdim.

Ammo o'sha kuni na kulishimni, na yig'lashimni bildim. Qaysi tomonga yurishini

bilmay yarim yo'lda adashib qolgan yo'lovchidek his etdim o'zimni. Xayolan shoirlilikning mashhurlik tulporida sayr qilib yurar ekanman. Meni ko'chada uchratgan kishilar:

– Anavi shoir Azim Turdiyev emasmi? – deya kelib mendan dastxat olishadi.

Hali nashriyotlar kitoblarimni bosadi. Mashhur san'atkorlar she'rlarimni qo'shiq qilib kuylashadi...

Shunday o'ylar bilan o'zimni ovutaman. Shoirlarning yuragida bir dardi bo'ladi, deb bekorga aytishmas ekan... Dardi bo'lganda ham yuragining tub-tubida bo'lar ekan. Rohila menga aqalli birgina e'tibor qilsin, deb qancha she'rlar yozaman, o'qituvchilar ham faqat meni maqtaydi, hamma baholarim besh. Boshqa sinfdoshlarimga ozgina yaxshi gapirsam, yonimdan ketolmay qoladi. Ammo... Ammo Rohilaga umuman farqi yo'q. Uni deb o'lib-tirilib harakat qilayotganimning zarracha ham qizig'i yo'q...

Bir kuni Rohilaga atab she'r yozishga ahd qildim. Yaxshi she'r yozib, partasining tagiga qo'yib ketaman yoki sumkasiga solib qo'yaman. O'ziga bersammikan? Yo'q, o'ziga bersam, olmasligi mumkin, hammaning oldida bersam, olmay ketib qolsa, butun sinfga kulgi bo'laman. Yaxshisi, buni o'zimdanda boshqa hech kim bilmay qo'ya qo'lsin. Yopig'liq qozon yopig'ligicha qolgani ma'qul. Darslarimni qilib bo'lgach, oppoq qog'ozga ichimdagi dardlarimni to'kib, qalam tebrata boshladim.

*"Nega tilkalaysan bag'rimni, aytgin?  
Ayt, kimdan kamim bor?.."*

Atigi ikki qatorgina yozib, to'xtab qoldim. Ilhomim qochib ketdi, shekilli. Adabiyot ustozim



Farogʻat opa: “Azimjon, bolam, agar sheʻr yozolmay qolsang, koʻproq kitob mutolaa qil, sheʻrlaringga rang kiradi. Ular ham sekin-asta ulgʻayishni boshlaydi. Sen koʻproq oʻqishing kerak”, – degandilar-a? Qiziq, sheʻrlarimda rang yoʻq, demoqchilarmi bu bilan? Afsus, oʻz oʻqituvchim ham menga hasad qilar, yutuqlarimni koʻra olmas ekan-da... Shoir boʻlish uchun koʻp ham kitob oʻqish shart emas. Ilhom kelsa bas shoir uchun. Tamom, vassalom. Demak, koʻproq sheʻr yozishim kerak...

Shunday qilib, Rohilaga bagʻishlab sheʻr ham yoza olmadim. Kecha tumanimizdagi gazeta tahririyatiga sal avvalroq yozilgan sheʻrlarimni olib bordim. Yana oʻsha gapni aytishdi: “Koʻproq oʻqing. Siz faqat gazetada chop etish uchun sheʻr yozmang”. Yana oʻzim bilan birga olib kelgan qogʻozlarimni qoʻlga olganча uyga qaytdim.

\*\*\*

Tushkun kayfiyatda maktabga bordim. Negadir sinfda Rohila koʻrinmasdi. Joyimga oʻtirishim bilan oʻrtogʻim Javohirdan uning nega kelmaganini soʻradim:

– Eh, Majnun, Majnun... Laylining ishqida kuyib, oxiri kul boʻlmasang, deb qoʻrqaman, –

dedi u. – Xavotir olma, buvisinikiga mehmonga ketgan ekan.

Javohirning gaplarini eshitib, koʻnglim biroz joyiga tushdi. Geografiya darsida xayol surib oʻtirgandim, oʻqituvchim hammaning oldida tanbeh berdi.

– Sinf doshim, shoirlarga hamma narsa mumkin, – kesatdi Abduxoliq.

Oʻqituvchimdan uzr soʻrab, indamaygina joyimga oʻtirdim. Qirq besh daqiqa bir asrdek tuyuldi. Qoʻngʻiroq chalingach, birinchi boʻlib narsalarimni olib sinfdan chiqib ketdim va kutubxonaga kirdim.

– Kel, shoir yigit, – jilmaydi kutubxonachimiz, – qanaqa kitob olasan?

Yuzimda soxta tabassum bilan arang jilmayganча salom berganimdan soʻng, qaysi kitobni tavsiya qilishlarini soʻradim.

– Abdulla Oripovni toʻliq oʻqi, – qatʻiy ohangda dedi kutubxonachi opa, – avval ham oʻqigan boʻlsang kerak-a ustozning sheʻrlarini?

– Ha, Abdulla Oripovning ijodiga mehrim boʻlakча.

Kutubxonachi opa yolgʻon gapirayotganimni qayerdan bilsin? Ey Xudo, oʻzing kechir...

Kitoblar orasidan Abdulla Oripovning “Saylanma”sini topdik.

– Mana shu kitobni yaxshilab o‘qi. Nasib etsa, sen ham taniqli shoir bo‘lasan, – dedi kitobni qo‘limga tutqazar ekan, – o‘shanda bizni tanimay qolmagin-a.

Indamaygina kulib qo‘ydim va rahmat aytib, uyga shoshildim.

\* \* \*

Kitobni mutolaa qilar ekanman, shoirning bir misrasi yuragimga umid bag‘ishladiki, shodligimdan ichimga sig‘may ketdim. Dardni ham, darmonni ham shu kitobning o‘zidan topdim.

*“Ba‘zan g‘aliv jumla ustida  
Soatlab bosh qotirganim bor”.*

Shoir she‘rlarining mazmuni, saviyasi xuddi nihol unib, barg chiqarib va nihoyat, meva bergandek o‘tib bormoqda. “Tilla baliqcha” nomli she‘rga ko‘zim tushib qoldi. O‘qib, rostini aytsam,

etim jimirlab ketdi. Demak, men ham o‘sha tilla baliqcha kabi loyqa ko‘lmakda suzib yurgan ekanman-da... Nahotki... Nahotki men ham shugina loyqa ko‘lmakni dengiz deb tasavvur qilsam? Men xato qildim! Qarsak va maqtovlarga ishonib qolganimni endi angladim. Ha, men ham o‘sha tilla baliqchalarning biriman...

Yillar va tinimsiz izlanishlar ijodkorning yozganlarini yuksaklikka ko‘taradi. Demak, tushkunlikka tushishim kerak emas. Hali menda vaqt bor.

*“Hali qancha tunlarni yana  
o‘tkazishim kerak uyqusiz?”*

Demak, shoir bo‘lish uchun ilhomning o‘zi kamlik qilar ekan. Nega shuni ertaroq anglamadim-a? Hechdan ko‘ra kech. Muhimi, angladim. Endi haqiqiy she‘r yozaman. Haqiqiy shoir bo‘laman. Shunda Rohila ham mening she‘rlarimni o‘qiydi, albatta, o‘qiydi...

## Yaxshilik yerda qolmas

Bor bitta sho‘x jiyanim,  
Uning ismi Zaynabxon.  
Juda ham quvnoq qizcha,  
Yerda yorqin yulduzcha.

Ozoda va sarishta  
U borgan har bitta joy.  
Chiroyini ko‘rsangiz,  
Lol qolar hattoki oy.

Zaynabxon koptok bilan,  
Bir bog‘ga yo‘l olibdi.  
Arg‘imchoq uchaverib,  
Rosa holdan tolibdi.

Keyin hovuz chetida,  
Koptogini tepibdi.

Koptokcha tasodifan  
Suvga tushib ketibdi.

Shirin qizcha o‘tirib,  
Rosa ko‘zyosh to‘kibdi.  
Shu payt uning yonidan  
Bir amaki o‘tibdi.

– Shirin qizim, yig‘lama,  
Koptoging suvdan olay.  
Men bir yaxshilik qilib,  
Seni ko‘p xursand qilay.

Amaki yeng shimarib  
Hovuzchaga tushibdi.  
Koptokni suvdan olib,  
Qizaloqqa tutibdi.

Zaynabxon xursand bo‘lib,  
Amakini quchibdi.  
Go‘yoki osmonlarga  
Qanot qoqib uchibdi.

Yaxshilik qilsang, do‘stim,  
Umring baxtga to‘ladi.  
Shunda ko‘ngil bog‘imiz  
Shaksiz obod bo‘ladi!

Ko‘rdingizmi, bolalar,  
Yaxshilik yerda qolmas.  
Ming asrlar o‘tsa ham,  
Bu so‘zning nomi o‘lmas!

**Visola TURSUNOVA**



*To'ra Sulaymon Zarafshon vodiysi haqida kuylaganda ham, bahor va muhabbatni tarannum etganda ham o'ziga xos ohang va fikr topadi. U she'riy axborot bermaydi, lekin har bir she'rida bir necha tesha tegmagan obrazlar misra bilan she'rxonga zavq bag'ishlaydi...*

**Ma'ruf JALIL**

# To'ra

## SULAYMON

1934-yili Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi Yoyilma qishlog'ida tug'ildi. 1936-yilda oilasi Mirzacho'lga ko'chirma qilingan shoir o'z tarjimaiy holida shunday yozadi: "Mening qaysi yili tug'ilganim aniqmas. Enamning aytishlariga qaraganda, qolaversa, o'zimning qachon maktabga borib, qachon ro'zg'or ishlari bilan kattalarday jiddiy shug'ullana boshlaganimni eslasam, tug'ilgan yilim o'ttiz ikkinchi yilga to'g'ri keladi. Bunday deyishimning sababi, quloq qilinganimizda enamning qo'lida ekanman".

To'ra Sulaymon 1952-yilda o'rta maktabni tugatgach, maktabda o'qituvchilik qildi. Toshkent davlat universitetining Jurnalistika fakultetida sirtidan tahsil oldi. "Sirdaryo haqiqati" gazetasida mas'ul kotib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sirdaryo viloyatining mas'ul kotibi, adabiy maslahatchisi vazifalarida xizmat qildi.

Shoirda adabiyotga, ijodga havas ancha erta uyg'ongan. Bunda xalq og'zaki ijodini yaxshi bilgan zukko ota-onasining xizmatlari katta. "Ayniqsa, otamdan eshitgan ertaklarim orasida "Boldirboy" degan ertak meni ko'p maftun qilar edi", – deb eslaydi shoir.

1962-yilda To'ra Sulaymonning "Istar ko'ngil" nomli birinchi she'riy to'plami chop etildi. Shundan keyin "Qorasoch", "Hamqishloqlarim", "Jahongashta" dostoni, "Mening qora ko'zginam", "Men qayga borar bo'lsam", "Alhazar", "Intizor", "Sizni eslayman", "Istar ko'ngil" kabi yigirmadan ortiq kitoblari nashr etilgan. O'nlab she'rlari qo'shiqqa aylanib, taniqli hofizlar tomonidan kuylab kelinadi.

To'ra Sulaymon 1999-yilda O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan.

Shoir 2005-yili vafot etdi.





*Bu shoir (Sa'dulla Hakim)ning she'rlarini o'qiganda ertaklardagi Eromon botir tog'lar, adirlar osha ko'hna o'zbekona sodda qo'shiqlarimizni dildan ovozi baland qo'yib aytib kelayotgandek bo'ladi. Bu kuylarda yashash va sevish zavqlari baralla yangrab turadi. Bu qo'shiqlarni kuylayotgan odam hamisha, har qanday sharoitda matonatli so'zlarni ayta biladigandek ko'rinadi.*

**Ibrohim G'AFUROV**

# Sa'dulla

## HAKIM

1951-yili Jizzax viloyati Forish tumanidagi Garasha qishlog'ida tug'ildi. ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning Jurnalistika fakultetida tahsil oldi. Avvaliga “Saodat” jurnalida, so'ng “O'zbekiston adabiyoti va san'ati”, “O'zbekiston ovozi” gazetalarida adabiyot va san'at bo'limi mudiri, mas'ul kotib lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. “Ma'rifat” gazetasiga rahbarlik qildi (1992–1996). “Turkiston press” axborot agentligida bosh direktor, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida bosh muharrir, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifalarida xizmat qildi.

Sa'dulla Hakimning “Hamal tonglari”, “Sen kutgan bahor”, “Yoz oqshomi”, “Ona so'z”, “Saylanma”, “Ko'ngil yuzi”, “Ko'hna naql” she'riy kitoblari nashr etildi. Gyote, Pushkin, Lermontov, Yesenin, Yunus Emro kabi shoirlarning she'rlarini tarjima qilgan. “Saylanma” kitobi uchun 2002-

yili “Eng ulug', eng aziz” respublika tanlovi g'olibi bo'ldi. Ma'naviy hayotimizga oid “Esimda qolgan kunlar”, “Atom qa'riga sayohat” kabi publitsistik asarlari adabiy jamoatchilik nazariga tushdi. “Bola Botir” dostonida (2013) badiiy so'zning ulkan maqsadlar va mustahkam e'tiqod yo'lidagi o'rni, ahamiyati tiniq obrazlar vositasida ochib beriladi.

Ayniqsa, uning tarixiy qahramonlikni ulug'lovchi “Olis yulduz” dostoni muxlislar e'tiboriga tushdi. Dostonda shoirning adabiy-falsafiy konsepsiyasi, olam bilan odamni yaxlit uyg'unlikda ko'rish, tasvirlash yo'sini o'ziga xos tarzda ifoda etiladi.

Sa'dulla Hakim 2002-yili “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi” unvoni bilan taqdirlangan.

2020-yil 11-oktyabrda vafot etdi.

# Oqila rafiqa

Hikoya



## Yunis de SOUZA

(1940–2017). Hind shoiri, adabiyotshunosi va yozuvchisi. Uning “Golland rasmidagi ayollar” (1988), “Tegishli bo‘lish yo‘llari” (1990), “To‘qqiz hind ayol shoir” (1997), “Bu so‘zlarim” (2012) va “Bodom bargidan o‘rganish” (2016) she‘riy kitoblari mashhur. Uning “Dangerlok” (2001) va “Dev va Simran” (2003) romanlari nashr etilgan.

Ingliz tilidan  
**Muxlisa XIDIROVA**  
tarjimai.

Hindistonning mo‘jzagina Shrinagar shahrida hashamatli uyi, tengsiz boylig-u xizmatkorlarga ega bir savdogar yashardi. Ammo boyoqishning toleyi kulmagandi, yakka-yu yolg‘iz farzandi Bayuning fahm-farosati u kutgandek emasdi. Bayu arifmetikada oqsar, hisob-kitobga toqati yo‘q edi. O‘g‘ilning qo‘lidan hatto, oddiy savdolashish ham kelmasdi. Savdogar o‘g‘li haqida qayg‘ura boshladi: “Bolam vafotimdan keyin qanday yashaydi?”. “Bordi-yu, tovlamachilar uning soddaligidan foydalanib, mening bor-budimni ko‘kka sovursa, o‘g‘lim nima qiladi?” deya o‘ylardi

U qanday yo‘l tutishni uzoq mulohaza qildi. Nihoyat, bir kuni o‘g‘lini yoniga chaqirib, shunday dedi: “Bayu, bir necha yildan so‘ng, men senga yordam bera olmasligim mumkin, shu sabab senga beradigan maslahatimni doimo yodda tut. Agar istasang, buni yozib berishim mumkin”.

– Shunday qila qoling, ota. Bu yaxshiroq eslab qolishimga yordam beradi, – dedi o‘g‘il.

– Uydan do‘konga hech qachon quyosh nurida bormagin, guruch har kunlik taoming bo‘lsin. Oxirgisi, har hafta yangi xotin olasan, – yozdi kekxa savdogar.

Bayu ushbu nasihatlarini eshitarkan, boshi gangib qoldi.

– Nima demoqchisiz, ota? – so‘radi u. – Aytganingizni qilaman, biroq bularning menga nima nafi borligini tushunmayapman?

– Hechqisi yo‘q, – dedi ota. – Vaqti-soati kelib tushunasan.

Oradan yillar o‘tib, savdogar vafot etdi. Bayu otasining maslahatlarini esga oldi. U doimo g‘amxo‘rlik qilgan otasini rozi qilish uchun imkoni boricha tezroq uning aytganlarini bajarishi kerakligini tushundi. Otasi “Quyosh nurida ko‘chada yurma” degandi. Bayu nima qilishi lozim? Endi otasidan qolgan do‘konga borish uchun uyidan boshlab soyabonli yo‘l qurishi kerakmi? Bu unga juda qimmatga tushadi, qolaversa, bu ahmoqligi uchun hamma ustidan kulishi mumkin.

– U bor-budini shu loyihaga tikadi, – dedi odamlar, – natijada boradigan do‘konning o‘zi qolmaydi.

Bayu odamlarning istehzoli luqmalaridan nihoyatda tushkunlikka tushsa-da, otasining maslahatlarini bajarishga bel bog'ladi.

– Guruch kundalik taoming bo'lsin, – keyingi o'git edi. Boshida bu oson bo'lishi mumkin, bora-bora bir xil ovqat odamni zeriktiradi.

Uchinchi maslahat esa hammasidan oshib tushgandi. Hech qaysi qiz unga bir haftaga tegishga rozilik bildirmaydi. Bayu butun shaharda kalaka bo'ldi.

Bir kuni, Maryam ismli yoshgina qiz Bayuning hikoyasi, keksa savdogarning o'gitini eshitdi. Qiz qari otaning nima demoqchi bo'lganini tezda fahmladi. U Bayuga achinib, odamlarning uni mazax qilishiga chidolmadi. Qiz otasining aytganlarini bajarish burchi deb bilgan yigitni yoqtirib qolgandi. U oila a'zolariga yigitga turmushga chiqishga roziligini bildirdi. Bundan esa, ular dahshatga tushishdi.

– Bir haftadan so'ng u seni uyga jo'natib yuborsa, holing ne kechadi? – achinib so'rashdi ular.

– U bunday qilmaydi, – dedi qiz qat'iy. – Mana ko'rasiz.

Bayu Maryamni ilk ko'rgandayoq uning maftunkorligi, latofatiga oshiq bo'lib, uylanishga qaror qildi. Qizning hamma gapdan xabardor ekanligi Bayuning xayoliga ham kelmagandi. Yigit qizga otasining o'gitlarini aytganda qiz javob berdi, “Mening hammasidan xabarim bor. Menga nima bo'lishi haqida qayg'urmang”.

Ularning to'yi juda chiroyli o'tdi. Rangli chiroqlar, musiqa, dasturxoniga turfa xil lazzatli taomlar tortilgandi. Ko'p mehmonlar tashrif buyurishdi. Hammaning og'zida bir gap: “Qanday ahmoqona kelishuv. Yoshgina kelinchak bir haftadan keyin qaytib keladi”.

Yetti kun ham ko'z ochib yumguncha o'tdi. Yettinchi kuni Bayu holsiz uyg'ondi. “Bugun Maryamni uyiga jo'natishim kerak, buning uchun esa undan qandaydir nuqson topishim zarur, aks holda u ketmaydi” – dedi o'ziga o'zi.



Maryam barra qo'y go'shtidan tayyorlangan mazali palovni keltirdi

– Buni darhol ko'zimdan yo'qot! – Baqirdi g'azab bilan Bayu. – Judayam bemaza ko'rinyapti. Menga guruch bilan baliq keltir.

Oradan lahza o'tarotmas, Maryam qo'lida guruch va baliq bilan kirib keldi.

– Men baliqning bu turini yomon ko'raman! – O'shqirdi Bayu. – Undan ko'ra kesak yeganim yaxshiroq.

Maryam ovqatni olib chiqib, kesakni likopchaga solib olib keldi. Bayu yengilganini sezib turardi. – Daf bo'l, – dedi g'amgin. – Men seni olib qololmayman. Otamning vasiyatini ado etishim kerak.

– Sizning esingiz joyida emas, – dedi Maryam erining yoniga o'tirib. – Otangiz esa nihoyatda dono va mehribon inson bo'lgan ekanlar. Otangiz sizning butun shaharchaga mazax bo'lishingizga sabab bo'ladigan ishlarni maslahat bergan deb o'ylaysizmi?

– Unda bu g'alati o'gitlar bilan nima demoqchi bo'lgan?

– U sizga hech qachon quyosh nurida do'konga bormaslikni aytganda, u do'konga erta borib, kech qaytishingizni va kun davomida uni yuritishingizni nazarda tutgan. U sizga faqat guruch yeyishingizni aytganda esa dabdabali emas, balki sog'liq uchun foydali taomlarni tanovul qilishingizni istagan.

– Lekin uchinchi istak... – yig'ladi Bayu. – Bu aytilganidek ma'noni bildiradi. Har hafta yangi xotinga uylanish...”

– Aslo, bunday emas – dedi Maryam. – Otangiz xotiningizga doimo mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishingizni nazarda tutgan. Agar siz xotiningizni har doim ilk uylangan kunlaringizdagidek sevib ardoqlasangiz, u sizga har hafta yangi kelinchakdek muomala qiladi.

Bayu xotining zukkoligidan hayratga tushdi.



## Shoirning davosi

Bir shoir tabibning qoshiga kelib arz qildi:

– Ey tabibi hoziq, bir narsa yuragimda tugun bo‘lib turibdi. Shuning javridan butun vujudim azob chekayotganga o‘xshaydi. Bir iloji bormikan?

Tabib ham zarifgina (nozik fahmli, xushta‘b) kishi edi, dedi:

– Bo‘lmasam-chi, olamda dard yo‘qki, uning davosi bo‘lmasa. Xo‘sh, hali hech kimga o‘qib bermagan she‘ring bormi?

– Bor, – dedi shoir.

– O‘shani o‘qi.

Shoir she‘rini o‘qishga kirishdi. Tabib uni maqtab, tahsinlar aytdi. Keyin o‘sha she‘rni yana bir marta, yana bir marta o‘qishni iltimos qildi. Shoir she‘rini uch karra o‘qib bergach, tabib dedi:

– Endi bor. Senga shu shifo. Yuragingda tugun bo‘lib turgan narsa shu she‘ring edi. Ana, endi yozildi.



## Shoir o‘g‘risi

Bir kuni hakim Anvariylar bozoridan o‘tib borar edi. Qarasa, bir joyda xalq to‘planib turibdi. Shoir u yerga borib ko‘rdiki, bir kishi Anvariylarning qasidalarini o‘z nomidan o‘qib, hammani og‘ziga qaratib turardi. Xaloyiq uning she‘riyatdagi salohiyati va o‘qishiga ofarin der edilar. Anvariylar u kishiga murojaat qilib dedi:

– Ey, kimning she‘rlarini o‘qiyapsan?

– Shoir Anvariyniki.

– Anvariyni taniysanmi o‘zi? – dedi Anvariylar.

– Qiziq ekansan-ku, – dedi u kishi, – Anvariylar menman-da.

– Yo alhazar, – dedi Anvariylar yoqasini ushlab. – Men she‘r o‘g‘risini eshitgandim-ku, ammo hanuzgacha shoir o‘g‘risini ko‘rmagan edim.



## Shuhrat

Bir shoir mavlono Jomiyning oldiga bir g‘azal keltirib, dedi:

– Ey mavlono, siz ham ma‘qul ko‘rsangiz, shu g‘azalni shahar darvozasiga osib qo‘ysalar, men ham biroz shuhrat taratsam.

– Mayli, – dedi, Jomiy she‘rni o‘qigach, – lekin ehtiyot bo‘l, el bu sening she‘ring ekanligini bilsa, yoniga o‘zingni ham osib qo‘yadi.

(Ilgari eng yaxshi she‘rlarni katta-katta qilib yozib, shahar darvozasiga osib qo‘yganlar. Bundan murod shoirni hammaqa tanitish edi).



### Muqovada

Ahmad To‘ra

olgan suratdan foydalanildi.

Bosishga 19.08.2021-yilda ruxsat berildi.

Qog‘oz bichimi: 84x108 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyat hisob tabog‘i: 8

Obuna indeksi – **822.**

ISSN 0207-9137.

Jurnal 2007-yil 4-mayda

O‘zbekiston Matbuot va

axborot agentligi tomonidan

N<sup>o</sup> 0253 raqami bilan

ro‘yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Jurnaldan ko‘chirib bosilganda “Yoshlik”dan olindi” deb izohlanishi shart.

“SILVER STAR PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi. Buyurtma N<sup>o</sup> 37. Adadi: 1707.

Toshkent shahri,

Uchtepa tumani,

22-mavze, 17-uy.